

SAN'ATSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI



- ❖ O'zDSMI huzuridagi Tarmoq markazi
- ❖ "San'atshunoslik"(turlari bo'yicha) yo'nalishi
- ❖ San'atshunoslik fanlari nomzodi A.Z.Rizayev

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan
tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

Tuzuvchi: “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik”
kafedrası dotsenti, san’atshunoslik fanlari
nomzodi Rizayev Amanulla Zufarovich

Taqrizchi: “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik”
kafedrası professori, san.f.d.
M.T.To‘laxodjayeva

O‘quv -uslubiy majmua O‘zDSMI Ilmiy metodik
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2020 yil “29” yanvardagi 1-sonli bayonnoma)

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR.....	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....	13
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	20
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	47
V.	KO‘CHMA MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	51
VI.	KEYSLAR BANKI.....	54
VII.	GLOSSARIY.....	59
VIII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	157

I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

“San’atshunoslikning zamonaviy tendensiyalari” modulining maqsadi:

- San’atshunoslikning (turlari bo‘yicha) turli yo‘nalish va janrlar kesimida rivojlanish bosqichlari, tarixi va zamonaviy holatini qiyoslash orqali uning bugungi holatini belgilash, pedagog kadrlarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuqori ilmiy-metodik darajada ta’minlashlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini yangilash hamda ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining oshishini ta’minlashdan iborat.

“San’atshunoslikning zamonaviy tendensiyalari” modulining vazifalari:

-zamonaviy talablarga mos holda oliy ta’limning sifatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;

-maxsus fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish;

-san’atshunoslik sohasining yangi davr muammolari bo‘yicha ma’lumotlar berish va ularni qo‘llash uchun pedagog kadrlarni tayyorlashni ta’minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etishga o‘rgatish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“San’atshunoslikda zamonaviy tendensiyalar” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- san’atshunoslikning rivojlanish tendensiyalarini, san’atshunoslik fanlarining nazariy asoslarini, san’atshunoslik fanining oliy ta’lim tizimidagi o‘rnini, san’at sohasidagi turli zamonaviy uslublar, yo‘nalish va tamoyillarni **bilishi** lozim.

- san’atshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha xorijiy manbalardan pedagogik faoliyatda foydalanish, san’atshunoslik bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribalaridan foydalanish, san’atshunoslik sohasidagi innovatsiyalarni ilmiy-tadqiqot va o‘quv jarayoniga tadbiiq etish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi** lozim.

- san’atshunoslik fanlarini o‘qitishning didaktik ta’minotini yaratish, san’atshunoslikning zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini nazariy asosda o‘quv jarayoniga tadbiiq etish, san’atshunoslik fanlarining metodik ta’minotini yaratish, san’atshunoslik fanlarini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribani qo‘llagan holda o‘quv jarayonini tashkil etish **malakalariga ega bo‘lishi** zarur.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“San’atshunoslikning zamonaviy tendensiyalari” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, audio-video yozuvlaridan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

Mazkur “San’atshunoslikning zamonaviy tendensiyalari” modulning mazmuni o‘quv rejadagi “San’atshunoslikning dolzarb masalalari”, “San’atshunoslikda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish” va “San’atshunoslikda o‘zbek musiqa merosining

ahamiyati” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

- Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan “San’atshunoslik” (turlari bo‘yicha) va uzviy o‘zaro bog‘liq boshqa fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlarni olib borish, ularning mazmunini yangi, zamonaviy uslublar bilan boyitilgan holda amalda qo‘llash va talabalar bilimni baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat			
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot
1.	San’atshunoslik fanining asosiy funksiyalari.	4	2	2	
2.	San’at jamiyat rivojlanishining muhim omili sifatida. San’at turlari va o‘ziga xos ifoda vositalari.	2		2	
3.	Teatr-sintetik san’at sifatida.	6	2	4	
4.	Milliy kinematografiyadagi yangi tendensiyalar mohiyati.	2		2	
5.	San’at ta’limidagi zamonaviy yondashuv va usullar.	2	2		
6	San’atshunoslik sohasida ilmiy tadqiqotlar	2		2	
7	San’atda milliylik va integratsion jarayonlar. Ta’lim va tarbiya uyg‘unligi. Sharqona ta’lim va tarbiyaning yetakchi xususiyatlari.	2		2	
Jami: 20 soat		20	6	14	

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. San’atshunoslik fanining asosiy funksiyalari.

San’atshunoslik fanining asosiy funksiyalari. San’atshunoslik fanining nazariy va amaliy asoslari. San’at turlari va janrlari, uning tasviriy va ifodaviy turlari, san’atlarning hozirgi holati va yo‘nalishlari. Teatr, musiqa, tasviriy san’at, kino va boshqa zamonaviy san’atlarning jamiyat ijtimoiy, madaniy-ma’naviy xayoti bilan uzviyligi, taniqli dramaturg, rejissyor, rassom, kompozitor va boshqalarning ijodi. San’at turlarining o‘zaro bog‘liqligi. Xorijiy adabiyotlartahlili, ta’lim jarayoniga tadbiq etish masalalari.

Mazkur mavzu yuzasidan tinglovchilar san’atshunoslikning nazariy va amaliy jihatlarini, nazariy bilimlarni amaliyotga joriy qilish tamoyillari va mas’uliyati haqida ma’lumot oladilar.

2-mavzu. Teatr-sintetik san’at sifatida

Teatr-sintetik san’at sifatida. Teatr san’atining qadimiy san’at turlaridan biri ekanligi. Spektaklning asosini dramaturg tomonidan sahna uchun mo‘ljallab, maxsus yozilgan asar, ya’ni pyesa tashkil etishi. Shuningdek, tomosha san’at turi bo‘lmish teatr - o‘zida barcha san’at turlari (adabiyot, musiqa, raqs, rassomlik va h.k) elementlarini mujassam qilgan, sintezlashtirgan holda original san’at turi sifatida namoyon bo‘lishi.

Mazkur mavzu yuzasidan tinglovchilar san’atshunoslikning muhim obyektlaridan biri bo‘lmish teatr san’ati orqali boshqa san’at turlarining uyg‘unlikda yangi san’at turi sifatida namoyon bo‘lish jarayonlari xususida nazariy va amaliy jihatdan ma’lumot oladilar.

3-mavzu. San’at ta’limidagi zamonaviy yondashuv va usullar.

San’atshunoslikning rivojlanish tendensiyalari. San’atshunoslik fanining turli san’at turlari evolyusiyasi, rivojlanish bosqichlari va tendensiyalari bilan chambarchas bog‘liq holda yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, uning o‘ziga xos qirralari, shuningdek, jahon madaniy-ma’naviy hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati. Zamonaviy san’at turlari. Xorijiy adabiyotlartahlili, ta’lim jarayoniga tadbiq etish masalalari.

Tinglovchilar mazkur mavzu yuzasidan san’atshunoslikning paydo bo‘lishi, zamon bilan hamnafas shakllanib borishi, o‘ziga xos xususiyatlari va unga qo‘yiladigan talablar haqida ma’lumot oladilar.

AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

1- Amaliy mashg‘ulot. San‘atshunoslik fanining asosiy funksiyalari (2 soat).

San‘atshunoslik fanining nazariy va amaliy asoslari. San‘at turlari va janrlari, uning tasviriy va ifodaviy turlari, san‘atlarning hozirgi holati va yo‘nalishlari. Teatr, musiqa, tasviriy san‘at, kino va boshqa zamonaviy san‘atlarning jamiyat ijtimoiy, madaniy-ma‘naviy xayoti bilan uzviyligi, taniqli dramaturg, rejissyor, rassom, kompozitor va boshqalarning ijodi bilan tinglovchilar tanishadilar va mavzu bo‘yicha ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini namoyish etadilar.

2-Amaliy mashg‘ulot. San‘at jamiyat rivojlanishining muhim omili sifatida. San‘at turlari va o‘ziga xos ifoda vositalari(2 soat).

San‘at jamiyat rivojlanishining muhim omili sifatida. San‘at turlari va o‘ziga xos ifoda vositalari. Jamiyat rivoji va ma‘naviy hayotida san‘atning o‘rni va san‘atkor mas‘uliyati masalalari. Hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan bo‘lgan ma‘naviy, mafkuraviy va axborot xavfsizligining mazmun-mohiyati. Tinglovchilar ma‘naviy va mafkuraviy tahdidlarning san‘at sohasi orqali kirib kelishi, ularni oldini olish yo‘llari bilan tanishadilar va mavzu bo‘yicha ko‘tarilgan masalalar yuzasidan amaliy ko‘nikmalarini namoyish etadilar.

3-Amaliy mashg‘ulot. Teatr-sintetik san‘at sifatida (4 soat).

Teatr-sintetik san‘at sifatida. Tinglovchilar Pirmiqul Qodirovning Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan “Yulduzli tunlar” pyesasini o‘qiydilar va tahlil qiladilar. So‘ngra, ushbu pyesa asosida “Diydor” teatr-studiyasida rejissyor Bahodir Yo‘ldoshev sahnalashtirgan spektaklni ko‘rib, unda qo‘llanilgan musiqa, qo‘shiq, tasviriy san‘at vositalari hamda rejissura va aktyorlar ijrosi xususida seminar mashg‘uloti o‘tkaziladi. Shu bilan birga, O‘zDSMI o‘quv teatrida sahnalashtirilgan “Oy tutilgan tunda” spektakli ham ko‘rib, tahlil qilinadi.

4-Amaliy mashg‘ulot. Milliy kinematografiyadagi yangi tendensiyalar mohiyati(2 soat).

San‘at sohasidagi turli zamonaviy uslub va yo‘nalishlar. San‘at turlarining maqsadlarini belgilash. Sohaning SWOT tahlili. Globallashuv jarayonida ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘zgarishlar ta‘sirida san‘at turlarining zamonaviy tamoyillar bilan boyibborishi, yangi usul va yo‘nalishlarning yuzaga kelishi omillari aniqlanadi, uning ijobiy va salbiy ko‘rinishlariga munosabat bildiriladi.

Tinglovchilar mavzu bo'yicha ko'tarilgan masalalar yuzasidan amaliy ko'nikmalarini namoyish etadilar.

5-Amaliy mashg'ulot.San'atshunoslik sohasida ilmiy tadqiqotlar (2 soat).

Mamlakatimizda va xorijda chop etilgan kitoblar, maqola va intervyular orqali san'atshunoslik sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning mavzulari, yo'nalish va janrlari bilan tinglovchilar tanishadilar, ba'zi xorijiy manbalarni dars jarayoniga qo'llashning ijobiy yoki salbiy jihatlari to'g'risida ochiq muloqot, baxs va munozaralar tashkil qilinadi.

6-Amaliy mashg'ulot. San'atshunoslik sohasidagi zamonaviy yondashuvlar (2 soat).

Ilg'or xorijiy tajribalar asosida o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va modul asosida darslarni tashkil etish amaliyoti. San'atshunoslik faninio'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalaridan foydalanish, ochiq darslarni o'tkazish va darslarni tahlil qilish, darslik va elektron darslik hamda o'quv va elektron o'quv qo'llanmalardan foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tinglovchilar mavzu bo'yicha ko'tarilgan masalalar yuzasidan amaliy ko'nikmalarini namoyish etadilar.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

**II. MODULNI O‘QITISHDA
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL
TA’LIM METODLARI**

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

Aqliy hujum (breynstorming – miyalar bo‘roni) – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.

Metodning maqsadi: aqliy hujum vaqtida tinglovchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbuli va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o‘qib-o‘rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish, fikrlash inersiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini yengish.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri jamoali aqliy hujum – iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishini ta‘minlaydi. Butun o‘quv guruhi (20 kishidan ortiq bo‘lmagan) bitta muammoni hal etadi.

Ommaviy aqliy hujum – mikro guruhlariga bo‘lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.

Har bir guruh ichida umumiy muammoning bir jihati hal etiladi.

Namuna: Guruhga muammoli vaziyat beriladi, misol uchun orkestrni tashkil etuvchi kollektivdagi psixologik vaziyat yomonlashib, konflikt chiqadigan darajaga yetib kelgan. Muammoni hal qilish bo‘yicha jamoali aqliy hujum, iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishi tashkillashtiriladi.

Bu fikrlar tanqid qilinmasdan, ular orasidan eng samaralisi, maqbuli, ya‘ni vaziyatni normallashtirishga olib kelishi mumkin bo‘lgan fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

«**Keys-stadi**» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari

1. Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni (kichik va individual guruhlarda aniqlash)


2. "Monna-Liza" portretini ishlashda qahramonning ruhiy holatini ochib berishda rassomning mahoratini aniqlang. (guruhlarda tahlil yozma yoki og'zaki.)

Keys. Leonardo da Vinchi “Monna Liza” kartinasini chizayotganda asar qahramonining ichki dunyosini ochib bermaganida asar kartina darajasiga ko‘tarilarmidi?

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:




- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna.

Fikr: “Tarixiy yoki maishiy mavzudagi ko‘pqomatli kompazitsiya asarining g‘oyasi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.



Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;

- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“Blits o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizimini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yoki biror bir kartina yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a‘zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va tinglovchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu. San'atshunoslik fanining asosiy funksiyalari. (2 soat)

Reja:

- 1.1. San'at turlari, ularning o'ziga xos, individual xususiyatlari, mazmun-mohiyati.
- 1.2. San'at sohasidagi yo'nalishlar.
- 1.3. San'atshunoslik fanining o'ziga xosligi, maqsadi va vazifalari.

Tayanch iboralar: *teatr va kino san'ati, sahna san'ati, tomoshabin, Tasviriy san'at, galereya, teatrshunoslik, metod.*

1.1. San'at turlari, ularning o'ziga xos, individual xususiyatlari, mazmun-mohiyati.

“San'atshunoslik” mutaxassislik fani bo'lib, san'at tarixi va nazariyasining umumiy xususiyatlari haqida tasavvur hosil qilish, ushbu yo'nalishda bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, san'at asarlarini tahliliy-estetik tushunish ko'nikmasini singdirish o'quv fanining maqsadidir.

- Jahon va o'zbek san'ati tajribalarini anglash orqali professional yetuk, ma'naviy barkamol san'atkor, san'atshunos shaxslarni yetishtirish.
- turli janr va yo'nalishdagi san'atlar haqida, ularning milliy va umuminsoniy xususiyatlari va maktablari haqida professional tushunchalarni singdirish;
- jahon va o'zbek san'atkorlari ijodiga tayangan holda, turli san'at turlarining grivojlanish bosqichlarini o'rgatish;
- turli janr va yo'nalishdagi san'at asarlarini tahliliy-estetik tushunishning boshlang'ich ko'nikmalarini yuzaga keltirish ushbu o'quv fanining vazifasidir.

San'at haqida tushuncha. San'at – ijtimoiy ong shakli, insoniyatning ma'naviy boyligi. Ko'p qirrali va olamni badiiy-estetik anglashning o'ziga xos vositasi. Yaratuvchilik, anglash va baholash xususiyatlari. Estetik ahamiyatga ega badiiy ijod. Hodisalar, xarakterlarni obrazli anglash. Obraz – san'atning asosiy ifoda vositasi. Ijodiy saralash. Tipiklashtirish. Umumlashtirish. Bular asosida ijodiy g'oyani, his-tuyg'ularni ifodalash.

San'at spetsifikasi. Badiiy anglash obyekti sifatida. Inson – shaxsiy va ijtimoiy manfaatlari birligi sifatida. Kishilar, inson va tabiat, inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar. Ham inson, ham voqelikni badiiy-estetik baholash.

San'atning yaxlitligi va ko'p qirraligi. Kompozitsiya va shakl. Mazmun va mohiyat mushtarakligi.

San'at funksiyalari. Asosiy funksiyalar. Ijtimoiy. Ma'rifiy. Tarbiyaviy. Etik. Kommunikativ. Tomoshaviy. Estetik. Obrazli fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. San'atning g'oyaviyligi va badiiyligi. San'atda tarixiylik va zamonaviylik masalalari.

San'at turlari. Asosiy strukturaviy-tasnifiy birligi. Teatr va kinoda so'z, dramatik konflikt va personajlar xatti-harakati. Musiqada ovoz va ohang. Xoreografiyada harakat va ritmika. Tasviriy san'atda: rangtasvirda rang va nur; haykaltaroshlikda plastik yechim; grafikada chiziq, shtrix, nur va soya va h.k.

San'at janrlari. Janr – san'at turi tarkibidagi ichki bo'linishi va nisbatan barqaror, shakllangan xislatlariga, ifodaviy-tasviriy vositalarga ega ekani.

Janrlarning modifikatsiyasi, transformatsiyasi.

Janrlar. Mavzu bo'yicha – tarixiy, zamonaviy, psixologik, ilmiy-fantastik va boshqa. G'oyaviy-emotsional xususiyatlari bo'yicha – lirik, yumoristik va boshqa.

Tuzilmasi, shakli va ijro usuliga ko'ra bo'linishi. Vokal-cholg'u, kamer-simfonik, xor, akademik, xalq, estrada ijrochiligi va boshqa.

San'atda sintez. Sintez tushunchasi, tarixiy ildizlari, tabiati. Ichki va tashqi shakllari.

Sintez strukturasi, komponentlari. Komponent tushunchasi. Ifoda vositalarining uyg'unlashuvi.

Sintez va sinkrez. Tomosha san'atlarining sintetik xususiyatlari.

Teatrshunoslik tahlili aspektlari. Tahlil aspektlari. Tarixiy-nazariy. Muammoli-tahliliy. Davr va makon kesimida. Shakliy-stilistik. Madaniy-tarixiy. Strukturaviy-tipologik. Metodologik.

San'at tarixini umumiy davrlashtirish. Qadimgi davrdan XIX asr oxiriga qadar – badiiy an'analar, ma'naviy va moddiy madaniyat, san'at tarixi.

Shakllanish va rivojlanish jarayonlari. XX asrning birinchi yarmi va ikkinchi yarmining 90 yillar boshigacha bo‘lgan davr badiiy madaniyati, san’ati.

Mustaqillik davri badiiy madaniyati va san’ati tarixiy-nazariy, metodologik, tipologik aspektlarda.

Badiiy tanqidchilik. Adabiy faoliyat turi. Badiiy asarni tahlil va talqin qilish. Zamonaviy badiiy ijodda sodir bo‘layotgan jarayonlarni umumlashtirish, san’atda yetakchilik qilayotgan tamoyillarni aniqlash.

Xolislik. Mulohazalarning asoslanganligi. Keng ko‘lamlik. Kasbiy etika.

Badiiy tanqidchilikning fan va amaliyotdagi roli, ijtimoiy o‘rni. Badiiy tanqid – san’at tarixini yuzaga keltiruvchi vosita sifatida.

Badiiy tanqid janrlari va shakllari. Asosiy janrlar. Maqola. Taqriz. Ijodiy portret. Annotatsiya. Badiiy tanqid shakllari: og‘zaki, yozma. Jonli va audiovizual chiqishlar. Axborot texnologiyalarning rivojlanishi va tanqidchilikning yangi ko‘rinishi.

Badiiy madaniyat tushunchasi. Madaniyat haqida tushuncha.

Badiiy madaniyat – insonning yaratuvchanlik faoliyatini, rang-barang badiiy-ijodiy aspektlarini qamrab olgan murakkab, ko‘p qirrali va noyob hodisa. San’at asarlarini yaratish, tarqatish, o‘zlashtirish bo‘yicha ma’naviy-amaliy faoliyat jarayonlari va hodisalari yoki estetik qadrga ega moddiy predmetlar majmui.

Badiiy madaniyatning strukturasi. Funktsiyalari. Imkoniyatlari. Ilmiy tarmoqlari. Nazariya. Tarix. Sotsiologiya. Iqtisodiyot. Boshqaruv. Badiiy madaniyatni rivojlantiruvchi asosiy omillar va istiqboli haqida tushuncha.

San’atda milliylik va integratsion jarayonlar. San’atda milliylik va zamonaviylik masalalari. San’atning universalligi va integratsion xususiyatlari. Milliy identifikatsiya va globallashuv. Globallashuv tushunchasi.

San’atda badiiy metodlar. Klassitsizm. Romantizm. Realizm. Ekspressionizm. Impressionizm. Modernizm. Postmodernizm va b.

Teatrshunoslik fani haqida. Teatrshunoslik fani. Sahna san’ati tarixi, nazariyasi va amaliyoti. Turlari va janrlari. Dramatik teatr. Musiqali teatr (opera, balet,

operetta, musiqali drama, myuzikl). Qo‘g‘irchoq teatri. Bolalar teatri. Yoshlar teatri. Sirk. Raqs va xoreografiya.

Davr va makon kesimida. Jahon, mintaqa va mamlakat miqyosida. Qadimgi davrdan bugungi kunga qadar.

Teatrshunoslik fani o‘rganadigan mavzu va masalalar doirasi. Teatr tarixi va nazariyasi. Milliy dramaturgiya. Aktyorlik san‘ati. Rejissyorlik. Ssenografiya masalalari. Baletmeystrlilik mahorati. Teatrda musiqa. Teleteatr. Radioteatr. Teatr matbuoti. Teatr-studiyalar faoliyati. Sintez masalasi.

O‘zbekistonda yashaydigan boshqa millatlarning teatrlari. Teatr ta‘limi. Viloyat teatrlari. Musiqali teatr rejissurasi. Teatr dirijyorligi san‘ati.

1.2. San‘at sohasidagi yo‘nalishlar.

San‘at - chuqur falsafiy mazmun-mohiyatga ega bo‘lgan keng qamrovli tushuncha bo‘lib, san‘atshunos mutaxassilardan o‘z kasbini egallash uchun bir qator bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab qilinadi. Jumladan san‘atshunos mutaxassis:

- Teatr, kino va boshqa san‘at turlariga yuklangan ijtimoiy-ma‘naviy vazifalarni; xalq ommasi, ayniqsa yoshlarning ma‘naviy va madaniy tarbiyalashda badiiy tanqidning o‘rnini; mamlakat badiiy-tanqidiy jarayonida san‘atshunos - jurnalistning o‘rnini; san‘at tanqidchiligining rivojlanish tarixini; san‘atni asosiy turlari va ifoda vositalarini; san‘at turlari bo‘yicha san‘atshunoslik atamalarini; san‘at asarlarini hayotiyligi, ishonchliligi va badiiyliги tushunchalarini; san‘atlarning o‘zaro ta‘siri va sintezini; san‘atlar sintezining nazariy va ijtimoiy asoslarini; san‘at turlarining o‘zaro integrallashuv omillarini; bosma va elektron OAVda san‘at turlarining badiiy tanqid metodologiyasi, shakllari, janrlarini; jahon san‘atining adabiy-badiiy oqimlarini; jahon san‘atining buyuk san‘atkorlarini san‘at nazariyoti va amaliyotiga taalluqli kashfiyotlarini; san‘atshunoslik fanlarida morfologik va g‘oyaviy-badiiy tahlil metodika va metodologiyasini; XX asr o‘zbek san‘atshunosligining eng sara ishlarini; mustaqillik davri san‘atshunosligini; klassik va zamonaviy nasriy asarlarning mashhur inssenirolkalarini; san‘at

sotsiologiyasining tegishli yo‘nalishlarini; san‘at rivojlanishi va faoliyatini ta‘minlovchi ijtimoiy hayot qonunlarini; san‘atshunoslik bo‘yicha tadqiqot mavzularini; san‘atda ijtimoiy fikr holatini; hozirgi zamon san‘atining holati va istiqbolini; san‘at turlari va janrlari, shakllari va uslublarini; badiiy-tanqidiy va tadqiqiy ishlar turlari va janrlarini; san‘atshunoslik turlari mohiyatini, faoliyatni o‘ziga xosligini, nazariy va amaliy jihatlarini umumiy tarzda o‘zlashtirishi taqozo qilinadi.

Shuningdek, asarni so‘zli badiiy estetik tasvirlash orqali tiklash; mazkur asarning ohangi, mavzu, g‘oya, kuy badiiy sifatlarini tahlil qilish, bunda asarning janr talablarini e‘tiborda tutish; tasviriy san‘at asarlarini badiiy-g‘oyaviy va morfologik tahlil qilish; gazeta va jurnal o‘quvchilari yoki teletomoshabinlarga tasviriy san‘at asari mazmuni, mavzu va g‘oyasini yetkazish metodologiyasi; tasviriy san‘at asarlarida rang, nur, soya va boshqa ifoda vositalarini ajrata olish; matbuot yoki teleradio uchun tayyorlangan materialning asar spetsifikasi va janridan kelib chiqqan holda tahlil qila olish; spektakl, tomosha, konsert, badiiy kino va video asarlarni asosiy komponentlari: dramaturgiya, rejissyorlik va aktyorlik ishlari bo‘yicha tahlil qilish; vokal-musiqali, plastik-raqs, badiiy-dekoratsion ijro va boshqalarni komponentlarga ajratmasdan, yaxlit badiiy asar qismi sifatida uzviy o‘zaro aloqadorlikda ko‘rib chiqish; tarkibiy qismlarni pyesa va spektakl “oliy maqsadi” sari xizmat qilishidan kelib chiqqan holda ko‘rib chiqish; tahlil qilinayotgan asarning so‘zli estetik, badiiy qiyofasini (obrazini) yaratish mahorati; san‘atning zamonaviy holatini o‘rganishda umumsotsiologik (jamiyat fikrini o‘rganish) metodologiyalarini amalda qo‘llash; ma‘lum san‘at asari xususidagi bahs, muhokamalarda ishtirok eta olish, o‘z nuqtai nazarini himoya qila olish; badiiy-tanqidiy va tadqiqiy ishlarni yozish; tinglovchilar auditoriyasi oldida mutaxassislik mavzularida nutq so‘zlash; o‘zining erkin badiiy-tanqidiy munosabatini ifoda etish; san‘atning dolzarb masalalari haqida izlanishlar olib borish va maqolalar yarata olish; san‘atning turli sohalari bo‘yicha ko‘rsatuv va eshittirishlar tayyorlash hamda olib borish; OAVda san‘atning asosiy turlarini tahlil qilish va targ‘ib etish; san‘at turlari va arboblari haqida axborot, kengaytirilgan axborot, taqriz, ijodiy portret,

kengaytirilgan gazeta va jurnal (muammoli) maqolalarini yozish, san'at asarlarini og'zaki tahlil qilib chiqish; ko'rsatilgan teatr, kino va badiiy tele radio asarni barcha parametrlar bo'yicha san'atshunoslik jurnalistikasi janrini hisobga olgan holda, g'oyaviy-badiiy va estetik tahlil qilish; o'tkir qalam tebratish va tahliliy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lish talab qilinadi.

1.3. San'atshunoslik fanining o'ziga xosligi, maqsadi va vazifalari.

Hozirda kino san'atida yangidan yangi asarlar, turli janrdagi badiiy filmlar yaratilmokda. Achinarlisi, ilmiy yunalish bilan amaliy yunalishning o'rtasida katta jarlik bulib kolganligidir. San'atshunos-larning, tankidchilarning urni asta yo'qolib borayotgandek. Buning eng katta sababi mazkur jabhada moddiy masalalar tulaligicha tizim sifatida ishlab chikilmagan. Vaholanki, har qanday soha rivojida ilmiy izlanish va tadkikotlarning urni muhim turadi. Yaxshi film yaratilgandan sung uning tahlili va ilm nuqtai nazaridan urganilganlik darajasining yukori saviyada bulishi kino sohasining tarakkiyotiga xizmat kiladi. Agarda, talablarga javob beradigan badiiy filmlar yaratilmasa kinoshunoslikning rivoji ham o'smaydi.

Badiiy tanqidchilik bugungi kunda oqsayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Buning eng asosiy sabablaridan biri yosh mutaxassislarning yetishib chikmayotganligi, yukorida aytganimizdek, bu yo'nalishda ham faol ijodkor tarbiyasi bilan bog'liq masalalar ko'ngilni o'rtaydi. Mohir tarjimon va munaqqid Ozod Sharafiddinov "Tanqidchilik kasbi haqida" nomli maqolasida "Estetik tuyg'uning zaifligi, san'atdagi guzallikni paykay bilmaslik san'atni bir tomonlama tushunishga, uni fakat goyalar yigindisidangina iborat narsa deb talkin kilishga, san'atni siyosatga yugurdak kilib kuyishga, tankidchini esa asarda tasivrlangan voqealar va xarakterlarni "yaxshi yoxud yomon" deb baholovchi qoziga aylantirib kuyishga sabab buladi", deya ta'kidlagan edi. Hozirda badiiy tankidchilikning metodologik potensiali sustlashib, xuddiki, yuzaki tendensiyalar, zurma-zuraki hisobotlar egallagandek nazarimda. Mazkur yunalishda faol izlanishlar samarasini oshirish ilm-fan va jamiyat rivojiga munosib hissa qo'sha oladi. Jamiyatni ma'naviy modernizatsiyalash tendensiyalarining muhim jihati ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar

sifatini oshirish bilan baholanadi. Olimlar, yosh izlanuvchilar dissertatsiya ishlarini yuqori saviyada himoya qilinishi va natijada keltirilgan tavsiyalar maxsus komissiya tomonidan o'rganilib, tasdikdan o'tganlari jamiyatning amaliy hayotida eksperimental tajriba sifatida qo'llanilib ko'rilishi mumkin. Taraqqiyot strategiyasida xato va kamchiliklar bo'lishi tabiiy, ularni bartaraf etib, samarali yutuqlarga yetishish uchun turli loyihalarni amalga sinab kurish mumkin.

Buyuk kelajak sari intilayotgan barcha mamlakatning strategik dasturida ijtimoiy rivojlanish bilan bir qatorda, madaniyat va san'at sohalariga albatta e'tibor qaratiladi. Zero, madaniyat va xos san'at umuminsoniy g'oyalarga yo'g'rilgan bo'lib, xalkni ezgu-maqсадlar asosida birlashishga, ilg'or va yetakchi g'oyalar sari yetaklashga xizmat qiladi. Kino san'ati esa badiiy vizual ta'sirga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-ahloqiy kamoloti, shuningdek, mamlakatning iqtisodiy sanoati maqomini belgilaydi.


Hozirgi kunga kelib o'zbek televideniye sohasi sanoat manbayiga aylanib ulgurdi. Ayniqsa, xususiy telekanallar o'zining tijorat mezonini, iqtisodiy-moliyaviy holatini bosh maqsadiga aylantirdi. Endilikda xdkikiy san'at ortga chekinib, sanoat oldingi darajaga o'tdi. Masalan, reklama roliklari, teleseriallar namoyishlarini aytish mumkin. Noprofessional yondashuv asnosida bir martalik tomoshalar urchib ketdi. Mazkur jarayon bevosita badiiy tankidchilikning oksashiga sabab bulmokda. O'z-o'zidan ayonki, xususiy telekanallarning media mahsulotlari mutlaqo erkin ravishda ishlab chiqariladi va namoyish etiladi. Unga soxa mutaxassis-larining, tanqidchilar va san'atshunoslarning aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

San'atshunoslikning zamonaviy tendensiyalari bugungi kun amaliyotida yangi tushuncha emas, balki allaqachon, san'atshunoslikning dolzarb masalalaridan biriga aylanib ulgurgan. San'atshunoslikning zamon bilan hamnafas shakllanishda davom etib kelayotgan yo'nalish va tendensiyalarini tahlil qilish orqali, xozirga zamon san'atlarining mazmun mohiyati va taraqqiyot omillarini aniqlash mumkin.

Malaka oshirish tinglovchilari uchun belgilangan mavzuni o'rganish jarayoni bir qator qo'shimcha omillarni o'z ichiga olgan holda amalga oshiriladi. Bunda jumladan, quyidagilarga ahamiyat beriladi:

1. “San’atshunoslik (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;
2. Zamonaviy talablarga mos holda oliy ta’limning sifatini ta’minlash;
3. San’atshunoslik turlari bo‘yicha pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
4. Pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o‘zlashtirilishini ta’minlash;
5. Maxsus fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish;
6. “San’atshunoslik (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta’minlash.
7. San’atshunoslikning bugungi holati va dolzarb muammolari, ta’lim sifatining ijobiy o‘zgarishiga hizmat qiluvchi omillar yechimini topish.
8. San’atlarning o‘zaro integratsiyasi. Xorijiy adabiyotlar tahlili, ta’lim jarayoniga tadbiq etish masalalari.
9. San’atshunoslik fanlariga innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi.
10. An’anaviy ta’lim tizimining boyishi va modernizatsiyalanishi.

Mavzuni yoritish mobaynida bir qator milliy adabiyotlar bilan yonma-yon, “Teatr tanqidchiligi. Jurnalistika san’atidan darslik” xorijiy adabiyot materiallaridan ham foydalaniladi. Unda AQSH san’at jurnalistikasi tarixi, tadrijiy rivojlanishi hamda istiqboli bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar, kuzatuvlar, tasavvuriy va qiziqarli maqolalar tadqiq etiladi.



Bob Abelman and Cheryl Kushner

A Theater Criticism/Arts Journalism Primer: Refereeing the Muses

Teatrda postanovkalar tomoshabinlarni o‘ziga jalb qilish uchun estetik hamda mahoratning o‘zaro uyg‘unligi asosida izchil ishlab chiqarishni ifodalashi kerak. Jurnalistika san’atining barcha shakllarida ishtirok etish uchun ushbu qo‘llanmada tanqidiy fikrlash hamda tanqidchilik ko‘nikmalarini oshirish vositalari kiritilgan. Ushbu kitob tanqidchilik, jurnalistika sohasida faoliyat olib borishni xohlagan yoki o‘z ustida, ushbu sohada chuqur malaka kasb etishni istovchilar hamda teatr tanqidchiligi va jurnalistika san’ati yo‘nalishida tahsil oluvchi kollej talabalariga mo‘ljallangan. Qo‘llanma juda qulay tarzda zamonaviy jarayonlarni o‘zida mujassam etgan holda, mavzularni batafsil va muxtasar ifodalagan tarzda misollar bilan boyitilib nashr etilgan”¹.

Shu bilan ushbu qo‘llanma san’atshunoslikda marketing talabni qondirishga qaratilgan faoliyat va marketingini talab maqsadini, shu bilan birga kerakli marketing strategiyasini tanlashga imkon beradi. Bir necha talab darajasini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. “San’atshunoslik nazariyasi va amaliyoti evolyusiyasi. Filip

¹*Bob Abelman and Cheryl Kushner*
A Theater Criticism/Arts Journalism Primer: Refereeing the Muses

Kotler san'at sohasiga taalluqli tarafdorlaridan birinchisi bo'lib, san'at sohasidagi tashkilotlar "madaniy mahsulot" ishlab chiqadi, hamda san'at istyemolchilari diqqat-e'tiborini jalb etish va milliy resurslarni taqsimlashda bir biri bilan raqobatlashadi, degan fikrni olg'a surgan (Kotler, 1975). Keyinchalik esa ilmiy tadqiqotchilari badiiy ehtiyojlari ostida shakllangan ijodiy ifodani majbur qilishi oqibatida vujudga keladigan tangliklarni o'rgana boshlaganlar"².

San'atshunoslikning o'ziga xos qirralari, rivojlanish tendensiyalari uning subyekt va obyektlaridagi o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Subyektlariga san'at mahsuli yaratuvchilari, vositachilar va istyemolchilar kirsam, obyektlarini esa san'at mahsuli, tashkilotlar, shaxslar tashkil etadi. Aynan xorijiy manbalarni o'rganish, qiyosiy tahlil qilish orqali san'atshunoslikning bugungi qiyofasi, rivojlanish tamoyillari va istiqboli o'rganiladi.

Jamiyat rivoji va ma'naviy hayotida san'atning o'rni va san'atkor mas'uliyati masalalari. Hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan bo'lgan ma'naviy, mafkuraviy va axborot xavfsizligining mazmun-mohiyati.

San'atda yuz berayotgan jarayonlarni nozik his qilish; san'atning barcha taraqqiyot davri va ijodiy yo'nalishlardagi turli xil janr, shakl va uslublarini malakaviy asosda farqlash; turli xil san'at voqeliklarini tahlil etish va umumlashtirish; san'at voqeliklariga badiiy-estetik baho bera olish; axborotni yig'ish, tizimlash, umumlashtirish va foydalanish hamda ixtisoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqiy izlanishlar olib borish, mutaxassislikka oid matnlarni, barcha turdagi san'at asarlarini tahrir qilish va ularga taqriz berish; adabiy manbani sahna asariga aylanish masalasi: rejissyorlik talqini, aktyor ijrosi, sintez, mavzu, g'oya yechimi masalalarini og'zaki va yozma tahlil qilishda zamonaviy yondashuv va tamoyillar. Bunda boshqa gumanitar fanlar va san'atshunoslik sohasidagi o'zgarish va tendensiyalar, ularning turlari, xillari hamda o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda sohaning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga tizimli yondashuvni nazarda tutish.

San'atning barcha turlari inson ma'naviyati va tafakkurining kamol topishiga xizmat qiladi. Bunda, har qanday san'at asarining bosh qahramoni bo'lmish, inson omili ustuvorlik qiladi. Xuddi shu nuqtai nazardan, har qanday badiiy asar inson ruhiyati va dunyoqarashiga kuchli ta'sir o'tkaza olishi bilan jamiyat ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham har bir davr o'z san'ati va san'atkorlarini yaratadi va ular o'z davriga xizmat qiladilar. O'zbekiston Mustaqil davlat deb e'lon qilingach, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustivor yo'nalishi deb e'lon qilindi. Shu davrdan boshlab, milliy qadriyatlarimizga tayangan, mentalitetimizga xos milliy madaniyatimiz va sanatimizni shakllantirish, taraqqiy ettirish, targ'ib qilish va jahonga olib chiqish harakatlari boshlandi. Bunda asosiy e'tibor xalqimiz, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy yetuk, har tomonlama- ham ma'nan, ham jismonan barkamol avlodbo'lib kamolga yetishlari yo'lida xizmat qiladigan progressiv g'oyalarni o'zida mujassam qilgan badiiy barkamol san'at asarlarini yaratishga qaratiladi. Shu bilan birga, yoshlarimiz ongini zaharlovchi, milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga yot bo'lgan, buzg'unchi g'oyalar singdirilgan ommaviy madaniyat unsurlarining kirib kelishini oldini olish vazifasi ham zamonamizning eng dolzarb, global muammolaridan bo'lib qoldi. Yoshlarimiz dunyoqarashini izdan chiqaruvchi asarlarning paydo bo'lishi va targ'ib qilinishini to'xtatish va oldini olishda ayniqsa san'atshunos mutaxassislarining fuqarolik burchi va mas'uliyati yuqori ekanligi ayni haqiqatdir.

San'at – insoniyat badiiy falsafiy tafakkurining mevasidir. Shu bois unga bo'lgan inson ehtiyoji aslo so'nmaydi. Insoniyat madaniy taraqqiyoti zamondan zamonga qarab o'sib, rivojlanib borar ekan, san'atga bo'lgan ehtiyoj ham shunga monand muttasil o'sib boradi. Zamon taqozosi va talabi sifatida yangi turlar, yangi janrlar paydo bo'laveradi. San'atkor badiiy tafakkuriga, ijro mahoratiga, san'atning badiiy-falsafiy, ijtimoiy-tarbiyaviy asoslariga bo'lgan talablar ham muttasil o'sib boraveradi. Ikkinchidan, san'at muxlislarining, demakki, keng xalq ommasining san'atdan badiiy-estetik zavq olishga intilishi asnosida uning san'at turlari xususiyatlarini anglashga, san'atkorlar hayoti, ijodi, mahoratlarining o'ziga xos

tomonlarini, imkoniyat darajalarini, san'atlar taraqqiyoti jarayonlaridagi yutuqli va muammoli tomonlarini bilishga intilishi azaldan yuksak darajada bo'lgan. Shu bois, bugungi axborot-kommunikativ imkoniyatlar oshgan, globallashuv jadallashgan bir sharoitda bu masala yanada o'tkirlashib ham badiiy-ijtimoiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy dolzarblik ko'rsatmoqda. Har ikkala jarayonning garmonik tarzda borishi va rivojlanishini ta'minlashda, ayniqsa, san'at asarlari orqali milliy mentaletimiz va ma'naviyatimizga yot, buzg'unchi g'oyalarning yurtimizga kirib kelishini oldini olishda juda ko'p omillar qatori san'atshunoslikning o'rni va mas'uliyati ham yuqori bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingach, milliy qadriyatlarni tiklash va ularni Istiqlol davri talablari asosida rivojlantirish dramaturglar, san'at ahlining asosiy vazifalaridan bo'lib qolgani, yaratilgan imkoniyatlar tufayli dramaturgiya va sahnamizda Amir Temur, Mirzo Bobur, Ismoil al Buxoriy, Ahmad Yassaviy kabi tarixiy siymolar obrazlarining paydo bo'lishi, ayniqsa so'nggi yillarda milliy san'atimizning barcha turlarida mustaqilligimizni mustahkamlashga beqiyos xissa qo'shib kelayotgan ilg'or, fidoiy zamondoshlarimiz obrazlarini yaratish borasidagi qizg'in harakatlar e'tiborga loyiqdir.

Nazorat savollari

1. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda san'at ta'limining yetakchi xususiyati nimada?
2. VGIK ta'lim metodikasi qanday tuzilgan?
3. Kino mutaxassislarini tayyorlashda Rossiyada necha bosqichli tizim mavjud?
4. Akmeologik yondoshuv deganda nimani tushunasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni. 7 oktabr 2013 yil(o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori. 2017 yil 31 may №PQ-3022 . “Xalq so‘zi” gazetasi 1 iyun, 2017 y.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. -T.:“Ma’naviyat”,2008. 176 b.
5. Andrey Tarkovskiy: nachalo puti (vospominaniya, intervyu, leksii, stati) - M., VGIK, 1994, 204.S.
6. Begimkulov U.SH. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. MonografiY. – Toshkent: Fan, 2007. – 160 b.
7. Jorj Sadul. Vseobshaya istoriya kino / perevod s fransuskogo V. A. Ryazanova. — M.,: «Iskusstvo», 1958. — T. 1. — 611 s.
8. Karseva YE. Gollivud: kontrasti 70-x. Kinematograf i obshestvennaya jiznsSHA. - M.: Iskusstvo, 1987. - 319 s.

2-mavzu. Teatr-sintetik san'at sifatida

Reja:

- 2.1. Teatr-tomosha san'at turi sifatida.
- 2.2. Teatr san'atining qadimiy ildizlari.
- 2.3. Qadimgi teatr tarixining o'ziga xos unsurlari.

Tayanch so'zlar: Teatr san'ati, drama, komediya, satira, tragediya, rejissura, pantomima, opera, balet, dekoratsiya, sahna, tomoshabin, spektakl, dramaturg, rejissyor, aktyor, musiqali drama, qo'g'irchoq teatri, maydon tomoshalari.

2.1. Teatr-tomosha san'at turi sifatida.

Teatr – obektiv borliqdagi voqea-xodisalarni so'z, soz, musiqa, raqs, pantomima, harakat orqali ifodalovchi san'atning eng ommaviy va qadimiy turlaridan biridir.

Teatr – yunoncha “teatron” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “tomoshagoh” ma'nosini anglatadi. Aktyorlarning sahnaviy harakatlari orqali hayotni, hayotiy xodisalarni badiiy ravishda aks ettiruvchi san'at turi, shu san'atga asoslangan tomoshalar ham teatr deb ataladi. Yoki Shunday san'at namoyish qilinadigan, tomoshalar ko'rsatiladigan bino tushuniladi. Umumiy ma'noda esa aktyorlarning sahnadagi orqali ko'rsatiladigan tomosha, spektakl nazarda tutiladi. Ayni paytda mustaqil san'at turi bo'lib, uning o'ziga hos ifoda vositasi, aktyorning omma oldidagi o'yini jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqealardan tarkib topadi. Boshqa san'atlarda bo'lganidek teatr san'atida ham xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma'naviyati, madaniyati bilan bog'liq holda o'zgarib, takomillashib boradi. Teatr asosida yozma yoki og'zaki dramaturgiya yotadi.

Teatr san'ati sintetik san'at bo'lib, jamiyat hayotida tomoshabinlarning ma'naviy va estetik tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san'at, raqs, me'morlik ajralmas birlikni tashkil etadi.

Teatrning san'atining muhim vositalaridan biri – sahna nutqidir. Aktyor qahramonning pe'sadagi so'zlarini o'zlashtirib olar ekan, qahramon qiyofasida,

holatlarda turib uning nutqiy tavsifini yaratadi, boshqa pesonajlar bilan muloqotga kirishadi. Sahna nutqi harakatlarning ochilishida, asar mazmuni, konfliktining yoritilishida muhim o‘rin tutadi.

Sahna asarlarining yaratilishida teatr rassoilari (ssenografiyasi) ning hissasi katta. Rassom asar mazmuni, g‘oyasi va rejissyorlik yechimidan kelib chiqib, o‘ziga hos va sahna ko‘rinishlariga mos dekoratsiya yaratadi. Bu esa ma’lum ma’noda sahna asarining muvaffaqiyatini ta’minlayli.

Teatr san’atida musiqaning ham alohida o‘rni bor. Tomosha turi va janriga bohliq holda u turli vazifani bajaradi: daramatik san’atkorlarda yordamchi vosita bo‘lsa, operettda, musiqali drammda so‘z bilan barobar huquqqa ega. Opera va baletda esa hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Teatr san’ati fani yurtimizda va butun dunyoda teatr san’atining kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari, hozirgi dolzarb muammolari va badiiy jarayonlarini o‘rganadigan, tahlil qiladigan mustaqil fanlardan biridir.

Tragediya – yunoncha so‘z bo‘lib dramaning bir turi – hayotiy kuchlar, qarama-qarshi xarakterlar, ehtiroslar o‘rtasidagi keskin kurash, konflikt daxshatli voqea, xodisa, mudhish ahvol. asos qilib olingan va ko‘pincha qahramonning halokati bilan tugaydigan fojiali asar (Shekspirning “Gamlet”, Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyalari).

Komediya – hayotda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy va boshqa voqealarning asl qiyofasini masxalovchi kulgili sahna asari.

Tragikomediya – fojiali komediya, ham tragediya, ham komediya elementlarini o‘z ichiga olgan sahna asari.

Satira – yunoncha so‘z bo‘lib hayotdagi salbiy xodisalarni, kamchilik a nuqsonlarni qattiq masxaralaydigan, qoralaydigan o‘tkir hajviy asar.

Teatr san’atining asosiy yo‘nalishlari:


1. Drama teatri
2. Musiqali drama
3. Satira teatri

4. Opera va balet teatri
5. Operetta teatri
6. Qo‘g‘irchoq teatri
7. Qiziqchi va masxarabozlar teatri
8. Teatr studiyalari
9. Estrada teatri
10. Modalar teatri

O‘zbek tilida ko‘pincha tomosha atamasini ishlatish odat tusiga kirgan. “Tomosha” so‘zi asli arabcha bo‘lib, hozirgi o‘zbek tiliga o‘g‘irganimizda qarash, ko‘zdan kechirish, nigoh tashlash degan ma’nolarni anglatadi. Pofessor M.Qodirov “tomosha” so‘zining mohiyati xususida to‘xtalar ekan, quyidagi mulohazalarni bildiradi. “Tomosha-bu ko‘pchilikka qaratilgan va ko‘ruvchini asosan quvontiradigan hangomalar, o‘yin-kulgilar, buyumlar manzaralar, ijrochilik san’atlari (musiqa, masxara, muqallid, qo‘g‘irchoq o‘yin, qissago‘ylik, voizlik, dorbozlik va hokazolar) namoyondalarining chiqishlari; xalq o‘yinlari, marosimlari, mana shularning hammasi ko‘rish, ulardan ta’sirlanish jarayonidir. Tomoshada ikki tomon-ijrochi va tomoshabinlarning jonli muloqoti muhim hal qiluvchi xususiyatdir. Tomoshalar xalq va davlat bayramlari, turli-tuman marosimlar va to‘ylar munosabati bilan tashkil etiladigan bazm va sayillarda yakka yoki bir guruh ijrochilarning hohishlari bilan to‘planadigan yig‘in va ma‘rakalarda bo‘lib o‘tadi” (91.4,5).

Manbalarga qaraganda, tomosha ko‘rsatiladigan joy o‘tmishda “tomoshagoh”, “zo‘rxona” (kurash uyushtiriladigan maydon) “tarabxona”, “ma‘raka maydoni”, “sayilgoh”, “o‘yingoh”, “toypon” (uloq musobaqaalari o‘tkazilayotganda g‘olib chavandozlarga sovrinni tantanali topshiradigan sahna) kabi turli mahalliy tushunchalar iste‘mol qilingan. “Ma‘raka” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi urush maydonidir. Istiloda va ko‘chma ma‘noda esa xaloyiq to‘planadigan

va har xil kishilar o‘rtaga chiqib qobiliyati, hunarini namoyish etadigan joy ham ma’raka deyilgan.



Xaloyiq o‘rtasida ko‘rsatiladigan tomoshalarda eng muhim xususiyat ishqibozlar bilan ijrochilar o‘rtasidagi muloqotdir. Tomoshalar o‘tadigan joylarning ma’raka deb atalishi ham shundan. Janubiy viloyatlarda xalq orasida “to‘pxona”, “davra”, “qur” kabi mahalliy atamalar ham ishlatiladi. Tomoshalarni chor atrofda kuzatib, hordiq chiqarish bilan birga ma’lum darajada unda ishtirok etuvchilar “tomoshachi”, “tomoshabin” deb ataladi.

XX asrda ro‘y bera boshlagan madaniy transformatsiya jarayonlari natijasida bunday atamalar safiga yangilari kelib qo‘shildi. Zamonaviy binolarning qurilishi, Ovro‘po namunasidagi yangi, har taraflama qulay tomosha saroylarining qaror topishi bunga sabab bo‘ldi. “Teatr”, “tomosha zali”, “madaniyat saroyi”, “san’at saroyi”, “san’at galereyasi”, “ko‘rgazma zali”, “kinoteatr”, “pavilyon”, “sirk maneji”, “sport saroyi”, “stadion”, “ippodrom”. “tennis korti”, “basseyn” kabi atamalar shular jumlasidandir. Bugungi kunga kelib bunday atamalar ham mazmun ham son jihatdan yanada kengayib bormoqda.

2.2. Teatr san’atining qadimiy ildizlari.

Teatr san’ati uzoq tarixga ega bo‘lib, uning asosiy unsurlari insoniyatning qadimiy davrlarida, ovchilik mehnat va diniy marosim, bayramlar bilan bog‘liq totemizm, animizm kabi qadimgi dunyoqarashlar va ajdodlar ruhlariga sig‘inish bilan bog‘liq holda shakllangan. Yunoniston, Hindiston, Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi to‘qqizinchi asrdayoq teatr jamiyat hayotida muhim o‘rin tutgan.

Hindistonda teatr sinskrit tarzida xalq teatri shakllarida hamda “Maxobxorat” va “Romayana” dostonlari bilan bog‘liq holda rivojlangan. Keyinroq teatr yaqin sharq va rimga ham yoyilgan. Ayniqsa rimda teatrning yangi shakli va turlari yaratilgan. G‘arbiy avropada teatr san‘atining dastlabki namunalari sayyor aktyorlar janglyorlar ijodida, Rossiyada rus skomoroxlari faoliyatida yuzaga kelgan.

Uyg‘onish davrida vujudga kelgan drama yangi shakldagi professional teatrning shakllanishiga zamin yaratdi.

O‘n oltinchi asr oxiri – o‘n sakkizinchi asr o‘rtalaridan balet san‘atiga asos solingan bo‘lsa, o‘n to‘qqizinchi asr o‘rtalaridan operetta mustaqil teatr turi sifatida rivojlana boshladi.

Teatr san‘atining keyingi taraqqiyoti klassizmning keng yoyilishi bilan bog‘liq bo‘ldi. O‘n sakkizinchi asrda ma‘rifatchilik oqimidagi teatr taraqqiy etdi. Asta sekin realistik tendensiya kuchaydi. Ayniqsa, Galdone, Shiller kabilar ijodida realizm yorqin namayon bo‘ldi. 18 asrning oxirlariga kelib drama, melodramma, kommediyalarda satirik yo‘nalishlarning yuzaga kelishi teatrda demokratik asosning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Teatr g‘oyaviy va badiiy kurashlar maydoniga aylandi.

XIX asrning birinchi yarmida vujudga kelgan romantik yo‘nalish teatrda gumanistik idiallar va ko‘p hollarda hayotiy orzularning yoritilishiga olib keldi. Dramada o‘ziga xos milliylik, xalqchilik, tarixiylik va ijtimoiy adolat uchun kurash ohanglari keng quloqch yoydi.

XIX asr oxirlaridan teatrni isloh qilishning yangi davri boshlandi. Teatr badiiy adabiyot (proza, poeziya), yangi drama (Chexov va boshqalar) bilan boyidi.

XIX asr oxirlarida XX asr boshlarida teatrlarda aktyorlik san‘atida ham yangi ta‘lim uslubi – Stanislavskiy sistemasini qo‘llash boshlandi.

XX asrning yigirmanchi yillarida Meyerxold, Vaxtangovlarning rexissyorlik faoliyati teatrning rivojiga katta hissa bo‘lib qo‘shildi.

XX asr o‘rtalarida G‘arb rejissurasi va sahna san‘atiga B.Brextning ijodiy uslubi katta ta‘sir ko‘rsatdi. Zamonaviy teatr dunyo teatrining demokratik, xalqchil an‘analarini mustaqil o‘zlashtirib borishi, sahnaviy talqinlarning rang-barangligi bilan ajralib turadi.

O‘zbekistonda an’anaviy teatr tarixi juda qadimiydir. Uning kurtaklari iptidoiy jamoa davridayoq ov va boshqa mehnat jarayonlari aks etgan taqlidiy raqslar, jangovar va boshqa xalq o‘yinlari, tabiat kuchlariga topinish oqibatida yuzaga kelgan marosimlar shaklida namayon bo‘lgan.

Miloddan avvalgi VII-VI asrdayoq turonda zardushtiylik va uning muqaddas kitoblar to‘plami Avesto bilan bog‘liq ikki toifa kulgili va qayg‘uli tomoshalar shakllangan. Yunon baqtriya podsholigi davrida Oyxonim, Nisa, shahri G‘ulg‘ulada maxsus teatrlar bo‘lib, ularda Yevripidning “Alkesta”, “Ippolit” kabi tragediyalari ko‘rsatilganligi ma‘lum.

Miloddan avvalgi 1-asrlardan milodiy 4-asrda Kushon davlatida Buddha dini bilan bohliq turli teatrlashgan tomoshalar mavjud bo‘lgan. Ayritom ibodatxonasi peshtoqidagi cholg‘uchi qizlarning tasvirlari shuni ko‘rsatadi. Asta-sekin Turonda teatr san‘ati diniy marosimlar qobig‘idan chiqib dunyoviy mazmun kasb etadi – inson hayoti, ijtimoiy munosabatlarni tasvirlashga e‘tibor kuchayadi.

VI-VII asrlarda Turon yurtidan chiqqan cholg‘uchilar, aktyor va raqqosalar Buyuk ipak yo‘li orqali qo‘shni yurtlarga ijodiy safar qiladilar IX-XII asrlarda xalq bayramlari, marosimlari, urf-odatlari va ular bilan bog‘liq tomoshalar tiklanibgina qolmay, aholi orasida keng tarqalddi. Masxara va taqlid teatri har jihatdan rivojlandi.

Temuriylar davrida teatr san‘atida keskin yuksalish ro‘y berdi. Sharofiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshox, Klavixolarning ma‘lumotlaricha bu darda royxat Samarqand va boshqa nufuzli shaharlarda ommaviy teatrlashgan maydon tomoshalari uyushtirilgan. An’anaviy teatr va boshqa san‘at tomoshalari ayniqsa Mizzo Ulug‘bek davrida (1394-1440) Movaraunnahrda, Xusayin Boyqaro davrida (1469-1576) Xurosonda taraqqiy topdi.

2.3. Qadimgi teatr tarixining o‘ziga xos unsurlari.

Jahon teatri rivojlanishining asosiy etaplari; antik teatr: qadimgi yunon dramasi va teatrlari yuzaga kelishi; Afina demokratiya davrida (m. a. V asr) teatr; Esxil, Sofokl, Yevripid, Aristofan ijodi; Aristotel “Poetika”si; ellin davri teatri; Rim

teatri: Rim teatri ildizlari, respublika davri (m. a. III – I asrlar) Rim teatri, Plavt Terensiy ijodi; imperiya davrida Rim teatri; o‘rta asrlar teatri: misteriya, moralite, fars; uyg‘onish davri teatri; italyan teatri, ispan teatri, ingliz teatri; fransuz klassitsizmi teatri; G‘arbiy Yevropada ma‘rifatparvarlik davri teatri: fransuz teatri, italyan teatri, nemis teatri, yangi zamon G‘arbiy Yevropa teatri (1789 – 1871): fransuz teatri, ingliz romantik teatri; nemis romantik teatri; XIX – XX asrlarda xorijda G‘arbiy Yevropa teatri: fransuz teatri, skandinav mamlakatlari teatri, italyan teatri, ingliz teatri, nemis teatri; 1917 – 1945 yillar davrida G‘arbiy Yevropa teatri: fransuz teatri, ingliz teatri, nemis teatri, italyan teatri, AQSH teatri; Yugoslaviya xalqlari teatri; yangi zamon G‘arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSH teatri: dramaturglar J. Sartr, E. Ionnekus, S. Bekket, D. Osborn, E. de Filippo, P. Vays, F. Dyurrenmat, T. Uilyams, A. Miller ijodi; teatr arboblari J. Barro, J. Vilar, L. Juve, P. Bruk, D. Gilgud, E. de Filippo va boshqalar ijodi.

XVIII asr rus teatri; XIX asr birinchi yarmida rus teatri: dramaturgiya, teatrlar, aktyorlik san‘ati; XIX asr ikkinchi yarmida rus teatri: dramaturgiya, yetakchi teatrlar faoliyati; XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rus teatri: dramaturgiya, MBT (MXT) (1898-1917), boshqa teatrlar faoliyati, yetakchi aktyor va rejissyorlar faoliyati; 1917 – 1932 yillarda rus teatri; 1932 – 1958 yillar davrida rus teatri: dramaturgiya, aktyor va rejissyorlik san‘ati; 1958 – 1985 yillar davrida rus teatri: dramaturgiya, aktyor va rejissyorlik san‘ati; 1985 – 2000 yillarda rus teatri: asosiy oqimlar, xarakterli hodisalar; MDH xalqlari teatri tarixiy rivojlanish etaplari; professional tizimdagi teatrlarni tiklanishi; ozarbayjon va tatar teatri va dramaturgiyasi, Markaziy Osiyo xalqlari dramaturgiyasi va teatri; sahna san‘atida teatr izlanishlari va tajribalarining xilma – xilligi va boyligi; milliy teatr madaniyatlarining o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro ta’siri, xilma – xilligi va o‘ziga xosligi.

O‘zbek teatri tarixi qadimiy davrlardan mavjud bo‘lgan og‘zaki (an’anaviy) masxaraboz va “qiziqchi” professional teatrlari, shuningdek, an’anaviy qo‘g‘irchoq teatrining o‘ziga xos xususiyatlari; Yevropa shaklidagi o‘zbek adabiy dramasi va milliy teatrining shakllanish jarayoni; jadidlar dramaturgiyasi va teatri; “Turon”

teatri faoliyati va uning Turkistonda teatr harakati rivojlanishidagi o‘rni (1910 – 1917); teatrlarni davlat ixtiyoriga o‘tishi, dramaturgiya, professional sahna, davlat teatrlarining yaratish jarayonlari (1918 – 1930): dramaturgiya, sahna va repertuar, aktyor va rejissyorlik san’ati; 30 yillarda o‘zbek dramaturgiyasi va teatr: Hamza nomidagi akademik drama teatr, o‘zbek yosh tomoshabinlar teatri, viloyat teatrlari faoliyati; 40 – 50 yillarda o‘zbek dramaturgiyasi va teatri: Hamza nomidagi akademik drama teatri repertuari, aktyor va rejissyorlik san’ati, teatrning yosh avlodi; A. Navoiy nomidagi opera va balet teatri faoliyati; Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatri faoliyati; Respublika o‘zbek yosh tomoshabinlar teatri; viloyat teatrlari; 60 – 80 yillarda o‘zbek dramaturgiyasi va teatri: Hamza nomidagi akademik drama teatri, Muqimiy nomidagi musiqali teatr, A. Navoiy nomidagi opera va balet teatri, A. Hidoyatov nomidagi teatr (sobiq “Yosh gvardiya” nomli), respublika o‘zbek yosh tomoshabinlar teatri; viloyat teatrlari; Milliy mustaqillik davrida o‘zbek dramaturgiyasi va teatri: O‘zbekiston respublikasi suveriniteti g‘oyasini ifodalash vositalari bo‘yicha yangi izlanishlar, hukumat, “O‘zbekiston teatr san’ati kelgusidagi rivojlantirish” ishlari bo‘yicha Prezident siyosati; o‘zbek teatrlarining xorij safarlariga chiqishi; repertuar siyosatidagi erkinlik.

Musiqqa san’ati rivojlanishining asosiy etaplari; musiqqa – ibtidoiy jamoa tuzumi turmushi qismi sifatida; o‘rta asrlar davrida musiqiy hayot: truver va trubadurlar ijodi; Uyg‘onish davri musiqasi; Bax, Gendel – polifonik maktablari; musiqaning buyuk namoyandalari – Gaydn, Motsart, Betxoven; milliy kompozitorlik maktablari: Polsha, nemis, venger va italyan. Musiqada impressionizm – Ravel, Debyussi; XX asr musiqasida zamonaviy oqimlarning tug‘ilishi va rivojlanishi: jaz, estrada san’ati, pop – musiqqa; G‘arbiy Yevropa va Sharq musiqqa madaniyatlarida barcha janrlar va stillar tiklanishi va rivojlanishi; Qadimgi Sharq musiqasining o‘ziga xos xususiyatlari: Misr, Hindiston, Xitoy va ularning o‘zaro ta’siri va milliy o‘ziga xos xususiyatlari; rus musiqqa madaniyati: rus musiqqa klassitsizmi; XVIII asr rus musiqqa madaniyati; rus operasi va teatrini yuzaga kelishi; XIX asr boshlarida vokal musiqasi; M. I. Glinka va uni milliy opera shakllanishida ahamiyati; “Qudratli

to‘da” kompozitorlari; P. I. Chaykovskiy va uning jahon musiqiy madaniyatiga qo‘shgan hissasi; S. I. Taneyev, S. V. Raxmaninov va A. N. Skryabin – XX asr rus musiqasi; XX asr rus musiqasi madaniyati (sovet davri); opera, oratoriya, simfoniya, ommaviy qo‘shiqlar; S. Prokofyev, D. Shostokovich, A. Xachaturyan, G. Svirodov, R. Shedrin, A. Shnitke va boshqalar ijodining jahon musiqasi madaniyatidagi o‘rni.

Milliy musiqasi madaniyati ildizlari; Al – Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy, Beruniy kabi buyuk mutafakkirlarning musiqiy nazariy merosi; musiqaning ma’naviy – ma’rifiy ta’sirdagi o‘rni; A. Temur va Temuriylar davrida musiqasi san’ati; Navoiy davrida musiqiy hayot; o‘zbek xalq va xalq professional ijodi (janrlar, shakllar, kuy tizimini lad va metro ritmik tuzilishi tamoyillari); o‘zbek xalq cholg‘ulari; o‘zbek maqomlari; shashmaqom – xalq qo‘shiq – cholg‘u ijodining klassik namunasi (vokal va cholg‘u bo‘limlar); maqomatda yo‘nalishlar: Buxoro, Toshkent – Farg‘ona, Xorazm; maqom ijrochilari ijodi; milliy musiqasi madaniyatining yorqin hodisasi sifatida bastakorlar ijodi (Y. Rajabiy, I. Ikromov, T. Jalilov); cholg‘u (ansambl, orkestr) musiqasining kelgusidagi rivojlanish tarixi; o‘zbek kompozitorlarining musiqiy ijodiy faoliyati (simfonik, vokal – simfonik musiqasi); musiqiy teatr san’atining tug‘ilishi: nazariya, tarix va zamonaviylik; teatr va kino – musiqasi; estrada – jaz musiqasi; yangi tarixiy sharoitdagi O‘zbekiston musiqiy madaniyati rivojlanish tahlili; mustaqil O‘zbekiston davrida musiqasi va teatr musiqasining muhim voqealari (“Sharq taronalari”, “O‘zbekiston – Vatanim manim”, “Navro‘z” teatr festivali).

Tasviriy san’at tarixi va nazariyasi rivojlanish etaplari va umumiy qonuniyatlari; tasviriy san’at turlari: rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, xalq amaliy san’ati, me’morlik; tasviriy san’at janrlari – maishiy va tarixiy portret, peyzaj, natyurmort va boshqalar; rivojlanishning umumiylik va xususiyatlari; qadimgi dunyo san’ati: ibtidoiy jamoa tuzumi, qadimgi Misr, Yunoniston, Rim; o‘rta asrlar G‘arb san’ati; arab xalifaligi tasviriy san’ati; Uyg‘onish davri (XVII asr, Italiya); XVII – XX asrlar G‘arbiy Yevropa san’ati; rus san’ati tarixi; XX asr jahon san’atida asosiy yo‘nalishlar; madaniy meros muhofazasi va rivojlanish muammolari; jahon sivilizatsiyasi tarixida o‘zbek milliy madaniyati: O‘zbekiston

madaniyati rivojlanish xususiyatlari va uning yorqin namoyandalari; O‘zbekiston san’at tarixining asosiy etaplari – qadimgi, antik, renessans – o‘rta asrlar, Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyatning gullashi; XVII – XIX asrlarda O‘zbekiston san’ati; XIX asr oxiri XX asr O‘zbekiston tasviriy san’ati: H. Ikromov, CH. Ahmarov, M. Nabiyev, D. Ro‘ziboyev, J. Umarbekov, B. Jalolov, A. Mirzayev, A. Ikromjonov va boshqalarning ijodida XX asrning yangi turi va janrlari shakllanishi; mustaqillik mafkurasi va uni O‘zbekiston tasviriy san’at tarixi rivojlanishidagi o‘rni; barcha davrlar moddiy madaniyat, turmush va libos tarixi.

Yevropa, Angliya va boshqa mamlakatlarning ovozsiz kinematografiyasi; ovozli kino davri; O‘zbekiston kinematografiyasi tarixiy tajribasi; kinematografiyaning adabiyot, rangtasvir, musiqa bilan aloqalari; MDH kinosi tarixi; ustalar - D. Vertov, S. Eyzenshteyn, A. Dovjenko, Pudovkin, Y. Protazanov; kinometograflar ishlab chiqadigan mavzular xilma – xilligi; mumtoz va zamonaviy nasrning o‘zlashtirilishi; kino ijodkorligining tarixiy jarayoni va kinematografiya uslublarining nazariy idrok etilishi; shaxs shakllanishiga kino vositasida estetik ta’sir etish; kinometografiya istiqbollari; o‘zbek xalqi hayotiga kino kirib kelishi; o‘zbek soqov kinosi; kinoda dolzarb zamonaviy mavzu; ekranda tarixiy mavzu; ovozli kino boshlanishi; 1936 – 1941 yillar – “Asal”, “Azamat” filmlari; urush yillarida kino; N. G‘aniyevning “Tohir va Zuhra” klassik filmini yaratilishi; urushdan keyingi qiyinchilik yillari; badiiy filmlar to‘xtatilishi; 50 yillarda o‘zbek kinosini uyg‘onishi; kinoni adabiyot bilan ijodiy aloqalar tiklanishi; 60 yillarda o‘zbek kinosi gullashi; kinometografiyachilarning yangi avlodi kelishi; 60 yillarning yetakchi mavzulari zamonaviy, urush mavzusi, tarixiy; 70 – yillarda kinoda ijodiy darajaning tushishi; 80 yillarda kino; rejissyorlarning yangi avlodi kelishi; mustaqillik davri kinosi; hujjatli kino tarixi va nazariyasi: o‘zbek hujjatli kinosini rivojlanish etaplari; xronika – hujjatli kinometografiyasida janrlar xilma – xilligi; ilmiy – ommabop filmlarda xilma – xil mavzularni o‘zlashtirilishi; MDH hujjatli kino rivojlanishi; hujjatli kino film tajribasi va hujjatli ilmiy – ommabop kino nazariyasi yuzaga kelishi; ilmiy targ‘ibotda ilmiy – ommabop kino o‘rni;

mustaqillik davri o‘zbek kinosini taraqqiy ettirishda davlat siyosati; televideniya janr rivojlanish istiqbollari.

Harakatsiz obyekt, so‘ngra masofada harakatlanishni tasvirlash tarixiy tajribasi; televideniya xususiyatlari; jahon va MDHning yetakchi televideniya stansiyalarining ko‘rsatuv tashkil etishdagi tajribalari; televideniya rivojlanishi bo‘yicha nazariy mulohaza va tezislar; masofadan ko‘rsatuvlar tasviriy signallarni uzatishning texnik imkoniyatlari va takomillashtirish yo‘l - yo‘riqlari; televideniya ko‘rsatuvlari va radio eshittirishlari tuzilishi; jahon kino, teatr ustalarining jamiyatda televideniyaning o‘rni haqida nazariy mulohazalari; televideniya va radioning mafkuraviy roli, ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy funksiyalari; televideniyaning ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarish faoliyati imkoniyatlari; shaxsiy nazariy konsepsiyaning tiklanishi; televideniyaning jamiyatdagi estetik funksiyasi; Respublikamiz mustaqilligini mustahkamlashda, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida iqtisodiy, jamiyatning mafkuraviy va ijtimoiy muammolarning yechimida milliy televideniyaning roli va vazifalari; mustaqillik yillarida televideniya faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar.

Drama nazariyasi kursining san‘atshunoslikning turlar bo‘yicha kasbiy tayyorgarlikda tutgan roli, o‘rni va ahamiyati; kurs tuzilishining metodologik tamoyillari uchun adabiyot va san‘at, dramaturgiya va teatrning nazariy muammolariga tegishli adabiyotshunos va san‘atshunos, faylasuflarning klassiklari; ular ishlarining asosiy ahamiyati; klassiklar Esxil, Shekspir, Shiller ijodi haqida; Lassalning “Frans fon Zikingin” tragediyasi haqida; qahramonlik, fojeylik, kulgililikning estetik xususiyatlari haqida; Aristotel, Lessing, Gegel, Belinskiyning badiiy adabiyotni alohida xil (tur)larga ajratish zarurligi haqida mulohazalari; Badiiy adabiyot xili (turi: drama, lirika, epos);

Aristotel dramani “harakatni hikoya emas, harakat orqali taqlid qilish” deb belgilashi; dramatik asarda kolliziya va konflikt, voqealar tuzilishi dramaturgik asarlarda; dramaturgik asarlarda harakat; dramaturgik asarlarning kompozitsiyasi; dramaturgik asarlarning janrlari; drama va teatr: teatr faqat pyesa orqali bilvosita emas, balki mustaqil badiiy tuzilmaga ega bevosita haqiqatni ifodalash san‘ati;

dramaturgiya badiiy adabiyot va teatrga tegishli san'at turi sifatida. Gogolning dramaturgiya san'ati va teatr munosabatlarining o'ziga xosligi haqida, Gegel sahnaviy talqin vositalari orqali dramani "jonlantirishi" haqida; Stanislavskiyning drama sahnaviy talqin etilmagan yakunlanmagan asar degan fikri haqida; B. Shou yozilgan so'z va eshitilayotgan so'z munosabatlari haqida; drama nazariyasiga tarixiy nuqtai nazardan qarash.

Xoreografiya va raqs san'ati asoslari raqs paydo bo'lishi; ilk o'rta asrlar raqsi; feodal munosabatlar o'rnatilishi davri raqs san'ati; A. Temur va Temuriylar davri raqs san'ati; oxirgi o'rta asrlar davri va XIX asr raqs san'ati; XX asr birinchi yarmi raqs san'ati; 20 – 30 yillarda o'zbek sahna raqsi paydo bo'lishi; O'zbekistonda 40 – 50 yillarda balet san'ati shakllanishi va rivojlanishi; XX asr ikkinchi yarmida balet san'ati; 50 – 70 yillarda Navoiy teatri sahnasida klassik baletlar; zamonaviy klassik baletlar; Navoiy teatri sahnasida milliy baletlar; mashhur o'zbek balet artistlari; 50 – 90 yillarda O'zbekiston raqs san'ati: "Bahor", "Shodlik", "Zarafshon", "Lazgi" va boshqa raqs ansambllari; mashhur raqqosalar ijodi; zamonaviy sahna raqsi; 80 – 90 yillarda balet san'ati; o'zbek san'atining taniqli xoreograf, baletmeystr va balet artistlari;

Hindiston raqs san'ati; klassik raqs; ibodatxona raqslari; xalq raqslari; Xitoy raqs san'ati: raqs paydo bo'lishi; marosim va diniy raqslar; Xitoy pantomima – raqsi; XX asr raqs san'ati; G'arbiy Yevropada raqs san'ati va xoreografiya; antik davri raqsi; Yevropa baleti yuzaga kelishi; Italiya va Fransiya balet san'ati; taniqli baletmeystr va raqqosalar; XX asr balet san'atining asosiy badiiy yo'nalishlari; XX asr balet san'atining taniqli xoreograf, baletmeystr, balet artistlari; Rossiya xoreografiyasi va raqs san'ati; xalq raqsini yuzaga kelishi va rivojlanishi; XVII asrda balet rivojlanishi; XVIII – XIX asrlarda balet san'ati: SH. Didlo, M. Petipa ijodi; Rossiyada XX asr boshida balet san'ati: M. Fokin, V. Nejinskiy, A. Pavlova ijodi; Parijda rus mavsumlari; XX asr Rossiyada balet san'ati; Y. Grigorovich ijodi; taniqli xoreograflar; rus balet teatri ustalari.

Xalqaro munosabatlar va madaniy aloqalar xalqaro aloqalar shakllanishining umumiy asoslari; xalqlar va mamlakatlararo munosabatlar asosida madaniy

aloqalarning o‘rnatilishi; xalqaro munosabatlar shakllanishi va madaniy aloqalarning o‘rnatilishi; mustaqillik davri O‘zbekiston xalqaro aloqalarining keng ko‘lamda yo‘lga qo‘yilishi va olib borilishi; xalqaro munosabatlar va madaniy aloqalar bo‘yicha kasb darajasida ish yuritish.

Ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, “Ta’lim to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni va ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari; kadrlar tayyorlash milliy modeli; Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va pedagogika fanining vazifalari; Prezident I. A. Karimov asarlarida ta’lim tarbiya masalalari; Pedagogika metodlari; o‘zbek xalq pedagogikasi: imkoniyatlar va istiqbollari; Milliy istiqlol g‘oyasi, milliy mafkurani tarbiyalashda pedagogikaning imkoniyatlari; hozirgi davrda o‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rni; tarbiyada shaxs rivojining genetik, fiziologik va psixologik asoslaridan foydalanish; tarbiya jarayoni va tarbiya metodlari; odob, axloq va xulq tarbiyasi; iymon, e’tiqod, vijdonni tarbiyalash; mustaqil fikr va aql tarbiyasi; mehnat, estetika va ekologik tarbiya; ta’lim funksiyalari va tamoyillari; ta’lim metodlari va vositalari; ta’limning tashkiliy shakllari; ta’lim sifatlarini aniqlash va rag‘batlantirish; pedagogik g‘oyalar tarixi va ta’lim konsepsiyalari; pedagogik jarayon va mutaxassislik, pedagogik ilmiy – tadqiqot metodlari; kasbning ta’lim mazmuni, o‘quv rejalari, dasturlariga talablar; ta’limda yangi pedagogik texnologiyalar; “Ustoz shogird” an‘analari; boshqaruv pedagogikasi va ijtimoiy pedagogika asoslari.

Umumiy psixologiya: predmeti, obykti va metodlari; psixologiyaning fanlar tizimidagi o‘rni; psixologik bilimlarning taraqqiyot tarixi va psixologiyaning asosiy yo‘nalishlari; hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va uning prinsiplari; individ, shaxs, subyekt, individuallik;

Psixika va organizm; psixika, xulq-atvor va faoliyat; psixikaning asosiy funksiyalari; flogenez va antogenez jarayonida psixikaning rivojlanishi; miya va psixika; psixikaning tuzilishi; onglilik va ongsizlik sohasining o‘zaro munosabati; asosiy psixik jarayonlar;

Ongning tuzilishi (strukturasi); bilish jarayonlari; sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur va intellekt (aql); xayol, diqqat, xotira, ijodiyot; emotsiya va his-tuyg‘u;

muloqot va nutq, shaxs psixologiyasi; shaxslararo munosabat; kichik guruhlar psixologiyasi; guruhlararo munosabat va o‘zaro ta’sirlar; faoliyat va hulq-atvorning psixologik regulyatsiyasi (boshqarish); faoliyatning psixologik tahlili; temperament; xarakter; qobiliyat, kasbiy ijod psixologiyasi; kasbiy ijod psixologiyasining predmeti va metodlari; shaxsni shakllantirishda san’at asarlarining psixologik xususiyatlar; shaxs shakllanishida yetakchi kasbiy – ijodiy faoliyat va ijtimoiy vaziyatning roli; kasbiy ijod va tarbiyaning psixologik aspektlari (tomonlari). Bo‘lajak teatrshunoslarni tayyorlashda seminarning bosh vazifasi; mehnatkashlarning g‘oyaviy, estetik va ahloqiy tarbiyalashda adabiyot va san’atning o‘rni; mazkur muhim ishda teatr tanqidchiligining o‘rni; O‘zbekiston Prezidenti farmonlari va hukumat qarorlari, shuningdek, respublika teatr san’atining yanada rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar; jamiyatni gumanistik rivojlantirish talablaridan kelib chiqqan holda, hamda drama nazariyasi asoslariga tayanib, asarni g‘oyaviy – badiiy tahlil qilish; o‘zbek dramaturgiyasi tarixi; o‘zbek dramaturgiyasining sara asarlari; g‘oyaviylik va badiiylik; asarning mavzusi, syujeti, tili; kompozitsiya; asar g‘oyasini ochishda (yechimida) obrazlarning o‘rni; dramaturgik asarlar tahlili bo‘yicha talabalar bilan amaliy (ijodiy, ilmiy, tashkiliy) ishlar.

Jahon dramaturgiyasi rivojining asosiy etaplari va adabiy – badiiy oqimlari rivojlanishining asosiy etaplari, jahon dramaturgiyasining sara asarlari; dramaturgik asarlar janrlari va ularning evolyusion rivoji;

Mustaqil ishlar tayyorlashda maxsus adabiyotlardan foydalanish o‘rni va metodologiyasi; pyesani spektaklga aylanish jarayoni; aktyor ishining tahlili; pyesa va spektakl o‘rtasida umumiylik va o‘ziga xoslik; spektakl – mustaqil badiiy asar; teatr san’atning murakkab va mustaqil turi; teatr turlari – umumiylik va o‘ziga xoslik; “roman – inssenirovka – spektakl” jarayonining o‘ziga xosligi; zamonaviy teatrda aktyorning o‘rni; zamonaviy teatrda rejissyorning o‘rni; zamonaviy teatrda rassom, kompozitor, baletmeyster va boshqalarning o‘rni; pyesani spektaklga aylantirish jarayonini o‘zlashtirish bo‘yicha har bir talaba bilan alohida amaliy ishlar;

Yaxlit spektakl talqini va tahlili bo'yicha ishlash; spektakl mustaqil badiiy asar; pyesa konsepsiyasi, rejissyor konsepsiyasi, spektakl konsepsiyasi; yuqoridagilarning har birini o'rganish bo'yicha amaliy ishlar;

Badiiy obraz haqida tushuncha; badiiy obraz o'ziga xos xususiyatlari; sahnaviy obraz turlari; badiiy asar problematikasi; har bir talaba bilan alohida amaliy ish olib borish.

Rejissyor ishini og'zaki (yozma) amaliy tahlil metodologiyasi: rejissyor va pyesa; rejissyor va zamonning dolzarb muammolari; rejissyorni ijodiy shaxs sifatida shakllanish muammolari; gazeta, jurnal, aniq tematika bo'yicha to'plamlar uchun muammoli maqolalar ustida ishlash.

Zamonaviy teatr va dramaturgiyaning muammolari bo'yicha tadqiqot ishlari; o'zbek teatr va dramaturgiyasining ayrim tarixiy nazariy muammolari bo'yicha tadqiqot ishlari ustida ishlash.

Zamonaviy jamiyatda tele radio o'rni va ahamiyati; mustaqillik yillarida o'zbek tele radiosi; tijoriy televideniye va radio; radio diktor va olib boruvchi; televideniye diktori va olib boruvchisi; televideniye va radioda tomoshabin va tinglovchilarga materiallarni yetkazishni spetsifikasi va o'ziga xosligi; ko'rsatuv va eshittirish matni bilan ishlash diktor va olib boruvchining asosiy vazifasi; diktor va olib boruvchi faoliyatida umumiylik va o'ziga xoslik; diktor va olib boruvchi; jurnalist (san'atshunoslik) – olib boruvchi davr talabi; radio FMdagi radio boshlovchilar.

Rejissura – teatr, kino, televideniye va radioda yagona, garmonik yaxlit badiiy asarni yaratish san'ati; rejissyorning aktyor bilan ijodiy muloqoti – rejissuraning asosiy metodi sifatida; rejissyorning asosiy vazifasi aktyorni ilhomini uyg'otish va ijodiy izlanishlarni kerakli o'zanga yo'naltira olish; spektakl yoki kinofilm tayyorlash jarayonida, shuningdek ijodiy jamoalarda rejissyor yagona ijodiy tarbiyachi va tashkilotchi ekanligi haqida; rejissyor spektakl muallifi sifatida; aktyor sahnaviy tomoshaning bosh ishtirokchisi; pyesa g'oyasi va fikrining (zamisli) aktyor orqali tomoshabinga yetib borishi; kechinma san'ati yo'li bilan ijodiy holatga kirish aktyorlik mahorati asosi; o'zaro va teran hamkorlikdagi murakkab ijodiy jarayonning ikki tomoni sifatida ichki va tashqi kechinma tushunchasi; aktyorlik

san'atining ifoda vositalari: - faktura, ovozdan foydalanish ko'nikmasi, so'z san'ati, jismoniy harakat, plastiklik va boshqa; aktyor san'atida so'z muhim ta'sir vositasi.

Sahna asarining rejissyorlik pyesani hissiy taassurotini tahlil orqali tekshirish; "o'zak" (zerno) va spektaklning birinchi obrazi; asar fabulasi (pyesa, ssenariy); asosiy konflikt; asar (pyesa, ssenariy) bosh mavzusi, muallif bosh g'oyasi, ya'ni pyesaning badiiy g'oyasi; asar (pyesa, ssenariy) janri; asarning (pyesa, ssenariy) hayotiy asoslari; muallif ijodining yo'nalishi va xarakteri, umuman, mazkur asarni uning ijodidagi o'rni; spektakl mo'ljallangan tomoshabin uchun pyesa mazmunining dolzarbligi;

Rejissura tarixi va nazariyasi. rejissurani yuzaga kelishi; antik teatrda spektakllarni sahnalashtirish; o'rta asrlarda tomoshani sahnalashtirish; uyg'onish davrida professional teatrning shakllanishi; klassitsizm davrida teatr postanovkalari; Molyer teatri; ma'rifatparvarlik davrida teatr islohotlari; XIX asr birinchi yarmida Yevropa teatri rejissurasi; XIX – XX asrlarda Yevropa teatrida rejissyorlik san'ati; XX asr birinchi yarmida Yevropa teatri rejissyorligi; XX asr ikkinchi yarmida Yevropa teatri rejissyorligi; XIX asr oxiri XX asr boshlarida rus teatrida rejissyorlik san'ati; K. Stanislavskiyning teatr sistemasi; XX asr ikkinchi yarmida rus teatrida rejissyorlik san'ati; XX asr birinchi yarmida o'zbek teatrida rejissyorlik san'ati; XX asr ikkinchi yarmida o'zbek teatrida rejissyorlik san'ati; Mustaqillik yillarida o'zbek teatrida rejissura

Ssenografiya tarixi va nazariyasi teatr dekoratsion san'at o'choqlari; ssenografiyaning antik modellari; o'rta asrlar davrida dekoratsiya san'ati; XV – XVI asrlarda italyan ssenografiyasi; XVII asr Barokko stilidagi dekoratsion san'at; Shekspir o'tmishdoshlari va zamonida teatr dekoratsion san'ati; Rokoko dekoratsion san'ati yuzaga kelishi; romantizm davrida teatr dekoratsiyasi; XIX – XX asrlarda xorijiy teatr dekoratsion san'ati; XX asrning 20 – 80 yillarida O'zbekiston teatr dekoratsion san'ati; zamonaviy o'zbek ssenografiyasi; o'zbek ssenografiyasining yirik vakillari.

San'at va uning turlari; ifoda vositalari; tasvirlash obyektlari; hayotiylik, haqqoniylik va badiiylik tushunchalari; san'at arbobi, san'atshunos, usta, mahorat tushunchalari;

dramaturgiya (pyesa, ssenariy, libretto); drama, dramaturg, og'zaki drama, inssenirovka va boshqa tushunchalar; teatr, xalq teatri, an'anaviy teatr; tele radio teatr, teatr studiya va boshqa tushunchalar; kino, tele radio, musiqa, tasviriy san'at, xoreografiya va raqs tushunchalari;

atamalar va tushunchalar mohiyati: masxaraboz, qiziqchi, aktyor, rejissyor; rassom, dekoratsiya, sahna bezagi, sahna kiyimi; sahna libosi; grim, butaforiya, chiroq, rang; raqqos, raqqosa, xoreograf, baletmeyster; musiqachi, dirijyor, kompozitor, bastakor tushunchalari;

vokal, vokal ijrosi, an'anaviy ijro, orkestr, ansambl, torli orkestr, puflama orkestr, garmoniya, polifoniya, oranjerovka va boshqa tushunchalar;

tushunchalar: talqin, tabdil; ifoda; tahlil, tarkibiy qismlarga bo'lib tahlil qilish va boshqa;

mavzu tushunchasi; ijtimoiy, ijtimoiy hayot, badiiy asar ijtimoiy sifatlari, ma'naviyat va ma'rifat tushunchalari mohiyati: badiiy asarni ma'naviy va ma'rifiy sifatlari;

g'oya tushunchasi mohiyati: g'oyaviylik, badiiy asar g'oyaviyligi;

badiiy asarda mavzu; badiiy asarlarda mavzuni aniqlash; turli san'at turlarida mavzuni ifodalash usullari;

badiiy asarning jozibali, sehrliligi elementlari: hayotiylik, hayotiy haqiqat, hodisaviyligi, intriga, ta'sirchanligi, nafis va go'zalligi yoki aksincha o'tkir, dahshatli "portlashlar", kutilmagan burilishlar, badiiy asarda syujet, san'atning turlarida syujetni aniqlash;

badiiy asarda syujet tuzilishi; boshlang'ich voqea; birinchi voqea; markaziy voqea; final voqeasi;

amaliy mashg'ulot: mavzu, g'oya, syujet va voqealar tizimi (oliy maqsad va to'g'ri harakat) bo'yicha tahlil uchun o'zbek dramaturglar asarlarini o'qish, o'zbek

rassomlari, raqs jamoalari, spektakllarni ko‘rish, ma’lum badiiy asar bo‘yicha tahliliy ishlar (blitslar) yozish bo‘yicha yakka darslar;

San’atni asosiy turlarining asosiy badiiy – estetik, tashkiliy ijro sifatlarini o‘rganishni davom ettirish; uning har biriga o‘ziga xos san’atshunoslik yondashuvi; mavzu, syujet, g‘oya yozish spetsifikasi haqida, san’at turlarining alohida bir turida badiiy asarni ifoda vositalari, muzey, ko‘rgazmalarga borish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar; teatrlar, konsert zallari, badiiy va hujjatli kino va video filmlar ko‘rish, klassik va zamonaviy musiqa tinglash, san’atshunoslik yozma ijod mahoratini charxlash bo‘yicha yakka mashg‘ulotlar.

Dramaturgik, teatr, kino va televizion, xoreografik, raqs, musiqa, tasviriy va boshqa asarlarni g‘oyaviy – badiiy tahlili; ularni asosida OAV uchun turli janrlarda publitsistik asarlar yaratish: taqriz, ijodiy portret, kuzatish, kengaytirilgan muammoli maqolalar, reportajlar, intervyular va boshqa; OAV elektron turlari bilan hamkorlik: turli janrlardagi ko‘rsatuvlarga ssenariylar yaratish, mazkur ko‘rsatuvlar tayyorlanishida bevosita ishtirok etish; kelgusida bitiruv malakaviy ishi yaratish maqsadida san’atning ma’lum bir turidan ilmiy tadqiqot ishini olib borish.

Tomoshabinlar va mushtariylar fikrini o‘rganish asoslari: jamiyat va san’at o‘rtasida san’at sotsiologiyasini deterministik funksiyalari; san’at sotsiologiyasini tadqiq qiluvchi, tahlil qiluvchi va umumlashtiruvchi funksiyalari; san’at faoliyat ko‘rsatishi va rivojining ijtimoiy qonuniyatlari; san’at asarlarini tug‘ilishi va jamiyatga ta’sir etishidagi ijtimoiy qonuniyatlar, ifoda shakllari; jamiyatning turli tabaqalarini estetik ehtiyojlari va san’atning takliflari o‘rtasidagir aloqalar; san’atni zamonaviy holatini o‘rganishda umumsotsiologik (jamiyat fikrini o‘rganish – anketa, konferensiya, seminarlar, ko‘riklar va sh. o‘.) metodologiyani qo‘llash usullari.

San’atshunoslik jurnalistikasi atamasi va predmeti san’atshunoslik jurnalistikasi fani shakllanishi va rivojlanishining asosiy etaplari; san’atshunoslik jurnalistikasining qadimgi ildizlari; XI – XIII asrlarda madaniy – ma’rifiy jarayon haqida ma’lumotlar – milliy jurnalistika ildizlari; XIV – XIX asrlarda san’at turlari; manbashunoslikni yuzaga kelishi san’atshunoslik jurnalistikasi taraqqiyotida yangi

bosqich sifatida; Zokirjon Furqat birinchi san'atshunos jurnalist; XX asr boshlarida o'zbek progressiv - ilg'or matbuotida san'at haqida axborotlar; oktabr to'ntarishidan (1917) mustaqillikkacha san'at hayotini o'zbek jurnalistikasida yoritish: muammolar, tendensiyalar; mustaqillik yillarida san'atshunoslik jurnalistikasi.

Mamlakat badiiy – tanqidiy jarayonida san'atshunoslik jurnalistikasining o'rni va ahamiyati; nazariy, madaniy – ma'naviy, fuqarolik, vatanparvarlik tayyorgarlik – san'atshunos jurnalist kasbiy mahorati asosi; OAVda san'at turlari tahlili va targ'iboti shakllari, janrlari, metodologiyasi; san'atshunos jurnalist kadrlarini tayyorlashning yutuqlari va muammolari.

Telejurnalistikaning spetsifik o'ziga xos xususiyatlari va vazifalari; televideniye yuzaga kelishi; O'zbekistonda televideniye rivojlanish bosqichlari; telejurnalistika janrlari, televizion atamalar haqida tushuncha; televideniye da reportaj va uning turlari; intervyu, uning turlari va xususiyatlari; ssenariy va "montaj varag'i" haqida tushuncha; televideniye da axborot; tele lavha va uning rejissurasi; informatsion reportaj ssenariysi va montaj varag'ining o'ziga xosligi; montaj, telemontaj turlari va qoidalari; kadrda ishlash qonunlari, teleko'rsatuv olib boruvchisining mahorati; televideniye da format tushunchasi; televideniye da dasturlash tamoyillari; translyatsiya; televideniye da ishlab chiqarish ishi, ko'rsatuvni efirga tayyorlash jarayonini loyihalash; televideniye ni reproduktiv va rekreativ o'ziga xosligi; shov – shuv va shouning samarasi, PR tushunchasi, tijoriy televideniye; mustaqil ishlar.

Radio tarixi va radio jurnalistika, radio intervyu, radio reportaj (voqeyiy, muammoli), radio sharh, radio suhbat (ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy, fan, madaniyat va san'at haqida); radio hisobot, radio ocherkni (ijodiy portret, yo'l xabarlari, muammoli) olib borish; radio felyeton; radio tilning o'ziga xosligi; xorijiy davlatlar uchun eshittirishlar.

Teleradio boshlovchilik mahorati: zamonaviy jamiyatda teleradio o'rni va ahamiyati; mustaqillik yillarida o'zbek tele radiosi; tijoriy televideniye va radio; radio diktora va olib boruvchi; televideniye diktora va olib boruvchisi; televideniye

va radioda tomoshabin va tinglovchilarga materiallarni yetkazishni spetsifikasi va o'ziga xosligi; ko'rsatuv va eshittirish matni bilan ishlash diktora va olib boruvchining asosiy vazifasi; diktora va olib boruvchi faoliyatida umumiylik va o'ziga xoslik; diktora va olib boruvchi; jurnalist (san'atshunoslik) – olib boruvchi davr talabi; radio FMdagi radio boshlovchilar.

Nazorat savolari

1. Amerika Qo'shma Shtatlarida kino va teatr mutaxassislari qanday o'qitiladi?
2. Tanlov ta'limi va kredit sistemasi nima?
3. Hindiston kinoindustriyasi mutaxassislari qanday tayyorlanadi?
4. Art xaus, meynstrim, mualliflik kinosi tushunchalari haqida nimalar bilasiz?
5. Kino san'ati va kino sanoati: umumiylik va o'ziga xosliklari borasida mulohazalaringiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent –Ma'naviyat, 2006.
2. A.Avloniy. Tanlangan asarlar.Toshkent –Ma'naviyat, 2006.
3. Ismoilov E. Mannon Uyg'ur.G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, T.1983.
4. Rahmonov M. Hamza. (O'zbek davlat akademik drama teatri tarixi.) Birinchi kitob (1914 – 1960 yillar). – T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
5. Rahmonov M., To'laxo'jayeva M. T., Muxtorov I. A. O'zbek milliy akademik drama teatritarixi. – T., 2003.
6. Qodirov M. O'zbek teatri tarixi.Ijod dunyosi nashriyot uyi, T: 2003Tursunboyev S. Teatr tarixi. – T.: Bilim, 2005.
7. To'laxo'jayeva M. Teatr tanqidchiligi. "San'at" jurnali nashriyoti,T; 2015.

3-mavzu. San'atshunoslikning rivojlanish tendensiyalari


Reja:

- 3.1. San'atshunoslikda zamonaviy tendensiyalarning namoyon bo'lishi.
- 3.2. San'atning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni.
- 3.3. San'atshunoslik fanining oliy ta'lim tizimidagi o'rni.

Tayanch iboralar: san'at, tendensiya, ehtiyoj, talab, konsepsiya, kontingent, tomoshabin auditoriyasi.

3.1. San'atshunoslikda zamonaviy tendensiyalarning namoyon bo'lishi.

San'atshunoslikning zamonaviy tendensiyalari bugungi kun amaliyotida yangi tushuncha emas, balki allaqachon, san'atshunoslikning dolzarb masalalaridan biriga aylanib ulgurgan. San'atshunoslikning zamon bilan hamnafas shakllanishda davom etib kelayotgan yo'nalish va tendensiyalarini tahlil qilish orqali, xozirga zamon san'atlarining mazmun mohiyati va taraqqiyot omillarini aniqlash mumkin.



Mavzuni yoritish mobaynida bir qator milliy adabiyotlar bian yonma-yon, "Teatr tanqidchiligi. Jurnalistika san'atidan darslik" xorijiy adabiyot materiallaridan ham foydalaniladi. Unda AQSH san'at jurnalistikasi tarixi, tadrijiy rivojlanishi

hamda istiqboli bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar, kuzatuvlar, tasavvuriy va qiziqarli maqolalar tadqiq etiladi.

Teatrdagi postanovkalar tomoshabinlarni o‘ziga jalb qilish uchun estetik hamda mahoratning o‘zaro uyg‘unligi asosida izchil ishlab chiqarishni ifodalashi kerak. Jurnalistika san’atining barcha shakllarida ishtirok etish uchun ushbu qo‘llanmada tanqidiy fikrlash hamda tanqidchilik ko‘nikmalarini oshirish vositalari kiritilgan. Ushbu kitob tanqidchilik, jurnalistika sohasida faoliyat olib borishni xohlagan yoki o‘z ustida, ushbu sohada chuqur malaka kasb etishni istovchilar hamda teatr tanqidchiligi va jurnalistika san’ati yo‘nalishida tahsil oluvchi kollej talabalariga mo‘ljallangan. Qo‘llanma juda qulay tarzda zamonaviy jarayonlarni o‘zida mujassam etgan holda, mavzularni batafsil va muxtasar ifodalagan tarzda misollar bilan boyitilib nashr etilgan”³.

Shu bilan ushbu qo‘llanma san’atshunoslikda marketing talabni qondirishga qaratilgan faoliyat va marketingini talab maqsadini, shu bilan birga kerakli marketing strategiyasini tanlashga imkon beradi. Bir necha talab darajasini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. “San’atshunoslik nazariyasi va amaliyoti evolyusiyasi. Filip Kotler san’at sohasiga taalluqli tarafdorlaridan birinchisi bo‘lib, san’at sohasidagi tashkilotlar “madaniy mahsulot” ishlab chiqadi, hamda san’at istyemolchilari diqqat-e’tiborini jalb etish va milliy resurslarni taqsimlashda bir biri bilan raqobatlashadi, degan fikrni olg‘a surgan (Kotler, 1975). Keyinchalik esa ilmiy tadqiqotchilari badiiy ehtiyojlari ostida shakllangan ijodiy ifodani majbur qilishi oqibatida vujudga keladigan tangliklarni o‘rgana boshlaganlar”⁴.

San’atshunoslikning o‘ziga xos qirralari, rivojlanish tendensiyalari uning subyekt va obyektlaridagi o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi. Subyektlariga san’at mahsuli yaratuvchilari, vositachilar va istyemolchilar kirsa, obyektlarini esa san’at mahsuli, tashkilotlar, shaxslar tashkil etadi. Aynan xorijiy manbalarni o‘rganish,

³Bob Abelman and Cheryl Kushner
A Theater Criticism/Arts Journalism Primer: Refereeing the Muses

qiyosiy tahlil qilish orqali san'atshunoslikning bugungi qiyofasi, rivojlanish tamoyillari va istiqboli o'rganiladi.

Qadimgi Yunonistonda buyuk fojeaviy shoirlar asarlarini tarkibiy bo'laklarga bo'lib tahlil qilish – “Shoh Edip”, “Elektra”, “Antigona”, “Medeya”; qadimgi Rim dramaturgiyasi; Plavt dramaturgiyasi; qadimgi Rimda teatr binolari va sahna san'ati; Uyg'onish davri italyan teatri: “komedi del arte”; K. Marlo dramaturgiyasi; Lope de Vega dramaturgiyasi xususiyatlari va o'ziga xosligi: uning asosiy pyesalarini tarkibiy bo'laklarga bo'lib tahlil qilish; Shekspir asarlarini tarkibiy bo'laklarga bo'lib tahlil qilish; uning dramaturgiyasidagi quyidagi xususiyatlarni aniqlash va ochish: mavzu, g'oya, xarakter, konflikt, kompozitsiya, janr; “Globus” teatri;

Fransuz klassitsizmi teatri: P. Kornel va Molyer pyesalarini tarkibiy bo'laklarga bo'lib tahlil qilish: mavzu, g'oya, obrazlar tavsifi; klassitsizm ijro prinsiplari; D. Didro va uning “Aktyorlik haqida paradoks” risolasi;

Angliyaning bosh teatri – Druri Leyn teatri; D. Garrikning aktyorlik va rejissyorlik faoliyati; Bomarshe, F. Shiller, K. Goldoni, K. Gotssi pyesalarini tarkibiy bo'laklarga bo'lib tahlil qilish: syujet qurilishi, konfliktlar, xarakterlar kompozitsiya; fransuz aktyorlik san'atida Mari Dyuminil, Ippolita Kleron va Anri Lui Lekening o'rni; Gyugo nazariy ishlarining tahlili (“Kromvel”ga kirish so'zi); F. Talma, F. Lemetr – buyuk fransuz aktyorlari; O. Balzak, Bayron, K. Guskov pyesalarini tarkibiy bo'laklarga bo'lib tahlil qilish; E. Kin – buyuk ingliz aktyori; E. Zolyaning “Teatrd naturalizm” maqolasi; “Komedi Fransez” teatri; Sara Bernar – buyuk fransuz aktrisasi; A. Antuan – professional rejissura asoschilaridan biri ekanligi; A. Stridbergning “Zamonaviy drama haqida va zamonaviy teatr haqida” risolasi; ikki asr oralig'ida xorijiy dramaturgiya yo'nalishlari – romantizm, simbolizm, naturalizm, tanqidiy realizm haqida ma'ruzalar; E. Zolya, E. Rostan, M. Meterlink; G. Ibsen; A. Stridberg; G. Gauptman pyesalari tahlili.

Meyningemchilar teatri. M. Reynxardt buyuk nemis rejissyori; T. Salvini buyuk italyan aktyori; E. Duze – buyuk italyan aktrisasi; tarkibiy bo'laklarga bo'lib tahlil qilishga: J. Anuy; J. Sartr, O. Uayld; B. Shou, D. Osborn, B. Brext, L. Pirondello, E. de. Filippo, Y. Nil, T. Uilyams, E. Olbi; ingliz rejissyor va aktyori G.

Irving va “Litseum” teatri; buyuk ingliz rejissyori G. Kreg; “Old Vik” teatri; buyuk ingliz aktyorlari L. Olivye va J. Gilgud; B. Brext va epik teatri; B. Brext va “Berlin ansambli” teatri; YE. Vaygel buyuk nemis aktrisasi; fransuz absurd teatri va Ionesko, S. Bekket dramaturgiyasi; P. Bruk – buyuk ingliz rejissyori; J. Streler – buyuk italyan rejissyori; rus dramaturglari A. Pushkin, A. Chexov, L. Tolstoy, A. Arbuzov, V. Rozov, A. Volodin, E. Radzinskiy, A. Vampilov pyesalarini tarkibiy bo‘laklarga bo‘lib tahlil va muhokama qilish; rus rejissyorlik yo‘nalishlarini o‘rganish: A. Ostrovskiyning rejissyorlik o‘ylari; Lenskiyning rejissyorlik urinishlari; K. Stanislavskiy – buyuk aktyor va rejissyor; Nemirovich – Danchenko – buyuk aktyor va rejissyor; Meyerxold – buyuk aktyor va rejissyor; A. Tairov – buyuk rus rejissyori; Vaxtangov – buyuk rejissyor; Y. Zavadskiy – buyuk aktyor va rejissyor; S. Mixoels – buyuk aktyor va rejissyor; G. Tovstonogov – buyuk rus rejissyori; R. Simonov – buyuk aktyor va rejissyor; K. Marjenov – buyuk aktyor va rejissyor; A. Popov – buyuk aktyor va rejissyor; M. Zaxarov – buyuk rus rejissyori; O. Yefremov – buyuk aktyor va rejissyor; O. Yefremov va “Sovremennik” teatri; O. Yefremov va MXAT teatri; Y. Lyubimov va Tagankadagi teatr; A. Efros va Maliy Bronniydagi teatr; G. Volchek va “Sovremennik” teatri; ozarbayjon teatri buyuk rejissyor va aktyorlari; tatar teatri buyuk rejissyor va aktyorlari; qozoq teatri buyuk rejissyor va aktyorlari; qirg‘iz teatri buyuk rejissyor va aktyorlari; tojik teatri buyuk rejissyor va aktyorlari; turkman teatri buyuk rejissyor va aktyorlari. Radiospektakllarga aktyorlar tanlash; o‘zbek radioteatri rejissyorlari: N. Do‘stxo‘jayev, D. Shokirov, J. Toshxo‘jayev, Sharif Qayumov va boshqalar;

Tele teatr, badiiy ko‘rsatuvlar – teledastur asosi, televideniya muallif o‘rni; teleradioda rejissyor funksiyasi; televideniya rejissyor va rassom hamkorligi; badiiy ko‘rsatuvda teleoperator o‘rni; teatr spektakllari va konsert dasturlarini to‘g‘ridan – to‘g‘ri translyatsiyasi; spektakllarni yozish va montaj; teleteatr yuzaga kelishi; televideniya bir aktyor teatri (U. Burhonov, M. Hamidov); teleminiaturalar teatri (to‘g‘ridan – to‘g‘ri ko‘rsatuv); teleteatr adabiy materiali; teleteatrning o‘ziga xos xususiyatlari; teleteatr va kinofilmning umumiy va o‘ziga xosligi; badiiy asar insseniroykasi; ssenariy muallifi va muharrir; tele teatr uchun

yozilgan maxsus ssenariy; tele teatrda aktyor; televideniya mizansahnalar san'ati; elektron montaj; teleseriallar va zamonaviy o'zbek teleseriali.

A. Fitrat "Temur sag'anasi" va uning sahnaviy talqini; Hamza va M. Uyg'urning teatr tashkilotchilik faoliyati; o'zbek musiqali teatrning yuzaga kelishi va birinchi qadamlari; 20 yillarda o'zbek teatr rejissurasi; 20 yillarda aktyorlik san'ati; 30 – 50 yillarda o'zbek teatri; dramaturgiya, rejissyorlik va aktyorlik san'ati; o'zbek sahnasida xorij klassikasi talqini; 60 – 80 yillarda o'zbek teatri: o'zbek sahnasida an'ana va transformatsiya muammolari: M. Uyg'ur, YE. Bobojonov, J. Obidov, A. Ginzburg, R. Hamroyev, N. Ladigin, T. Xo'jayev, E. Masafayev, B. Yo'ldoshev, R. Hamidov, O. Salimov, N. Abdurahmonov va boshqalar ijodi.

Mustaqillik davrida o'zbek teatri va dramaturgiyasi tarixiy mavzuda izlanishlar, zamonaviy mavzularda izlanishlar, mustaqillik davrida N. Abdurahmonov teatri, mustaqillik davrida "Ilhom" teatri; mustaqillik davrida O'zbekiston qo'g'irchoq teatri tarmoqlarining kengayishi; viloyat teatrlari tarmoqlarining o'ziga xos xususiyatlari va muammolari; O'zbekiston milliy akademik drama teatri; yangi yechim va talqin izlanishlari; T. Azizov rejissurasi va folklor teatri boshlanishi va muvaffaqiyati; Milliy teatrda taklif qilingan rejissyorlar ijodi; mustaqillik davrida V. Umarov ijodiy faoliyati; Dramaturgiya: S. Imomov, H. Rasul, S. Sirojiddinov, E. Xushvaqtov, X. Xursandov va boshqalar.

Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi va teatrning dolzarb muammolari: XX asrda o'zbek dramaturgiyasi va teatrning rivojlanish muammolari; ijtimoiy taraqqiyot nuqtai nazaridan mustaqillik davrida dramaturgiya va teatr; progressiv izlanishlarga o'zbek teatrining ochiqqligi; mustaqillik davrida o'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotining o'ziga xos shakllari; bozor iqtisodiyoti va teatr san'ati; oxirgi yillardagi teatr ko'riklari, festivallar; O'zbekiston Prezidentining respublika teatrlarini rivojlantirish haqidagi 26 mart 1998 yildagi farmoni ahamiyati; mustaqillik davrida teatr tanqidchiligi; teatr va repertuar; teatr va OAV; spektakl badiiy yaxlitligi muammolari; dramaturgik janrlar muammolari; o'zbek rejissura va dramaturgiyasida an'analar va transformatsiya muammolari; teatr, tomoshabin va moliyaviy natijalar; bolalar va o'smirlar teatri va dramaturgiya: yutuq va

muammolar; badiiy va musiqiy yechim muammolari; myuzikl rivojlanishi muammolari; aktyorlarning rol yechimida estetik axloqiy muammolari; “kechinma san’ati” va “namoyish san’ati” o’rtasidagi bahsning davom etishi; mustaqil rivojlangan O‘zbekistonda san’at, shulardan teatrning uzluksiz rivojlanayotganligi;

Teatr, umuman san’at va madaniyat bo‘yicha qonunchilik asoslari; tashkilotlarning faoliyatidagi tashkiliy – boshqaruv va iqtisodiy xususiyatlar; huquq va mehnatni ilmiy tashkil qilish asoslari; teatrning tashkiliy tizimi va tarkibiy bo‘linmalari; ijodiy va ishlab chiqarish jarayonlarini yaxlitlikda tashkil etish; teatr faoliyatini rejalashtirish; joriy repertuar prokatini rejalashtirish va tashkillashtirish; teatrn moliyalashtirish va ta’minot masalalari; mehnatni tashkillashtirish va rag‘batlantirish; targ‘ibot, axborot va reklama faoliyati.

O‘zbekiston jurnalistlari uyushmasi; axborot manbalarining tuzilishi va huquqiy asoslar; jurnalist axloqi va xulqi; matbuotning asosiy funksiyalari; publitsistika janrlari; korrespondensiya, ochiq xat, xabar, axborot, pamflet, parodiya, epigrama, ocherk, muammoli maqola va boshqalar.

Muharrirlik faoliyati: muharrirga qo‘yiladigan asosiy talablar gazeta muharriri va uning majburiyatlari; san’at sohasini yorituvchi gazetalar muharrirlari faoliyati; jurnal muharriri majburiyatlari; san’at sohasini yorituvchi muharrir majburiyatlari; radio muharrir ko‘rsatuvlari va uning majburiyatlari; san’at sohasini yorituvchi radio muharrirlar majburiyatlari; teleko‘rsatuv muharrirlarining asosiy majburiyatlari; san’at bo‘yicha ko‘rsatuvlar muharrirlarining majburiyatlari; nashriyot muharrirlarining majburiyatlari; nashriyotlarning san’at bo‘limlari muharrirlari majburiyatlari.

Noshirlik ishi: 1868 yili Turkistonda kitob nashriyoti va bosmaxona yuzaga kelishi; O‘rta Osiyoda kitob nashr qilish va tarqatishda toshbosmani o‘rni va ahamiyati;

O‘zbekistonda noshirlik ishi yuzaga kelishi va rivojlanishi; noshirlik ishini zamonaviy holati; Respublikaning asosiy nashriyotlar faoliyati; “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti; “CHo‘lpon” bolalar va o‘smirlar nashriyoti; “O‘zbekiston” ijtimoiy – siyosiy adabiyotlar

nashriyoti; “O‘qituvchi” (darslik va o‘quv qo‘llanmalar) nashriyoti va boshqa; o‘zbek kitob nashirligida mashhur arboblari: J. Sharipov, R. G‘afurov, S. Orzumetov; V. Valiyev, M. Ibrohimov, N. Xotamov, S. Yunusov, A. Mirzayev, H. G‘ulom, Oybek, H. Olimjon, M. Normatov va boshqalar.

“O‘qituvchi”, G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at hamda “O‘zbekiston” nashriyotlari misolida nashriyot va uning muharririyatlari: nashriyot rejasini; nashriyot rejasini tuzishda marketing tadqiqotlari; bozor iqtisodiyoti sharoitlarida nashriyotlar faoliyati; nashriyotlar tuzilmasi (strukturasi); nashriyot direktori va uning majburiyatlari; nashriyot bosh muharriri; nashriyot bo‘lim muharriri; ishlab chiqarish bo‘limi; qo‘lyozma ustida muallifni ishlash jarayoni; qo‘lyozma ustida nashriyot muharririyatlari ishlash jarayoni; nashriyotda rassom, texnik muharrir va kitob nashr qilishdagi boshqa ishtirokchilar; nashriyotda kompyuter texnologiyasi, kompyuter grafikasi; kitob nashr qilish jarayoni; kitobxonlar bilan aloqalar va nashriyotlar faoliyati yuzasidan sotsiologik tadqiqotlar.

Rejissyorlik va aktyorlik san‘ati asoslari yagona, garmonik yaxlit badiiy asarni yaratish san‘ati; rejissyorning aktyor bilan ijodiy muloqoti – rejissuraning asosiy metodi sifatida; rejissyorning asosiy vazifasi aktyorni ilhomini uyg‘otish va ijodiy izlanishlarni kerakli o‘zanga yo‘naltira olish; spektakl yoki kinofilm tayyorlash jarayonida, shuningdek ijodiy jamoalarda rejissyor yagona ijodiy tarbiyachi va tashkilotchi ekanligi haqida; rejissyor spektakl muallifi sifatida; aktyor sahnaviy tomoshaning bosh ishtirokchisi; pyesa g‘oyasi va fikrining (zamisli) aktyor orqali tomoshabinga yetib borishi; kechinma san‘ati yo‘li bilan ijodiy holatga kirish aktyorlik mahorati asosi; o‘zaro va teran hamkorlikdagi murakkab ijodiy jarayonning ikki tomoni sifatida ichki va tashqi kechinma tushunchasi; aktyorlik san‘atining ifoda vositalari: - faktura, ovozdan foydalanish ko‘nikmasi, so‘z san‘ati, jismoniy harakat, plastiklik va boshqa. Aktyor san‘atida so‘z muhim ta’sir vositasi.

Kino va teleradio montaj tarixi; televizion signal; standartlar va sistemalar; montaj texnikalari; montaj qog‘ozini tayyorlash; montaj jarayoni; suxandon matnini yozish; musiqani yozish; titr yozish; elektron va boshqa effektlar, bezaklar; kompyuter grafikasida montaj.

XIX– XX asrlarda xorijda Yevropa dramasi; XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropada siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot taraqqiyotining o‘ziga xosligi; Fransiyada dramaturgiya rivojlanishining tendensiyalari; skandinav mamlakatlari dramaturgiyasining rivojlanish yo‘nalishlari; Germaniya dramaturgiyasining rivojlanish tendensiyalari; XX asrda Yevropa va AQSH dramaturgiyasi; XX asr dramaturgiyasida badiiy oqimlar, Fransiyada falsafiy – intellektual drama g‘oyalarining paydo bo‘lishi; Angliya dramaturgiyasining asosiy rivojlanish yo‘nalishlari; nemis dramaturgiyasining asosiy rivojlanish yo‘nalishlari; italyan dramaturgiyasining asosiy rivojlanish yo‘nalishlari; AQSH dramaturgiyasi;

XVIII – XIX asrlar rus dramaturgiyasi: rus dramaturgiyasi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari; XX asr rus dramaturgiyasi va uning rivojlangan asosiy yo‘nalishlar; o‘zbek dramaturgiyasi: yuzaga kelishidan 90 yillargacha, mustaqillik davri dramaturgiyasi va uning asosiy o‘ziga xosliklari;

Dramaturgiya tarixidan: qadimgi Yunonistonda buyuk fojeiy shoirlar asarlarini tarkibiy bo‘laklarga bo‘lib tahlil qilish – “Shoh Edip”, “Elektra”, “Antigona”, “Medeya”; Lope de Vega dramaturgiyasi xususiyatlari va o‘ziga xosligi: uning asosiy pyesalarini tarkibiy bo‘laklarga bo‘lib tahlil qilish; Shekspir asarlarini tarkibiy bo‘laklarga bo‘lib tahlil qilish; uning dramaturgiyasidagi quyidagi xususiyatlarni aniqlash va ochish: mavzu, g‘oya, xarakter, konflikt, kompozitsiya, janr; Molyer pyesalarini tarkibiy bo‘laklarga bo‘lib tahlil qilish: mavzu, g‘oya, obrazlar tavsifi; Bomarshe, F. Shiller, K. Goldoni, K. Gotssi pyesalarini tarkibiy bo‘laklarga bo‘lib tahlil qilish: syujet qurilishi, konfliktlar, xarakterlar kompozitsiya; Gyugo nazariy ishlarining tahlili; O. Balzak, Bayron K. Guskov pyesalarini tarkibiy bo‘laklarga bo‘lib tahlil qilish; E. Zolyaning “Teatrdagi naturalizm” maqolasi; A. Stridbergning “Zamonaviy drama haqida va zamonaviy teatr haqida” risolasi; ikki asr oralig‘ida xorijiy dramaturgiya yo‘nalishlari – romantizm, simvolizm, naturalizm, tanqidiy realizm haqida ma’ruzalar; E. Zolya, E. Rostan, M. Meterlink; G. Ibsen; A. Stridberg; G. Gaupman pyesalari tahlili; tarkibiy bo‘laklarga bo‘lib tahlil qilishga: J. Anuy; J. Sartr, O. Uayld; B. Shou, D. Osborn, B. Brext, L. Pirondello, E. de. Filippo, Y. O’Nil, T. Uilyams, E. Olbi, rus

dramaturglari A. Pushkin, A. Chexov, L. Tolstoy, A. Arbuzov, V. Rozov, A. Volodin, E. Radzinskiy, A. Vampilov pyesalarini tarkibiy bo‘laklarga bo‘lib tahlil va muhokama qilish.

Fitratni “Abulfayzxon”, Uyg‘un va I. Sultonni “Alisher Navoiy”, Shayxzodani “Mirzo Ulug‘bek”, H. Olimjonni “Muqanna” kabi o‘zbek dramaturgiyasining eng sara asarlarni tahlil qilish.

3.2. San‘atning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o‘rni.

Jamiyat rivoji va ma‘naviy hayotida san‘atning o‘rni va san‘atkor mas‘uliyati masalalari. Hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan bo‘lgan ma‘naviy, mafkuraviy va axborot xavfsizligining mazmun-mohiyati.

San‘atda yuz berayotgan jarayonlarni nozik his qilish; san‘atning barcha taraqqiyot davri va ijodiy yo‘nalishlardagi turli xil janr, shakl va uslublarini malakaviy asosda farqlash; turli xil san‘at voqeliklarini tahlil etish va umumlashtirish; san‘at voqeliklariga badiiy-estetik baho bera olish; axborotni yig‘ish, tizimlash, umumlashtirish va foydalanish hamda ixtisoslik bo‘yicha ilmiy-tadqiqiy izlanishlar olib borish, mutaxassislikka oid matnlarni, barcha turdagi san‘at asarlarini tahrir qilish va ularga taqriz berish; adabiy manbani sahna asariga aylanish masalasi: rejissyorlik talqini, aktyor ijrosi, sintez, mavzu, g‘oya yechimi masalalarini og‘zaki va yozma tahlil qilishda zamonaviy yondashuv va tamoyillar. Bunda boshqa gumanitar fanlar va san‘atshunoslik sohasidagi o‘zgarish va tendensiyalar, ularning turlari, xillari hamda o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda sohaning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga tizimli yondashuvni nazarda tutish.

San‘atning barcha turlari inson ma‘naviyati va tafakkurining kamol topishiga xizmat qiladi. Bunda, har qanday san‘at asarining bosh qahramoni bo‘lmish, inson omili ustuvorlik qiladi. Xuddi shu nuqtai nazardan, har qanday badiiy asar inson ruhiyati va dunyoqarashiga kuchli ta‘sir o‘tkaza olishi bilan jamiyat ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham har bir davr o‘z san‘ati va san‘atkorlarini yaratadi va ular o‘z davriga xizmat qiladilar. O‘zbekiston Mustaqil

davlat deb e'lon qilingach, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustivor yo'nalishi deb e'lon qilindi. Shu davrdan boshlab, milliy qadriyatlarimizga tayangan, mentalitetimizga xos milliy madaniyatimiz va san'atimizni shakllantirish, taraqqiy ettirish, targ'ib qilish va jahonga olib chiqish harakatlari boshlandi. Bunda asosiy e'tibor xalqimiz, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy yetuk, har tomonlama - ham ma'nan, ham jismonan barkamol avlod bo'lib kamolga yetishlari yo'lida xizmat qiladigan progressiv g'oyalarni o'zida mujassam qilgan badiiy barkamol san'at asarlarini yaratishga qaratiladi. Shu bilan birga, yoshlarimiz ongini zaharlovchi, milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga yot bo'lgan, buzg'unchi g'oyalar singdirilgan ommaviy madaniyat unsurlarining kirib kelishini oldini olish vazifasi ham zamonamizning eng dolzarb, global muammolaridan bo'lib qoldi. Yoshlarimiz dunyoqarashini izdan chiqaruvchi asarlarning paydo bo'lishi va targ'ib qilinishini to'xtatish va oldini olishda ayniqsa san'atshunos mutaxassislarning fuqarolik burchi va mas'uliyati yuqori ekanligi ayni haqiqatdir.

Xorijiy tilni o'qitish va o'rganishdagi islohotlar. Til bo'yicha Yevropa standarti va uning talqini. Til aloqa (kommunikatsiya) vositasi sifatida va tilga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish usullari. Tilni o'rganishda muvaffaqiyatga erishish shart-sharoitlari: kasbiy interaktiv muloqot muhiti, muloqot klublarini tashkil etish, o'zining til ko'nikmalari darajasini baholash va boshq. Xorijiy tilni o'rganishda grammatikaning ahamiyati (grammatika va leksika-V1-V2 oralig'ida). Til o'rganishda o'qituvchi va o'rganuvchilarni roli. Til o'rganish uchun zarur o'quv-audio, metodik va onlayn resurslar Tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatini bilishning ahamiyati. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi (o'zbek va xorijiy tilda so'zlashuvchi xalqlar madaniyati, urf-odatlari, an'analari haqida chet tilida gapira olish).

Muloqot mavzulari: kundalik hayotga oid (shaxsiy ma'lumot, oila haqida ma'lumot, bo'sh vaqtni o'tkazish va hokazo) ijtimoiy hayotga doir, ta'limga va kasbga yo'naltirilgan mavzular.

Mutaxassislikka oid matnlarni o‘qish, ularni tushuna olish, og‘zaki bayon eta olish, o‘z fani bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etishda sohaga oid xorijiy tildagi atamalardan foydalanish. Oliy ta‘lim tizimini modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari. Innovatsion ta‘lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari, innovatsion jarayonlarning kechish bosqichlari. Pedagogik texnologiyaning tasnifi, qonuniyatlari, tamoyillari va mezonlari. Ta‘lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish asoslari.

Oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etishning innovatsion shakl, metod va vositalari.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalarining mazmuni, yo‘nalishlari. Ta‘lim oluvchilarning bilish faolligini oshirish va mustaqil ta‘limini tashkil etish asosidagi innovatsion ta‘lim texnologiyalari: amaliy o‘yinlar, muammoli o‘qitish, interfaol ta‘lim, modulli-kredit tizimi, blended learning (aralash o‘qitish), case study (keys stadi), masofali o‘qitish, mahorat darslari, vebinar texnologiyalari, assisment metodlaridan o‘quv-tarbiya jarayonida foydalanish. O‘quv loyihalarini ishlab chiqish, portfoliolarni shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish.

Pedagog kasbiy kompetentligining tuzilishi va mazmuni. Pedagogning psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion kompetentligi mazmun-mohiyati. Pedagogik mahorat asoslari va tarkibiy qismlari. O‘qituvchining kommunikativ kompetentligi, pedagogik jarayonda muloqot uslublarini to‘g‘ri tanlash va ulardan samarali foydalanish. Pedagogik deontologiY. Nutq texnikasi va madaniyati. Auditoriyada shaxslararo munosabatlarni samarali tashkil etish va guruhni optimal boshqarish. Pedagogik nizolarni samarali hal etish yo‘llari. Zamonaviy pedagog imidji hamda o‘qituvchining o‘z-o‘zini kasbiy va shaxsiy takomillashtirib borishi.

Kreativlik - pedagogik ijodkorlikning asosi sifatida. Oliy ta‘lim pedagog kadrlarining kreativ potentsiali tushunchasi va mohiyati. Pedagoglarda kreativ kompetentlikni shakllantirishning zaruriy shart-sharoitlari, modellari. Kasbiy faoliyatda pozitiv-faol motivatsiya va pedagog kadrlarning kreativ potentsialini

baholash mezonlari. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida pedagog kadrlar kreativ imkoniyatlarini baholash mezoni.

San'at – insoniyat badiiy falsafiy tafakkurining mevasidir. Shu bois unga bo'lgan inson ehtiyoji aslo so'nmaydi. Insoniyat madaniy taraqqiyoti zamondan zamonga qarab o'sib, rivojlanib borar ekan, san'atga bo'lgan ehtiyoj ham shunga monand muttasil o'sib boradi. Zamon taqozosi va talabi sifatida yangi turlar, yangi janrlar paydo bo'laveradi. San'atkor badiiy tafakkuriga, ijro mahoratiga, san'atning badiiy-falsafiy, ijtimoiy-tarbiyaviy asoslariga bo'lgan talablar ham muttasil o'sib boraveradi. Ikkinchidan, san'at muxlislarining, demakki, keng xalq ommasining san'atdan badiiy-estetik zavq olishga intilishi asnosida uning san'at turlari xususiyatlarini anglashga, san'atkorlar hayoti, ijodi, mahoratlarining o'ziga xos tomonlarini, imkoniyat darajalarini, san'atlar taraqqiyoti jarayonlaridagi yutuqli va muammoli tomonlarini bilishga intilishi azaldan yuksak darajada bo'lgan. Shu bois, bugungi axborot-kommunikativ imkoniyatlar oshgan, globallashuv jadallashgan bir sharoitda bu masala yanada o'tkirlashib ham badiiy-ijtimoiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy dolzarblik ko'rsatmoqda. Har ikkala jarayonning garmonik tarzda borishi va rivojlanishini ta'minlashda, ayniqsa, san'at asarlari orqali milliy mentaletimiz va ma'naviyatimizga yot, buzg'unchi g'oyalarning yurtimizga kirib kelishini oldini olishda juda ko'p omillar qatori san'atshunoslikning o'rni va mas'uliyati ham yuqori bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingach, milliy qadriyatlarni tiklash va ularni Istiqlol davri talablari asosida rivojlantirish dramaturglar, san'at ahlining asosiy vazifalaridan bo'lib qolgani, yaratilgan imkoniyatlar tufayli dramaturgiya va sahnamizda Amir Temur, Mirzo Bobur, Ismoil al Buxoriy, Ahmad Yassaviy kabi tarixiy siymolar obrazlarining paydo bo'lishi, ayniqsa so'nggi yillarda milliy san'atimizning barcha turlarida mustaqilligimizni mustahkamlashga beqiyos xissa qo'shib kelayotgan ilg'or, fidoiy zamondoshlarimiz obrazlarini yaratish borasidagi qizg'in harakatlar e'tiborga loyiqdir.

3.3. San'atshunoslik fanining oliy ta'lim tizimidagi o'rni.

Teatr – millat ma’naviyati, ongi va dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qiluvchi, xalqning asriy qadriyat va an’analarini mujassam etuvchi beqiyos san’at. Sahnada yaratilgan badiiy obraz o‘zining jonliligi, estetik ta’sirchanligi, milliy va umuminsoniy mohiyati bilan tomoshabin ruhiyati, histuyg‘ulariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ma’naviy kamolotida teatrning bu kabi imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ezgu g‘oya va tushunchalarni sahna san’ati orqali targ‘ib qilish, shu yo‘l bilan ularda yot g‘oyalar va global tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitet hosil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan madaniy hayotimizning barcha jabhalari qatori teatr san’ati rivojiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Poytaxt va viloyatlardagi teatr binolari kapital ta’mirlanayotgani, teatr jamoalarining yurtimiz va xorij bo‘ylab gastrol safarlari tashkil etilayotgani, sahna san’atiga bag‘ishlangan turli festival va anjumanlar o‘tkazilayotgani fikrimizning yorqin dalilidir. 2017 yilning 3 avgust kuni Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev yurtimizning ijodkor ziyolilari, adabiyot va san’at namoyandalari bilan uchrashib, bevosita ijodiy sohalarida yig‘ilib qolgan muammolarni atroflicha tahlil qildi, ularni bartaraf etish yuzasidan taklif-mulohazalarini bildirdi. “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusidagi mazkur muloqotda mamlakatimizda adabiyot, teatr, kino, musiqa, tasviriy san’at va boshqa ijod turlarini rivojlantirish bo‘yicha dolzarb fikrlar o‘rtaga tashlandi, ochiq va samimiy ruhda o‘tgan tadbir yig‘ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Yig‘ilishda Prezidentimiz teatr san’atidagi mavjud muammolarga ham alohida to‘xtalib o‘tgan edi: “Aksariyat teatrlarimizning repertuarlari g‘oyaviybadiiy jihatdan nochor, ulardan o‘rin olgan spektakllarda bugungi kun nafasi, odamlarni o‘ylantirayotgan, hayajonga solayotgan jiddiy ijtimoiy muammolar o‘z aksini topmayapti.

Afsuski, teatrlarimiz ko‘proq maishiy mavzulardagi yengil-yelpi, bachkana asarlar, odamga na ma’naviy oziq, na estetik zavq beradigan tomoshalarni namoyish etishga o‘rganib qolgan”. Mazkur tanqidiy mulohazalardan xulosa chiqargan holda

aytish kerakki, teatrlarimizning repertuarini badiiy-gʻoyaviy jihatdan yuksaltirish, davrimizning muhim ijtimoiy masalalarini sahna asarlari orqali ifodalash teatr ijodkorlari zimmasidagi asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida sanʼat turlari oʻrtasida oʻzaro taʼsir, madaniy universallashtirish jarayonlari sodir boʻlmoqda. Xususan, buni teatr sanʼati misolida ham kuzatish mumkin. Biz mazkur maqolada adabiyot va teatrning bir-biriga taʼsiri, sintezlashish hodisasini ilmiy tahlil qilishni maqsad qildik.

Dramatik turga mansub boʻlmagan har qanday asarni sahna qonuniyatlari va talablariga moslashtirish, sodda aytganda, pyesa holiga keltirish teatr nazariyasida “inssenirovka” deb ataladi. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” da inssenirovka atamasiga shunday taʼrif beriladi: “Inssenirovka” lotin tilidan tarjima qilinganda, “in” – “ichida”, “scena” – “sahna” degan maʼnoni anglatadi. Biror asarni sahnabop qilish oʻzgartirish, sahnada qoʻyish va sahnalashtirilgan asarning oʻzi. Sohaga doir manbalarda ayni tushuncha batafsil sharhlanadi: “Inssenirovka – dramatik boʻlmagan asarning teatr uchun qayta ishlanishi. U adabiy asar motivlari asosida yozilishi bilan pyesadan farqlanadi (Buyuk ingliz dramaturg Uilyam Shekspir ham oʻz asarlarida Oʻrta asrlarda yaratilgan novella va qissalarni qayta ishlagan). Inssenirovka badiiy mustaqil asar boʻlib, asl manbaning gʻoyasi, syujeti va uslubini asarning ijodiy yaxlitligini inkor etmagan holda qayta yaratadi”.

Teatr badiiy adabiyotga, xususan, nasriy turga qachondan ehtiyoj seza boshlagani, bu ikki sanʼat oʻrtasidagi dialektik bogʻliqlik qaysi davrda shakllangani haqida adabiyot va teatr nazariyotchilari turli fikrlar bildirgan. Barcha sanʼatlarning ibtidosida soʻz turishini inobatga olsak, teatr ham azaldan adabiyotdan quvvat olib, oʻz qaddini tiklagani maʼlum boʻladi. “Adabiy asarlarni inssenirovka qilish bilan bogʻliq dastlabki tajribalar Oʻrta asrlarga borib taqaladi” – deb yozadi teatr va drama nazariyotchisi I.Chistyuxin. – “Gʻarbda cherkov xizmati mehrob oldida aytiluvchi diniy matnning taʼsirchanligi va ifodaviylikini kuchaytirish maqsadida dramatik elementlarni kiritishga ruxsat bergan. Misteriya (Oʻrta asrlarda cherkovda keng tarqalgan diniy mavzudagi drama) mualliflari aniq epizodlarni saralab cherkov marosimlari uchun inssenirovka qilishgan.

Sharq mamlakatlari teatrining shakllanishida esa xalq og‘zaki ijodi, xususan, epos va dostonlar, afsonayu miflar asosiy manba vazifasini bajargan. Bu jarayonni ham adabiyot va teatr o‘rtasidagi uzviylik bilan izohlash mumkin. Masalan, hind mumtoz teatrini “Ramayana” va “Mahobharat” dostonlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Har ikkala epos millat ma’naviyatining ajralmas qismi sanaladi, shuningdek, ular asosida ko‘plab dramatik asarlar yozilgan va ayni hodisa professional hind teatrining dunyoga kelishiga zamin hozirlagan. Xorijiy adabiyotlarda bir san’at turining boshqasiga ko‘chishi, uning ifoda vositalariga moslashishi “adaptation” deb ataladi. Ingliz tilidan tarjima qilinganda, bu so‘z “moslashuv”, “ko‘nikuv” degan ma’nolarni anglatadi. Keng ma’noda har qanday sharoit, vaziyatga moslashish, masalan, bir insonning boshqa muhit, iqlimga o‘rganish jarayonini ham ushbu atama bilan izohlash mumkin. Ayni vaqtda u ijodiy faoliyatga nisbatan ham ishlatiladi. Yevropa mamlakatlarida adaptation atamasi bilan bog‘liq salmoqli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Linda Xyutcheonning “Moslashish nazariyasi” nomli kitobida mazkur istilohning mazmunmohiyati, asosiy tushuncha va elementlari, nazariy xossalari haqida so‘z yuritiladi. Muallif “creative adaptation” ya’ni “ijodiy moslashuv” tushunchasini sharhlar ekan, ushbu hodisani turli media vositalar, video o‘yinlar, pop musiqasi, kino va teatr misolida tadqiq etadi, ularning ta’sir ko‘lami va ijodiy imkoniyatlarini taqqoslaydi.

Ushbu termin teatr san’ati bo‘yicha maxsus o‘rganilgan. Ko‘rsatilgan kitob “theatrical adaptation” (“teatral moslashuv”) ga doir ilmiy-nazariy va amaliy qo‘llanma bo‘lib, unda mavzuning asosiy qirralari zamonaviy teatr jarayonlari kesimida ko‘rib chiqiladi. “Teatr adaptatsiyasining zamonaviy yo‘llari” nomli ilmiy to‘plamda turli mavzu va janrdagi asarlarning sahnaviy talqinlari o‘rganiladi. To‘plamga kiritilgan maqolalarda turli davrga mansub jahon adabiyoti namunalarini inssenirovka qilish va sahnalashtirish tajribalari, asl manba va spektakl o‘rtasidagi tafovutlar, adabiy asar bilan ishlashning muhim jihatlari haqida so‘z yuritiladi. Yuqorida qayd etganimizdek, inssenirovka jarayonida nasr va dramaning o‘ziga xos xususiyatlari, ifoda vositalarini farqlash, bu ikki san’atning nazariy qonuniyatlarini

bilish spektakl taqdirini belgilaydi. Boisi bir san'at asari boshqasining tiliga ko'chadi va ushbu holatda adabiyot va teatrning sintezlashish hodisasi kuzatiladi.

“Voqealarning zichligi, dialoglarning yuzaga chiqishi dramani romandan ajratib turadigan asosiy xususiyatdir” — deb yozadi dramaturgiya nazariyasining yirik tadqiqotchilaridan biri V.Volkenshteyn. — “Dramaturgning o'ziga xos ekanini his qilgan.

Adib qalamiga mansub deyarli barcha mashhur qissayu romanlar dunyoning ko'plab teatrlarida qayta-qayta sahnalashtirilgan va sahnalashtirilmoqda. Buyuk fransuz adibi, realizm adabiyotining yirik siymolaridan biri Onore de Balzak “XIX asr fransuz yozuvchilariga maktub” nomli maqolasida adabiy asarni dramaga aylantirish haqida ancha keskin mulohaza bildiradi: “Biz kitobni o'qimoqlari uchun e'lon qilamiz, lekin uni cho'zg'ilib, qiyqimqiyqim qilib dramaga aylantirmoqlarini yoxud undan zo'rma-zo'raki vodevil yasashlarini istamaymiz. Bu har tomonlama o'ylab ko'rishga arziydigan masala”. Boshqa bir o'rinda esa adib shunday qat'iy talabni o'rta qo'yadi: “Shundoq bo'lgach, ajoyib kitoblarni himoya qilish borasida “Teatr uchun pyesa qilib qayta ishlash man etiladi” degan ma'noda adabiy-munitsipal qonun qabul qilsa bo'lasmikan?”. Bundan ko'rinadiki, Balzak inssenirovkaga butunlay qarshi bo'lgan va kitobxon uchun yozilgan asarni teatrga ko'chishini istamagan. Aslida Balzak singari adabiy mezonlarga qat'iy rioya qilgan realist yozuvchilarning bunday xulosaga kelishi tabiiy hol. Chunki ular kitobning jozibasini, badiiyatini boshqa san'at turlari saqlab qolishiga shubha qilishadi.

Zamonamizning ulkan adiblaridan biri, atoqli yozuvchi Chingiz Aytmatov ham nasriy asarning teatrga ko'chishi haqida mulohaza yuritib, shunday yozadi: “Mening bilishimcha, Chexov va Gorkiy davrida prozaning sahnaga ko'chirilishi juda kam uchraydigan hodisa edi. Ammo, bugun negadir proza asarlariga tez-tez qo'l urmoqdalar. Xo'sh, yaxshimi bu yoki yomonmi? Bunga bir so'z bilan javob berib bo'lmaydi. Bir tomondan olganda, prozaning inssenirovka qilinishi yaxshi, ikkinchi tomondan esa, uncha yaxshi deb bo'lmaydi. Inssenirovkalar har xil, hammasi ham muvaffaqiyatli chiqishi qiyin”. Aytmatov masalaga nisbatan xayrixohdek ko'rinsa-da, biroq u ham inssenirovkaning tarafdori emasligi ma'lum

bo‘lmoqda. Shunday bo‘lsa-da, adib qalamiga mansub deyarli barcha mashhur qissa-yu romanlar dunyoning ko‘plab mamlakatlari, xususan, yurtimiz teatrlarida ham qayta-qayta sahnalashtirilgan va sahnalashtirilmoqda.

Taniqli dramaturg Viktor Rozov esa “Yana inssenirovka haqida” sarlavhali maqolasida mavzu yuzasidan atroflicha fikr yuritib, o‘z qarashlarini quyidagicha bayon etadi: “Inssenirovkaning ko‘pligi haqiqiy dramaturgiya rivojiga to‘sqinlik qiladi. Ko‘plab teatr arboblari o‘rtamiyona pyesadan ko‘ra baquvvat romanni sahnalashtirish afzal ekanini takrorlashadi va bu masalada ular bilan kelisholmayman. O‘ylashimcha, qo‘yilayotgan savol ancha chuqur, ular o‘z vazifasini yengillashtirmoqchi bo‘ladi. Xo‘sh, inssenirovka qanday tayyorlanadi, buning retseptini hech kim, hatto tanqidchi ham bilmaydi. Bu sirdan faqat shu ish bilan shug‘ullangan, uning butun mas’uliyatini his qiladigan ijodkorgina voqif bo‘lishi mumkin. Hozir kamina inssenirovkaga qarshi bo‘layotganimning sababi shuki, u misli yovvoyi o‘tdek dramaturgiyani payxon qilmoqda”.

Rozovning mulohazalarida qaysidir ma’noda jon bor, biroq bu fikrga ham to‘laligicha Teatr va kino O‘zDSMI xabarlari — 2019/1(9) 21 SH.Abdurasulov. Teatr inssenirovkasi va uning ilmiy-nazariy muammolar qo‘shilib bo‘lmaydi. To‘g‘ri, inssenirovkaga haddan ziyod ko‘p murojaat qilish original dramaturgiyaga ehtiyojni susaytiradi, lekin paradoks shundaki, mazkur holat dramaturglarni ko‘proq izlanish va yaratishga, nasr ijodkorlari bilan raqobatlashishga undashi mumkin. Adabiy matn va uning xususiyatlari, matnni qabul qilish va talqin masalalari, nasriy va nasriy bo‘lmagan matn ustida ishlash jarayoni bo‘yicha italiyalik mashhur yozuvchi, faylasuf va adabiyot nazariyotchisi Umberto Ekoning semiotik tahlil nomli nazariy qarashlari diqqatga arzigulik.

Garchi Eko tadqiqotlari filologiya yo‘nalishiga mansub bo‘lsada, nasrni sahna uchun inssenirovka qilishda ushbu ilmiy-nazariy xulosalar zarur obyekt vazifasini bajaradi. Olim kitobxon mutolaa jarayonida asarni qanday qabul qilishi, intuitiv idrok va tasavvur, fikr va hissiyot haqida to‘xtalib, shunday yozadi: “Shunday matnlar borki, ular nafaqat erkin kompozitsiya, balki turfa talqinlarga ega bo‘ladi, original matn egiluvchan, o‘zgaruvchan bo‘lishi va amaliyotga turli shakllarda

tadbiq etilishi mumkin”. Ekoning fikricha, o‘quvchi asarni o‘z zehni va salohiyati, hissiyotidan kelib chiqib talqin qiladi. Drama nazariyotchisi I.Chistyuxinning fikricha, adabiyot va teatrning farqli jihatlarini quyidagicha tasniflash mumkin: – voqelikning ifoda tarzi – adabiyotda bayonchilik, teatrda – aniqlik (konkretlilik) yetakchilik qiladi; – harakat – adabiyotda syujet tadrijiy tarzda, izchillik asosida rivojlanadi, teatrda esa voqelik nafaqat ketma-ket, balki kutilmagan va noodatiy yo‘sinda rivojlanadi; – temporitm – adabiyotda personajlar nutqi, jumlar qurilishi va matn qismlarining o‘zaro munosabatiga asoslansa, teatrda voqealar almashinuvi, personajlarning jonli nutqi, musiqa, chiroq uskunalar, aktyorning jismoniy harakati temporitmni belgilaydi; – vaqt – adabiyotda vaqt tushunchasi cheklanmaydi, teatrda esa spektaklning davomiyligi mavjud, masalan, biror spektakl o‘rtacha 3-4 soat yoki undan kamroq davom etishi mumkin; – belgilar tizimi – adabiyotda matn va uning tarkibi, teatrda so‘z va ohang, harakat, mimika, imo-ishoralar, mizansahna, ssenografiya, musiqa, shovqin, ko‘rgazmali timsollar va h.k. – imkoniyatlar – adabiyotning imkoniyatlari deyarli chegarasiz, boisi har qanday narsani so‘z bilan tasvirlab, bayon etish mumkin.

Teatrda esa bunday emas, ba’zi holatlar borki, ularni sahnada ko‘rsatish ilojisiz. Inssenirovka adabiy asar syujetining turli qismlari, voqealari, motivlari asosida yoziladi. Uning adabiy manbaga qay darajada yaqinligi, original asardan qanchalik farqlanishiga qarab quyidagi turlarga ajratish maqsadlidir: – asar asosida inssenirovka – bunda butun e‘tibor asarning asl mohiyati, mavzu va g‘oyasi, kompozitsiyasini qamrab olishga qaratiladi. Inssenirovkada asar ruhi saqlanadi, obrazlar xarakteri, tabiati, voqealar o‘rni va makoni ham o‘zgarmaydi, ya’ni birlamchi manba haqidagi tasavvur o‘z holicha qoladi. Butun dunyo teatr tajribasida inssenirovkaning mazkur turi keng tarqalgan. – asar motivlari asosida inssenirovka – [motiv fransuzcha motif “kuy”, “ohang” degan ma’noni anglatadi] asar syujetining muayyan, e‘tiborga molik, qiziqarli lavhalari tanlab olinadi va kompozitsiya shu voqealar zamiriga quriladi. Bunda inssenirovka adabiy manbaga aynan tayanmaydi, syujetdagi ayrim unsurlar, elementlar boyitiladi, muallif fantaziyasidan kelib chiqib yangi voqea yoki epizodlarni kiritishi mumkin. Biroq motivlar asosidagi

inssenirovka asl manbadan farqlansa-da, yozuvchi g‘oyalariga daxl qilishi, u bayon etgan voqealarni butkul o‘zgartirib yuborishi mumkin emas. “Xuddi san’at asarida bo‘lganidek, inssenirovkaning ham o‘ziga xos ifoda vositalari mavjud. U, albatta, dastlabki manbaning muhiti, havosi, badiiy tarovati, muallifning individualligi, yozish ohangi va hayotiy qarashlarini qamrab olishi lozim. Inssenirovka jarayonida asar ayrim syujetlar, hatto bir qancha muhim obrazlardan mahrum etilishi mumkin. Lekin bu holat muallifning o‘ziga xosligi, dunyoqarashiga ta’sir etishi mumkin emas”.

Kollaj – bir muallifning bir necha asari yoki aksincha bir nechta mualliflarning asarlari asosida tayyorlangan inssenirovka. Bunda inssenirovka uchun tanlangan asarlarning mazmun-mohiyati, badiiy va g‘oyaviy jihatdan bir-biriga mutanosib kelishi, janr va kompozitsiyasiga e’tibor qaratiladi. Inssenirovkaning bu turiga erkin yondashish mumkin. Shuningdek, bir muallifning turli asarlari asosida inssenirovka tayyorlanayotganda, sahnaviy talqinda umumiy g‘oya mujassam bo‘lishi lozim.

Mazkur nazariy xulosalarga tayangan holda mavzu bo‘yicha quyidagi taklif va xulosalarni bildirish mumkin: – Lirika, nasr, epos singari badiiy adabiyotning turli yo‘nalishlariga tegishli asarlarni teatr uchun inssenirovka qilish jarayoniga professional dramaturglar, yozuvchilarni jalb qilish lozim. Bu faoliyat bilan teatr san’atidan yiroq, havaskor ijodkorlarning shug‘ullanishi adabiy asar va spektaklning muvaffaqiyatsizligiga sabab bo‘ladi; – Dramaturgiya yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarda mustaqil pyesa yozish bilan birga, inssenirovka mahoratini shakllantirish, bu borada zarur bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish tajribali pedagoglar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Bu vazifani institutdagi ta’lim jarayonida bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim. Masalan, birinchi bosqichda ertak, hikoya, masal kabi kichik hajmli asarlar, ikkinchi bosqichda qissa, uchinchi va to‘rtinchi bosqichlarda esa romanlarni inssenirovkaga tayyorlash, ayni masalalar bo‘yicha darslar davomida turli tajriba, eksperimentlar o‘tkazish har jihatdan foydalidir. Shuningdek, o‘quv dasturiga “Inssenirovka asoslari” fanini kiritish fikrimizcha, bo‘lajak dramaturglarning

nazariy va amaliy bilimlarini boyitishga yordam beradi; – O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi respublikamizning barcha teatrlarida adabiy emakdoshlarning o‘rni va rolini kuchaytirish. Sababi ushbu vazifaga tayinlangan ijodkorlar adabiy hayotimizda voqea bo‘layotgan asarlarni o‘kib, tanishib, teatrlarga sahnalashtirish uchun tavsiya qilishadi. Buning natijasida zamonaviy teatr va adabiyot o‘rtasidagi aloqalar mustahkamlanib, adabiy asosi baquvvat, barkamol sahna asarlari dunyoga kelishi mumkin; Zamonaviy o‘zbek nasrining sara namunalarini sahnalashtirish bo‘yicha: – O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o‘rtasida ijodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish; – Yosh rejissyor va aktyorlarda adabiy asarlar bilan ishlash mahorati, ko‘nikmasini rivojlantirish. Xulosa sifatida ta’kidlash o‘rinliki, nasriy adabiyot teatrning badiiy-estetik, ijtimoiyg‘oyaviy ahamiyatini kuchaytiradi, dramatik manbaga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi, repertuarlarning o‘rni muhim.

Qolaversa, badiiy adabiyot namunalarini sahnalashtirish xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida kitobxonlik, mutolaa madaniyatini rivojlantirish, ularning badiiy va estetik didini tarbiyalashga xizmat qiladi. Binobarin, inssenirovkaning ilmiy-nazariy xossalarini o‘rganish, nasr va teatr aloqalarini tadqiq etish teatrshunoslik fanining muhim tadqiqot obyektlaridan hisoblanadi. Inssenirovkaning nazariy qonuniyatlari adabiyot va teatrning ifoda vositalari, mavzu va janr yo‘nalishlari, kompozitsiyasi, qahramonlar xarakteri va boshqa masalalarni qamrab oladi. Ushbu mavzu har ikki san’atning xususiyatlari, uslubi, poetikasi, badiiy komponentlaridan voqif bo‘lishni, ularni yaxlit obyekt sifatida o‘rganishni taqozo etadi. Shuningdek, shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi asrimizda san’atlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir masalalarini tadqiq etish san’atshunoslik fanining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Zero, hozirda biror san’atning rivojlanish tendensiyalarini boshqa san’atlardan ayro tasavvur qilish mumkin emas. Ayniqsa, o‘zida san’atning bir nechta turlarini mujassam etgan, sintetik san’at mahsuli teatrni ijodning boshqa yo‘nalishlaridan ajratib bo‘lmaydi. Shu ma’noda adabiyot va teatr ijodkorlari o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, o‘zbek va jahon adabiyotining sara namunalarini inssenirovka qilish va sahnalashtirish kelgusida ijobiy samara berishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Jahondagi to'rtta ta'lim modeli haqida nimalar bilasiz?
2. Vebinar metodi nima?
3. Tyutor, edvayzer, fasilitator, moderator tushunchalari nimani anglatadi?
4. Yaponiya ta'lim intizomining o'ziga xosligi nimada?
5. Dzyuku, kokoro tushunchalarini izohlang?
6. Konseptual, estetik va ijtimoiy aqlning bir-biridan farqi haqida nimalar bilasiz?
7. IQ - intellekt koeffitsiyenti tushunchasi nimani anglatadi?
8. Diferensiallashgan ta'lim deganda nimani tushunasiz?
9. Individual ta'lim nimada boshlanadi?
10. Yaponiyada nima uchun dzyuku va yebyeku xizmatlariga murojaat qilishadi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abulqosimova X. "Kino san'ati asoslari. Toshkent" (o'quv qo'llanma) 2010
2. Avloniy. Tanlangan asarlar. Toshkent –Ma'naviyat, 2006
3. Aliyev M. "Kino asoslari" Toshkent, 1991 y.
4. Akbarov X. "Kino va televideniye olamida" Toshkent, 2009
5. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Toshkent –Ma'naviyat, 2006
6. Ismoilov E. Mannon Uyg'ur.G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, T.1983
7. Muinov O. Rangtasvir. - T. Sharq nashriyoti, 2008. – 195 b
8. Muhamedov M., Fayziyeva F., Ablyayeva V. Televideniye asoslari.- T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".2008.-134 b (o'quv qo'llanma).
9. Rahimov SH. Musiqa san'atiga o'rgatish metodikasi. - T.: O'quv qo'llanma, 2009. – 224 b.
10. Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi. T; Fan.1968.
11. Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi. Qadimiy zamonlardan VIII asrga qadar. T; Fan.1968.

12. Rahmonov M. Hamza. (O‘zbek davlat akademik drama teatri tarixi.) Birinchi kitob (1914 – 1960 yillar). – T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2001.
13. Rahmonov M., To‘laxo‘jayeva M. T., Muxtorov I. A. O‘zbek milliy akademik drama teatritarixi. – T., 2003.
14. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti, 1965
15. Tasviriy san’at amaliyotida pedagoglarni tayyorlash.-T, 2006
16. Tursunboyev S. Xorijiy teatr tarixi. XrestomatiY. /antik davrdan ma’rifatparvarlik davrigacha/ – T., 2001.
17. Tursunboyev S. Teatr tarixi. – T.: Bilim, 2005.
- Tursunboyev S. Xorijiy teatr tarixi. Majmua. /antik davrdan XXI asrgacha/ – T.: CHO‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2006.
18. Tursunov T. XX asr o‘zbek teatri tarixi. Toshkent, 2009.
19. To‘laxo‘jayeva M. Teatr tanqidchiligi. “San’at” jurnali nashriyoti, T; 2015
20. Uzbekskaaya muzika na stike stoletiy (XX-XXI vv.), problemi (kollektivnaya monografiya). Tashkent, 2008.
21. Xorijiy teatr tarixi. Qayta ishlovchi va tarjimon S. Tursunboyev. 1 jild. T.: O‘qituvchi, 1997.
22. Xorijiy teatr tarixi. Qayta ishlovchi va tarjimon S. Tursunboyev. 2 jild. – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1999.
23. Xudayberganov R.A. Rangshunoslik asoslari. – T.: G‘.G‘ulom nashriyoti. 2006. – 220 b.
24. Qodirov M. O‘zbek teatri tarixi. Ijod dunyosi nashriyot uyi, T: 2003
25. Qodirov M. O‘zbek teatri an’analari. YE; G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1976.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1- Amaliy mashg'ulot: San'atshunoslik fanining asosiy funksiyalari. (2 soat)

Ishdan maqsad: San'at turlari va janrlari, ularning badiiy- ifodaviy vositalari, san'atlarning hozirgi holati va yo'nalishlari o'rganiladi.

Maqsadning qo'yilishi: Teatr, kino, musiqa, raqs, tasviriy san'at va boshqa zamonaviy san'atlarning o'ziga xos xususiyatlari, taniqli dramaturg, rejissyor, aktyor, rassom, kompozitor, baletmeyster va boshqalarning ijodi haqida fikr almashish, tinglovchilarning mavzu bo'yicha ko'tarilgan masalalar xususidagi bilim va amaliy ko'nikmalarini namoyish etishlariga yo'naltirish.

Teatr san'ati yo'nalishi bo'yicha: Teatr san'atining qadimiy san'at turlaridan biri ekanligi, antik teatr namoyandalari, o'zbek xalq tomosha san'ati, an'anaviy teatrning o'ziga xos xususiyatlari, qiziqchi, masxaraboz va qo'g'irchoqbozlar san'ati, O'zbekistonda Yevropa tipidagi professional teatrning vujudga kelishi bunda jadidlarning jonbozlik ko'rsatishi, qadimgi o'zbek an'aviy teatri bilan zamonaviy professional teatrning o'xshash va farqli jihatlari, birinchi milliy yozma dramaturgiyaning yozilishi, o'zbek teatr san'atining mashhur namoyandalari, rejissyor, aktyor, dramaturglar ijodi. Mustaqillik davri O'zbekiston teatrlari, yangi avlod ijokorlarining shakllanishi, yutuq va kamchiliklar, muammo va ularning yechimlari.

Kino san'ati yo'nalishi bo'yicha: Kino san'atining zamonaviy san'at turlaridan biri ekanligi, uning yuzaga kelish tarixi, aka-uka Lyumyerlarning jahon kinematografiyasi tarixidagi o'rni, hozirgi zamon xorijiy va o'zbek milliy kinematografiyasi, uning asosiy janrlari, mashhur kinoijodkorlar, rejissyor va aktyorlar ijodi. O'zbek kino san'atining tarixi, uning asoschilari, mashhur kinorejissyorlar, aktyorlar, kinossenaristlar ijodi. Mustaqillik davri o'zbek kino san'ati, yutuq va kamchiliklar, muammo hamda ularning yechimlari.

Musiqa san'ati yo'nalishi bo'yicha: Musiqa san'atining qadimiy san'at turlaridan biri ekanligi, turlari, janrlari, jahon musiqa san'atining mashhur

namoyandalari, o‘zbek milliy mumtoz musiqa namunalari, zamonaviy o‘zbek musiqa san’ati, mashhur kompozitor va bastakorlar ijodi. Mustaqillik davri o‘zbek musiqa san’ati, yutuq va kamchiliklar, muammo va ularning yechimlari.

Raqs yo‘nalishi bo‘yicha: Raqs san’atining qadimiy san’at turlaridan biri ekanligi, uning xalq an’anaviy tomosha san’ati bilan bog‘liqligi, raqs san’atida xalqning turmush tarzi, urf-odatlar va turli marosimlarning badiiy-estetik shaklda namoyon bo‘lishi Farg‘ona, Xorazm, Buxoro, Surxondaryo raqs maktablari ularning san’atshunos olimlar tomonidan o‘rganilganligi. Mustaqillik davri o‘zbek raqs san’ati, yutuq va kamchiliklar, muammo hamda ularning yechimlari.

Tasviriy san’at yo‘nalishi bo‘yicha. Tasviriy san’atning qadimiy san’at turlaridan biri ekanligi, uning janrlari, jahonning mashhur musavvirlari ijodi, o‘zbek milliy rassomlik san’ati, mashhur klassik namoyandalari, Mustaqillik davri o‘zbek rassomlik san’ati, yetuk musavvirlar ijodi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasining tashkil etilishi, ta’lim tizimi. Zamonaviy rassomlik san’atidagi yutuq va kamchiliklar, muammo va ularning yechimlari.

Mashg‘ulot davomida har bir san’at turi bo‘yicha turli mavzu va janrlardagi konkret san’at asarlari tahlil qilinadi, unda tinglovchilarning bilim va amaliy ko‘nikmalari sinovdan o‘tadi.

2-amaliy mashg‘ulot: San’at jamiyat rivojlanishining muhim omili sifatida. San’at turlari va o‘ziga xos ifoda vositalari. (2 soat)

Ishdan maqsad: San’at turlarining jamiyat madaniy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni, insonlar tafakkuri va dunyoqarashining kengayishi, yoshlarda estetik did va badiiy tafakkurning shakllanishiga ta’siri o‘rganiladi.

Maqsadning qo‘yilishi: Jamiyat rivoji va ma’naviy hayotida san’atning o‘rni va san’atkor mas’uliyati masalalari.

San’at – har qanday ijtimoiy voqelik sifatida davr maxsuli hisoblanadi. Har bir davr o‘z san’atini yaratadi. Shuning uchun ham hech bir san’at turi o‘z davrining ijtimoiy munosabatlaridan tashqarida bo‘lolmaydi. San’atning qay bir turini

olmaylik, xoh u teatr san'ati bo'lsin, xoh kino, xoh musiqa yoki tasviriy san'at bo'lmasin, albatta o'z davrining qiyofasini o'z asarlarida olib chiqadi. Bu manzara har bir san'at asarining obrazli talqinida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham san'atshunoslikda san'at tarixini davrlashtirishga alohida e'tibor beriladi. Masalan, Qadimgi davr san'ati, O'rta asrlar davri san'ati, Uyg'onish davri san'ati, Ikkinchi jahon urushi davri san'ati, Mustaqillik davri san'ati va hokazo. Ularning har birida qay bir darajada u yoki bu davrga xos bo'lgan qiyofa, muhit, manzara namoyon bo'ladi. Buni har bir san'at turining faqat o'zigagina xos bo'lgan usul va badiiy ifoda vositalarida yaratilgan san'at asarlarida obrazli ko'ramiz. Xususan, adabiyotda so'z, tasviriy san'atda rang, musiqada ohang, teatr san'atida xatti-harakat, kinoda tasvir orqali obrazlar yaratiladi.

Mashg'ulotlar davomida har bir san'at turining ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyati, jamiyat taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi alohida misollar orqali tahlil qilinadi.

Shuningdek, xozirgi zamonning dolzarb muammolaridan bo'lgan ma'naviy, mafkuraviy va axborot xavfsizligining mazmun-mohiyati va ularning jamiyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotiga ta'siri masalasi ham san'atshunoslar diqqat-markazidagi jiddiy masalalardan hisoblanadi. Sababi, har qanday ijtimoiy voqeelik kabi san'atning ham kishilar ongi va tafakkuriga ijobiy ta'siri bilan birga, salbiy oqibatlariga olib keluvchi ta'sir kuchi ham borligini unutmaslik kerak. Ayniqsa, globallashtirish jarayonida Yer kurrasining turli joylarida yuzaga kelgan ba'zi bir buzg'unchilik xarakteridagi qo'shtirnoq ichidagi "san'at asarlari" ham borki, ular ayniqsa yoshlar ongini zaharlab, jamiyatimiz va mentalitetimizga yot bo'lgan g'oyalarni targ'ib qilishga xizmat qiladi. Bunday harakatlarning mavjudligi "ommaviy madaniyat" degan tushunchani keltirib chiqardi. Tinchlik-totuvlik, ezgulik, insonparvarlik g'oyalariga asoslangan sof milliy va umumbashariy madaniyatni unga teskari bo'lgan, buzg'unchilik va ma'naviy tanazzulga yetaklovchi "ommaviy madaniyat"ning turli ko'rinishlaridan farqlay bilish, ularning

maqsad vazifalari va tub mohiyatini ochib berish ham san'atshunoslikning alohida qirralaridan hisoblanadi.

Mashg'ulotlar davomida tinglovchilar ma'naviy va mafkuraviy tahdidlarning san'at sohasi orqali kirib kelishi, (turli adabiyotlar, musiqiy kliplar, audio-video-kino maxsulotlar va h.k.), ularni oldini olish yo'llari bilan tanishadilar va mavzu bo'yicha ko'tarilgan masalalar yuzasidan aniq misollar orqali amaliy ko'nikmalarini namoyish etadilar

3 - amaliy mashg'ulot: Teatr-sintetik san'at sifatida (4 soat)

Ishdan maqsad: Teatr turlari va janrlari, ularning badiiy- ifodaviy vositalari, teatr san'atining boshqa san'at turlari (adabiyot, musiqa, raqs, rassomlik, kino va h.k.) bilan bog'liqligi teatr san'atining xozirgi holati va yo'nalishlari o'rganiladi.

Maqsadning qo'yilishi: Teatr san'atining qadimiyligi, uning turlari va janrlarining o'ziga xos xususiyatlari, boshqa san'at turlari bilan sintezlashuvi, taniqli dramaturg, rejissyor, aktyor, rassom, kompozitor, baletmeyster va boshqalarning ijodi haqida fikr almashish, tinglovchilarning mavzu bo'yicha ko'tarilgan masalalar xususidagi bilim va amaliy ko'nikmalarini namoyish etishlariga yo'naltirish.

Teatr san'atining qadimiyligi. Qadimgi dunyo (antik) teatri. Antik teatr namoyandalari ijodi va ularning o'zbek sahnasidagi talqinlari. G'arb va Sharq teatrining o'zbek teatri shakllanishi va rivojiga bo'lgan ta'siri. G'arb dramaturgiyasi. Shekspir, Shiller, Molyer, Brext dramaturgiyasi, ularning o'zbek teatrlaridagi sahna talqinlari. Rus dramaturgiyasi. A.Ostrovskiy, A.Chexov, N.Gogol dramaturgiyasi, ularning o'zbek teatridagi sahna talqinlari.

K.Stanislavskiyning teatr reformalari. K.Stanislavskiy sistemasini. "San'atdagi hayotim" va "Aktyorning o'z ustida ishlashi" kitoblarining mazmun-mohiyati. Stanislavskiy ta'limotining rus va jahon teatr san'atiga ta'siri.

Qadimgi o'zbek teatri, an'anaviy xalq tomosha san'ati, qiziqchi, masxaraboz va qo'g'irchoqbozlar san'ati. Mashhur qiziqchilar ijodi. An'anaviy teatr dramaturgiyasi. San'atshunoslik sohasida o'zbek teatri tarixining o'rganilishi.

XX asr Yevropa tipidagi professional o'zbek teatrining yuzaga kelishi, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari. Jadidlar harakatining milliy teatrimiz shakllanishiga ta'siri. Dastlabki yozma dramaturgiya. Jadid dramaturgiyasi mazmun-mohiyati, yetakchi mavzu va g'oY.

Atoqli rejissyorlar Mannon Uyg‘ur, Yetim Bobojonov, Toshxo‘ja Xo‘jayev, Aleksandr Ginzburg, ularning shogirdlari Bahodir Yo‘ldoshev, Rustam Hamidov, Karim Yo‘ldoshev, Najmatdin Ansatboyev, Mansur Ravshanov va boshqalar ijodi.

Mashhur aktyorlar Abror Hidoyatov, Sora Eshonto‘rayeva, Halima Nosirova, Shukur Burxonov, Olim Xo‘jayev, Nabi Rahimov, Lutfixonim Sarimsoqova, Razzoq Hamroyev, Soib Xo‘jayev, Hamza Umarov va boshqalar ijodi.

Milliy dramaturgiyaning shakllanishi. Asosiy mavzu va janrlar. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Komil Yashin, Uyg‘un, Izzat Sulton, Sarvar Azimov, Turob To‘la, O‘lmas Umarbekov, Sharof Boshbekov, Usmon Azim va boshqalar ijodi. Mustaqillik davri teatr san‘ati. Dramaturgiya, rejissura, aktyorlik san‘atidagi an‘ana va zamonaviy tendensiyalar. Repertuar siyosati, yutuqlar, kamchiliklar, muammo va ularning yechimlari.

Mashg‘ulotlar davomida tinglovchilarning jahon va o‘zbek teatr san‘ati xususidagi bilim va ko‘nikmalari sinovdan o‘tadi. Bunda adohida dramaturgik manba, uning rejissyorlik talqini va aktyorlar ijrosi tahlil qilinadi.

4-amaliy mashg‘ulot. San‘at sohasidagi turli zamonaviy uslub va yo‘nalishlar (2 soat)

Ishdan maqsad: San‘atdagi turli oqim va yo‘nalishlarini belgilash.

Maqsadning qo‘yilishi: Ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘zgarishlar ta‘sirida san‘at turlarining zamonaviy tamoyillar bilan boyib borishi, yangi usul va yo‘nalishlarning yuzaga kelishi omillari aniqlanadi, uning ijobiy va salbiy ko‘rinishlariga munosabat bildiriladi. Tinglovchilar mavzu bo‘yicha ko‘tarilgan masalalar yuzasidan amaliy ko‘nikmalarini namoyish etadilar.

San‘at turlarining tarixiy shakllanish va rivojlanish bosqichlaridagi turli oqim va yo‘nalishlarning yuzaga kelishi, yangi-yangi mazmun va shakllarda namoyon bo‘lishi, ularning har biriga xos alohida xususiyatlarning san‘at asarlarida aks etishi haqida mulohaza yuritiladi. Jumladan;

Klassitsizm [*nem.* Klassizismus < *lot.* classicus – namunali] 17-asr – 19-asr boshlarida Yevropa adabiyoti va san‘atida antik adabiyot va san‘at namunalari va shakllariga murojaat va taqlid qilish asosida shakllangan badiiy uslub va oqim.

Abstraksionizm [*lot.* abstractio – mavhumlik, uzoqlashish] 20-asr tasviriy san’atida, haykaltaroshlik va grafikasida o‘ta formalistik oqim bo‘lib, uning tarafdorlari obyektiv voqelikni mavhum geometrik shakllar, pala-partish chiziqlar, nuqtalar birikmasi (bog‘lanmasi) sifatida tasvirlaydilar.

Avangardizm [*fr.* avant-gardisme – ilg‘orlik] 20-asr san’at va adabiyotida realistik bo‘lmagan (hatto realistik oqimga zid) oqimlarning umumiy nomi. Uning tarafdorlari adabiyot va san’atning avvaldan mavjud an’analarini tan olmay, uni tubdan yangilashni, uning tasviriy va shakliy imkoniyatlarini kengaytirishni maqsad qilib qo‘ygan, shunga ko‘ra, hatto realizmni ham rad etganlar.

Barokko [*ital.* barocco – ajib, g‘alati, jimjimador] 16-asr oxiri – 18-asr o‘rtalarida Yevropa san’atida mavjud bo‘lgan, manzaraviy serhashamligi, jimjimadorligi, tasviriy rang-barangligi bilan ajralib turadigan uslublardan biri. *Barokko uslubida qurilgan me’moriy majmualar fazoviy yechimi, mayda me’moriy bezaklarga mo‘lligi va yagona g‘oyaga bo‘ysunishi bilan ajralib turadi.*

Impressionizm (frans. Impression — taassurot) — san’atda 19-a. oxiri — 20-a. boshlarida hukm surgan yo‘nalish. Impressionizm vakillari mavjud borliqni harakatda, o‘zgarishda tabiiyroq tasvirlashga, o‘z laxzalik taassurotlarini ifodalashga intilib, tasvirning jonli, haqqoniyligiga erishgan. Voqelikning tabiiyligi, inson va muhit birligida uning doimiy o‘zgaruvchanligi ifoda etildi. Dastlab 1860-y.larda fransuz rang-tasvirida vujudga kelgan. E. Mane, K.Mone, O. Renuar hayotdan olgan bevosita jonli taassurotlarini tasodifiy harakat, favqulodda holatlar ifodasida namoyon etdilar.

Kubizm (kub so‘zidan) — Yevropa tasviriy san’ati (ko‘proq rangtasvir) dagi modernistik oqim; 20-asrning 1-choragida yuzaga kelgan. Dastlab Fransiyada paydo bo‘lgan (1908—10). K. san’atning realistik an’analaridan voz kechib, hajmli shakllarni loyihalash vazifasini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Namoyandalari P. Pikasso, J. Brak, X. Gris, J. Gri va boshqalar.

Modernizm - 1) 19-a.ning 2-yarmi —20 asrning 50—60-y.larida Yevropa,AQSH adabiyoti va san’atida rivoj topgan oqim va yo‘nalishlarning umumiy nomi. Dastlab, Fransiyada tashkil toptan simvolizm, akmeizm, impressio-

nizm (mas, 1863 y.da Parijda ochilgan «Xo‘rlanganlar saloni») vakillari, musiqada K.Debyussi, M.Ravel kabi kompozitorlar ijodiga nisbatan qo‘llangan. Modernizm dekadentlik termini b-n ham yuritilgan. Badiiy ijodning mumtoz an‘analaridan voz kechish, ijodkor o‘z shaxsiy kechinma, taassurot va tasavvurlarini ustun qo‘yishi, badiiy shakllarni yangilash jarayoniga alohida ahamiyat berish ular ijodiga xos bo‘lgan xususiyatlardir. Modernizm vakillari realizmga karshi kurashdi, klassitsizm (akademizm)ga xos bo‘lgan ijodiy tamoyillarni inkor etishga intildi.

Naturalizm (frans. naturalizme, lot. naturalis — tabiiy) — 19-asrning oxirgi choragida Yevropa va AQSH adabiyoti va san‘atida yuzaga kelgan oqim va ijodiy metod; real borliqni obyektiv, aniq va hissiz aks ettirishga intilgan. Naturalizm tabiiy fanlarda erishilgan muhim muvaffaqiyatlar ta‘sirida yuzaga kelgan. Asosiy tasvir obyekti — inson, uning tabiiy va fiziologik hayot tarzi; tabiat va atrof muhitni uning maishiy va moddiy muhiti deb bilgan. Bu esa, o‘z navbatida, badiiy imkoniyatlari cheklangan badiiy madaniyat taraqqiyotini ta‘minladi: Fransiyada E.Mane, E.Dega, A.Tuluzlotrek; Belgiyada K. Menye, P.Polyus; Germaniyada M. Liberman, X. Bartels, K. Kolvits; Italiyada verizm vakili V.Vela va b. Tasviriy san‘atda Naturalizm borliqni g‘oyaviy mazmunsiz, badiiy umumlashma va tanlashlardan holi, tashki ji-hatdan aynan hayotiy aks ettiradi.

Primitivizm - 19-asr oxiri -20-asr boshlarida yuzaga kelgan avangard san‘at oqimi; badiiy vositalarni soddalashtirish va primitiv shakllar (ibtidoiy davr, madaniy jihatdan rivojlanmagan xalklar san‘ati, xalq ijodi hamda bolalar rasmi)ga murojaat etuvchi yo‘nalish. Rassomlarning zamonaviy voqelikdan noroziligi natijasida hayotdan qochib san‘atning ilk davrlariga qaytishi Primitizmning keng tarqalishini ta‘minladi. Primitizm hamma xalklar san‘atida mavjud. Primitizm shuningdek, san‘atga daxldor bo‘lgan, biroq, professional ta‘lim olmagan, xalq ichidan chiqqan havaskor rassomlarning uslubini ham ifodalaydi. Primitizm yangi dunyo madaniyatidan holi bo‘lgan, undan «sof» san‘at sifatida targ‘ib qilindi.

Realizm I [lot. realis – moddiy, haqiqiy] **1 ad.** Adabiyot va san‘at (tasviriy san‘at, teatr, musiqa va b.) da voqelikni, hayotni ifoda vositalari orqali, badiiy

obrazlarda butun to‘laligi bilan o‘ziga o‘xshash shakllarda haqqoniy aks ettirish usuli.

Romantizm [*fr.* romantisme] **1** 18-asrning oxiri – 19-asrning birinchi choragida Yevropa, shuningdek, Amerika adabiyoti va san’atida paydo bo‘lgan, klassitsizm qonun-qoidalariga qarshi chiqib, milliy va individual o‘ziga xoslikka, ideal qahramonlar va tuyg‘ularni tasvirlashga intilish bilan ajralib turuvchi yo‘nalish, oqim.

2 Adabiyot va san’atda: optimizm ruhi bilan sug‘orilgan va insonning yuksak burchini yorqin obrazlarda tasvirlashga intilgan yo‘nalish.

Simvolizm [*yun.* symbolon – belgi, ramz; timsol] **1** Simvollar, ramzlar majmui.

2 19-asr oxiri – 20-asr boshlarida dastlab Fransiyada, keyin Yevropaning boshqa mamlakatlarida paydo bo‘lgan adabiy oqim [Simvolizm da belgi, ramz (simvol) poetik obrazlilikning cho‘qqisi, g‘oyaning eng mukammal ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi]. *Simvolizmning yuzaga kelishi Parij Kommunasi tugatilgandan keyin fransuz voqeligida vujudga kelgan ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bog‘liq.* «O‘zME».

Formalizm (lot. Sormalis — forma, shaklga oid) — inson faoliyatining turli sohalarida shakl (forma)ni mazmunga nisbatan ustun qo‘yish. Jamiyatni boshqarishda byurokratizm, to‘rachilikda namoyon bo‘ladi. San’at va adabiyotda Formalizm — realizmga zid bo‘lgan badiiy metod. San’atda Formalizm san’at va voqelikni qarama-qarshi qo‘yish, badiiy shaklni mazmundan ajratish, shaklning alohidaligi va ustunligini ta’kidlashdan iborat.

Mashg‘ulotlar davomida tinglovchilarning san’atdagi turli oqim va yo‘nalishlarga munosabati, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash borasidagi bilim va ko‘nikmalari namoyon bo‘ladi.

5-amaliy mashg‘ulot. San’atshunoslik sohasida ilmiy tadqiqotlar.

(2 soat)

Ishdan maqsad: San’atshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning mazmun-mohiyati, mavzular rang-barangligi, ularning san’atshunoslik fanining tarixi va nazariyasini o‘rganishdagi o‘rni va ahamiyati haqida mulohaza yuritiladi.

Maqsadning qo'yilishi: San'atshunoslik fanining ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'rni va ahamiyati, uning turlari va janrlari bo'yicha mavjud ilmiy-tadqiqotlarning ilmiy qimmati, atoqli o'zbek san'atshunos olimlarining faoliyati xususida fikr almashish, tinglovchilarni mavzu bo'yicha ko'tarilgan masalalar borasidagi bilim va amaliy ko'nikmalarini namoyish etishga yo'naltirish.

San'atshunoslik sohasi ko'p tarmoqli bo'lib, san'atning barcha turlari va janrlarini qamrab oladi.

Jumladan:

Teatr san'ati bo'yicha – uning turlari, janrlari mavzusida olib borilgan tadqiqotlar. Teatr san'atining kelib chiqish tarixi, shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, dramaturgiya masalalari, rejissura va aktyorlik san'atidagi an'ana va zamonaviy tendensiyalarning yuzaga kelishi, zamonaviy teatr san'atidagi integratsion jarayonlar, jahon klassik dramaturgiyasi hamda milliy mumtoz adabiyotning sahna talqinlari, talqin va ijroda zamonaviy yondashuv va innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi, yutuq va kamchiliklar, muammolarni bartaraf etish yo'llari.

Kino san'ati bo'yicha – uning alohida xususiyatlari, turlari, janrlari xususida olib borilgan tadqiqotlar. Kino san'atining tarixi, shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, kinossenariy, rejissura va aktyorlik san'atidagi an'ana va zamonaviy tendensiyalarning yuzaga kelishi, kino san'atida innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi, badiiy, xujjatli, ilmiy-ommabop, qisqa metrajli hamda animatsion filmlar suratga olish jarayonlari, milliy kinematografiyadagi yutuq va kamchiliklar, muammolarni bartaraf etish yo'llari.

Musiqqa san'ati bo'yicha – uning alohida xususiyatlari, turlari, janrlari xususida olib borilgan tadqiqotlar. Musiqqa san'atining tarixi, shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, jahon musiqqa san'atining milliy kompozitorlik san'atiga ta'siri, bastakorlik va milliy ijrochilik, musiqqa san'atidagi an'ana va zamonaviy tendensiyalarning yuzaga kelishi, milliy musiqqa san'atidagi yutuq va kamchiliklar, muammolarni bartaraf etish yo'llari.

Raqs san'ati bo'yicha – uning alohida xususiyatlari, turlari, janrlari xususida olib borilgan tadqiqotlar. Raqs san'atining qadimiyligi, mashhur baletmeysterlar hamda usta raqqos va raqqoslar ijodi. O'zbekistonda milliy raqs va xoreografiyani rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, yutuq va kamchiliklar, muammolarni bartaraf etish yo'llari.

Tasviriy san'at bo'yicha – uning alohida xususiyatlari, turlari, janrlari xususida olib borilgan tadqiqotlar. Jahon tasviriy san'atining o'zbek milliy rassomlik maktabining shakllanishi va rivojiga ta'siri. Milliy miniatyura san'ati, Kamoliddin Behzod ijodi. O'zbekistonda tasviriy san'at sohasini rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar, yutuq va kamchiliklar, muammolarni bartaraf etish yo'llari.

Mashg'ulotlar davomida tinglovchilar mamlakatimizda va xorijda chop etilgan kitoblar, maqola va intervyular orqali san'atshunoslik sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning mavzulari, yo'nalish va janrlari bilan tanishadilar, ba'zi xorijiy manbalarni dars jarayoniga qo'llashning ijobiy yoki salbiy jihatlari to'g'risida ochiq muloqot, baxs va munozaralar tashkil qilinadi. Shu orqali tinglovchilarning soha yuzasidan bilim va ko'nikmalari sinovdan o'tadi.

6-amaliy mashg'ulot. San'atshunoslik sohasidagi zamonaviy yondashuvlar. (2 soat)

Ishdan maqsad: Barcha sohalar qatori san'atshunoslik sohasi ham zamon bilan hamnafas rivojlanib, taraqqiy etib boraveradi. Shunga muvofiq, san'at turlarining rivojlanib, taraqqiy etib borishiga hamohang ravishda san'atshunoslik fanida ushbu jarayonlarga nisbatan munosabat o'zgarib, yangilanib, zamonaviy tendensiyalarning yuzaga kelishi haqida mulohaza yuritiladi.

Maqsadning qo'yilishi: San'atshunoslik fanining jamiyat ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti bilan birga o'zgarib, takomillashib borishi, san'atshunoslik ilmi va amaliyotida yangi yondashuv va tamoyillarning yuzaga kelishi xususida fikr almashish, tinglovchilarni mavzu bo'yicha ko'tarilgan masalalar borasidagi bilim va amaliy ko'nikmalarini namoyish etishga yo'naltirish.

San'atshunoslik sohasidagi zamonaviy yondashuvlar eng avvalo har bir alohida san'at turining rivojlanish xususiyatiga bog'liq holda yuzaga keladi. San'atlarning shakl va mazmun jihatdan o'zgarib, takomillashib borishi ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar ta'sirida yuz beradi. Bu jarayon bir necha bosqichdan iborat bo'lib, unda asosan san'atkor shaxsining tafakkuri, ongi-shuurida jamiyat o'zgarishlariga nisbatan shakllanib kelayotgan munosabatlari muhim rol o'ynaydi. San'atkor hayotga, ijtimoiy borliqqa qanday ko'z bilan qarasa, san'at asarlarida ham xuddi shuning badiiy tasvirini ko'ramiz.

Yangi innovatsion texnologiyalarning kirib kelishi ham zamonaviy san'atlarning taraqqiy etishida muhim ahamiyat kasb etadi. San'at sohasidagi yangi texnologiyalar o'z navbatida san'at asarlarini yangi shakl va mazmun bilan boyitadi, shu orqali san'at asarlariga nisbatan yangicha qarash, yangicha munosabatlarning shakllanishiga turtki bo'ladi.

San'at sohasidagi transformatsion jarayonlar, san'atlarning o'zaro sintezlashuvi ta'sirida shakl va mazmun birligining yangi ko'rinishlarining vujudga kelishi ham zamonaviy san'at asarlariga munosabat va yondashuvning yangi, o'ziga xos jihatlarini yuzaga keltiradi.

San'atshunoslik ta'limi sohasida ham yangi, zamonaviy uslub va yondashuvlarni ko'ramiz. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va modul asosida darslarni tashkil etish amaliyoti. Mashg'ulotlar davomida san'atshunoslik fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalaridan foydalanish, ochiq darslarni o'tkazish va darslarni tahlil qilish, darslik va elektron darslik hamda o'quv va elektron o'quv qo'llanmalardan foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tinglovchilar mavzu bo'yicha ko'tarilgan masalalar yuzasidan bilim va amaliy ko'nikmalarini namoyish etadilar.

San'at ta'limida iqtidor tushunchasining mohiyati. San'atshunoslik fanini o'qitishning maqsad va vazifalar. Integratsion o'qish tajribalari. Tinglovchilar guruhi bilan Toshkent shahrida joylashgan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti va O'zbekiston davlat san'at muzeylardan biriga tashrif buyuriladi. Teatrning ishlash kundaligi, repetitsiyalar jarayoni, ishlab

chiqarish faoliyati bilan tanishiladi. Darsdan so‘ng muayyan spektakllar tahlil qilinadi va teatrning o‘ziga xosligi borasida fikr almashinadi.

San’at – insoniyat badiiy falsafiy tafakkurining mevasidir. Shu bois unga bo‘lgan inson ehtiyoji aslo so‘nmaydi. Insoniyat madaniy taraqqiyoti zamondan zamonga qarab o‘sib, rivojlanib borar ekan, san’atga bo‘lgan ehtiyoj ham shunga monand muttasil o‘sib boradi. Zamon taqozosi va talabi sifatida yangi turlar, yangi janrlar paydo bo‘laveradi. San’atkor badiiy tafakkuriga, ijro mahoratiga, san’atning badiiy-falsafiy, ijtimoiy-tarbiyaviy asoslariga bo‘lgan talablar ham muttasil o‘sib boraveradi. Ikkinchidan, san’at muxlislarining, demakki, keng xalq ommasining san’atdan badiiy-estetik zavq olishga intilishi asnosida uning san’at turlari xususiyatlarini anglashga, san’atkorlar hayoti, ijodi, mahoratlarining o‘ziga xos tomonlarini, imkoniyat darajalarini, san’atlar taraqqiyoti jarayonlaridagi yutuqli va muammoli tomonlarini bilishga intilishi azaldan yuksak darajada bo‘lgan. Shu bois, bugungi axborot-kommunikativ imkoniyatlar oshgan, globallashuv jadallashgan bir sharoitda bu masala yanada o‘tkirlashib ham badiiy-ijtimoiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy dolzarblik ko‘rsatmoqda. Har ikkala jarayonning garmonik tarzda borishi va rivojlanishini ta’minlashda juda ko‘p omillar qatori san’atshunoslikning o‘rni ham eng muhim shartlardan biri bo‘lib kelmoqda.

Bugungi kunda ayrim tadqiqotchilar san’at o‘z mahsuliga ega bo‘lganligi sababli uni ishlab chiqarish tarmog‘iga qo‘shadilar. Boshqalarning fikricha esa san’at mahsuli estetik ramzga ega va madaniy jihatdan estetik ehtiyojni qondirishga qaratilmagan boshqa mahsulotlardan ajralib turadi. Lekin ikkala turdagi mahsulot qandaydir ma’lum bir axborot tashuvchisi hisoblanadi va qay biri aynan san’atga tegishli ekanligini aniqlash ba’zi bir xollarda qiyin bo‘ladi. Baumolning fikricha, kolleksioner masalan san’at predmetini xarid qilishidan estetik zavq olishi bilan birga moliyaviy daromadni ham ko‘zlaydi. Xonig esa rangtasvir asarini moddiy madaniyatning tugallangan predmeti (artefakt), tasviriy mahsul va iste’mol predmeti sifatida tavsiflagan.

Barrere va Santagata (1999) haykaltarosh Konstantin Brankusining san’atga tegishli va san’atga tegishli emasligini qanchalik murakkab ekanligini namoyish

qilish maqsadida 1927 yili Nyu Yorkdagi Bojxona boshqarmasiga qarshi bo‘lgan sud ishini misol tariqasida keltiradilar. Uning Nyu York portiga olib kirilgan “Fazodagi qush” nomli haykalini qanday tovarlar guruxiga kiritish qiyinchilik tug‘dirdi, chunki 1913 yildan buyon AQShga kelgan san’atga tegishli barcha tovarlar bojxona to‘lovlaridan ozod etilgan edi. Lekin ko‘pchilik haykalni ishlab chiqarishga xosligi va undan import boji undirilishi kerakligini bahslashishadi. Brankusi bu ishni yutib chiqdi, lekin hanuzgacha san’at mahsulini aniqlashda ko‘plab bahslar olib borilmoqda. Ushbu vaqtda aniqlangan omillarga san’at ishining originalligi va haqqoniyligi, u qo‘lda yasalgan va yasalmaganligi, uning amaliy qiymati va iste’mol ko‘rsatkichlari kiritildi. Hozirda ko‘plab san’at ishlarini uning originalidan farqlash mushkul. Ammo sanoat prototiplar original hisoblansa ham ular san’at asarlari emasligicha qolaveradi. San’atning chegarasi cheksiz va zamonaviy san’at vaqt bilan chegaralangan, hamda ommaviy ishlab chiqarish omillarini o‘ziga jalb etadi. Jismoniy originallik o‘rnini tez tez yangi g‘oyalar egallaydi. San’atshunoslikning o‘ziga xos qirralari, rivojlanish tendensiyalari uning subyekt va obyektlaridagi o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi. Subyektlariga san’at mahsuli yaratuvchilari, vositachilar va iste’molchilar kirsa, obyektlarini esa san’at mahsuli, tashkilotlar, shaxslar tashkil etadi. San’atshunos esa bu borada o‘ziga xos vositachi, asl san’at va sanoat mahsulining qiymatini belgilovchi mutaxassisdir.

VI. KEYSLAR BANKI

VI. KEYSLAR BANKI

Keys №1. “Tunda ochiq”

San’at ommabopligini yanada oshirish tufayli ushbu sohadagi qo’shimcha qiymatning kapitalga aylanish jarayoni Teyt Modern galereyasi uchun muvaffaqiyatli o’tdi. Mazkur kompaniyani 2002 yil mart va may oylarida Londonning 8ta galereyasidan iborat birlashma o’tkazdi. Galereyalar kompaniyada o’zlariga xos vazifalarni belgilagan bo’lsalar ham, lekin barchalari quyidagi maqsadlarga o’z diqqat e’tiborini qaratdilar:

- tungi soatlarning uzaytirilganligi xaqida ko’proq tashrif buyuruvchilarni xabardor etish;

- kechki soat 6 dan keyin tashrif buyuruvchilar sonini oshirish; - galereyalar xaqidagi “zerikarli va jonga tekkan joy” degan tassavurni o’zgartirib, galereyalar - ijtimoiy xayotning bir qismi sifatida kabi konsepsiyani taklif etish;

- tashrif buyuruvchilar zavq oladigan alohida bir tadbirlar, ma’ruzalar, safar, jonli ijro, restoran, bar va xaridlar kabi faoliyatlar doirasini OAVda yoritib borish.

Ba’zi bir galereyalar, xususan V&A galereyasi tungi soatlargacha ikki yil mobaynida ishlab kelgan va 1500 -2000 ga yaqin tungi tashrif buyuruvchilarni jalb etgan. Boshqalari esa, masalan Milliy Portret Galereyasi xaftasiga ikki tun ochiq bo’lib, bir yil mobaynida ishlagan edi, unga 300-400ga yaqin odam kechqurun tashrif buyurgan. Dalvik Tasvir Galereyasi o’z tajribasida tungi tashriflarni hech qachon qo’llamagan va bunday imkoniyatdan foydalanish istagini bildirdi. Kampaniya uchun maqsadli gurux etib 25-34 yoshli san’atdan xabardor yoki mutaxasis, Londonda yashaydigan yoki ishlaydiganlar tanlab olindi. Ushbu segmentni jalb etish uchun “San’atni sevasanmi?

Undan zavq ol...Kechroq.” shior ishlab chiqildi.

Ushbu shior reklama brendi sifatida yurakcha shakldagi shirinliklarga biriktirildi.

Har bir galereya xaqida ma’lumot, uning joriy ko’rgazmalari va kech tungacha ochiqligini yoritgan 190000ta risola nashr etildi. 66000tasi London va Vest Endga distribyuter agentligi tomonidan tarqatildi.

Qatnashuvchi galereyalar har biri 8000tasini tarqatdi, qolgani esa *Time Out* jurnaliga ilova qilindi.

Jurnal o'quvchilari maqsadli auditoriyaga yoshi, hayot tarzi kabi ko'rsatkichlari bilan to'g'ri keldi. Ushbu xarakterlar orqali 89%ga o'sish kuzatildi.

Risolada galereyalarda ochilgan tungi barlar xaqida tafsilotlar, xususan Absolut vodka homiyligidagi Love Art arog'idan kokteyli bepul taklif etilishi berildi. Absolut brendi tanlangan tashrif buyuruvchilar auditoriyasiga to'liq mos keladi. Bundan tashqari *Time Out* har hafta tungi barlarni reklama qilib, gazetxonlarga maxsus chegirmalarni taklif etib bordi.

Kampaniya xarajatlari qatnashchilar o'rtasida taqsimlanib, 1400 funt sterlingga teng bo'ldi. Asosiy xarajatlarni risolalarni chop etish va tarqatish tashkil qildi. *Time Out* gazetasi homiyligida 21000, Absolut brendi tomonidan esa 8000 funt sterlingdagi xarajatlar qoplandi. Xeyuard Galereyasida ochilgan birinchi tungi bar birinchi tundayoq o'rtacha sondan ancha ko'p bo'lgan tashrif buyuruvchilar -300tasini jalb etdi. Milliy Portret Galereyasiga esa 800ga yaqin mijoz keldi. Xattoki eng past reytingda bo'lgan Dalvik Tasvir Galereyasiga 200ta odam keldi. Kampaniya tugaganidan so'ng natija ko'plab galereyalarga shunday saqlanib qoldi. Masalan Milliy Portret Galereyasiga tashrif buyuruvchilarning soni o'sib bordi va hozirda tungi tashrif 1000 dan ortiq bo'lib turibdi. *Manbaa: Marlow, 2001.*

Savollar

1. San'at muassasalarining birgalikdagi xarakterida qanday afzalliklar va kamchiliklar bo'lishi mumkin?
2. Galereyalar reklama kampaniyasini o'tkazishda qanday ma'lumotlarga ega bo'ldilar? Ushbu ma'lumotlardan potensial mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni o'rnatishda qanday foydalanish mumkin?
3. Sizing fikringizcha, ushbu kampaniya tashrif buyuruvchilarni san'atga emas balki bepul ichimlikka jalb etishga aylanib qolish xavfi qay darajada? Ushbu xavfni cheklash uchun nima qilish mumkin?

Keys №2. "Xall Trak" teatri tomoshibanlari

Tadqiqotlar oxirigi 2 yil mobaynida Xall shahrining teatrga boruvchi aholisidan faqatgina yarmi Xall Trak teatrida bo'lganligini ko'rsatdi. Bunga qaraganda 10tadan 9tasi shahar markazida joylashgan dasturi turli tumanligi bilan ajralib turadigan Xall Nyu Teatriga borishi aniqlandi. Yilda teatrga uch va undan ortiq marta borgan tashrif buyuruvchilarning soni chorakdan ko'prog'ini tashkil etdi, ularning orasida

hech qaysi Xall Trak teatrida bo‘lmagan. Tomoshabinlarning uchdan bir qismi “yuksak” san’at shakllaridagi zamonaviy dramalarni ko‘rishni xush ko‘rishar ekan va ular orasida Xall Trak teatriga borganlar aniqlanmadi.

Xall Trakning taxlil etilgan joriy tomoshabinlari teatr tashabbuskorlari, doimiy va turli teatrlarga boruvchilar deb topildi. Ular teatrni asosan kechqurun borishga yaxshi joy deb, teatrga borish uydan tashqarida ovqatlanishga borish safari sifatida qabul qilishar ekan. Ularning yoshi 25-44 yoshda.

Bunga qiyosan, yangi potensial tomoshabinlar (teatrga boruvchi lekin Xall Trakka bormaganlar) xaqiqatdan teatrga qiziquvchilar bo‘lmagan. Ular yangilikni izlaydigan va tajriba sifatida qabul qiladigan insonlar toifasidan.

Tashrif buyurishga ta’sir etish. Tadqiqot so‘rovnomasi ishtokchilari bo‘yicha Xall Trak teatriga borish uchun qanday omillarga bog‘liqligi aniqlandi. Teatrga boruvchilarning yarmi shahar markazidagi yangi bino o‘ziga jalb etishini ta’kidladilar. Tanaffusda tomoshabinlar dam oladigan xona yoki zal, bar kafelarnig mavjudligi yoshroq tomoshobinlarni jalb etishi mumkin. Jon Godber John Godber badiiy direktorining mahsuloti ko‘pchilikka yoqishi e’tirof etildi. Lekin ko‘rsatuvlarning yangi shakllarini taklif etish tavsiya etildi.

Marketing natijalari. Xall Trak teatri marketing kommunikatsiyasidagi kamchilik potensial bozorni chuqurroq o‘rganilmaganligi kuzatildi. Teatr tomoshobinlari teatr dasturlaridan teatr tomonidan yuborilgan xatlar, tez tez tashrif buyuruvchilardan xabardor bo‘lib turishar ekan. Ayrimlari maxalliy gazetalarda berilgan ma’lumotlar bilan qiziqib turar ekanlar. Yoshlar esa asosan internetdan.

Savollar

1. Xall Trak teatri o‘z missiyasini oshirishda qanday maqsad va vazifalarni belgilashini taklif qila olasiz.
2. Ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirishda qanday strategiyalarni ishlab chiqasiz. Ushbu strategiyalarni tadbiq etish uchun marketing taktikasini ishlab chiqing.
3. Ushbu rejalarni ishlab chiqishda ma’lumotlar ro‘yxatini tuzing. Agarda Siz Teatr marketing menejeri bo‘lsangiz ushbu ma’lumotlar yetarlicha bo‘larmidi?

Keys №3. Opera hamkorligi

Sidney Opera Xaus butun dunyoda mashxur bo'lgan zamonaviy arxitektura dizaynidagi binolardan birida joylashgan. Opera Xaus tashkiliy rivojlanish innovatori sifatida uning ijrochi direktori Maykl Link to'rt yillik boshqaruvi ostida shakllandi.

Link Avstraliya Kengashidagi teatr menejmentida milliy san'atni qo'llab quvvatlovchi innovatsion shaxs sifatida e'tirof etilib 1998 yilda Avstraliya tasviriy institutini boshqaruvini oldi. Uning boshqaruv faoliyati Opera Xaus uchun ikki muhim tarixiy voqealar – Yangi yil va 2000 yil Sidney Olimpiadasiga to'g'ri keldi. Bunday hodisalar tashkilot uchun ish jarayonining yangi yondashuvlarini talab etardi va Link Operani “o'rganuvchi tashkilot” ga aylantirishga axd qildi. Ushbu atama amerikalik menejment namoyandasi Piter Senj (Peter Senge) tomonidan 1990 yilda “Beshinchi Fan” kitobida yoritilgan bo'lib, unga binoan tashkilot insonlar kabi tizimli ravishda rivojlanishi va tajriba almashishlari lozim. Albatta uning afzalligi bir butunligida, o'rganib borish esa tashkilot muhim faoliyatlaridan biri sifatida tashkiliy quvvatni oshirishda katta kuchdir. Boshqacha qilib ta'kidlanganda esa, “uning a'zolari jamoaviy xabardorlik va unumdorlikni kuchaytirish va qo'llab quvvatlashga doimiy diqqat e'tiborini qaratib turadilar” (Senge *et al.*, 1994).

Opera Xausda muvaffaqiyatga erishish yo'li barcha xodimlarni ushbu yo'nalishga qo'yish deb belgilandi.

Link buni quyidagicha izohladi: “Opera Xausda ishlar qanday bajarilishiga butun shtatni jalb etish yondashuvini biz qabul qildik. Natija –bu ish joyi bo'lib, bu yerda tashkilot rivoji uchun har bir xodim o'z xissasini qo'shish uchun vakolat olgan. Bu shaxsning o'sishi uchun ko'maklovchi ish joyi bo'lib, bunda innovatsiyalar, mahoratni ko'rsatish, “buni qila olaman” degan xatti xarakat tan olinadi va rag'batlantiriladi”. Ushbu jarayoning bosh g'oyasi turli sohalarni qamrab oluvchi loyiha guruxining tashkil topishi bo'lib, unga tajribasi va funksional asosi har xil bo'lgan xamkasabalar kiritildi.

Ularning vazifasi muassasaning 2000 yilga tayyor bo'lishi, ya'ni kompyuterga muvofiqlik va tovar va xizmatlarga yangi soliqlar bilan tanishish. Shu bilan birga madaniy o'zgarishlarga bo'lgan zarurat masalasi muassasaning turli bo'limlari va pog'onalari tomonidan o'rta qo'yildi. Konsepsiya Komandasi deb nom olgan ushbu ishchi gurux e'tiborini muassasaning o'zini hamda bu yerdagi har bir shaxsni takomillashtirishga qaratdi.

VII. GLOSSARIY

VI. GLOSSARIY

Ingliz tilidagi	Termin	O‘zbek tilidagi
Theatre	Teatr	Teatr – (yun. so‘z bo‘lib, tomoshagoh degan ma‘noni anglatadi). San‘at turi; uning o‘ziga xos ifoda vositasi aktyorning omma oldidagi o‘yinjarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeadir. Teatr san‘atida ham boshqa san‘atlarda bo‘lganidek, xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma‘naviyati, madaniyati bilan bog‘liq holda o‘zgarib, takomillashib boradi. Teatr asosida og‘zaki yoki yozma dramaturgiya yotadi. Teatr sintetik san‘at bo‘lib, jamiyat hayotida, tomoshabinlarning ma‘naviy-estetik tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san‘at, raqs, memorlik ajralmas birlikni tashkil etadi. Teatr – san‘atning muhim bir xili bo‘lib, u qadimgi Gretsiyada tug‘ildi.
Decoration	Teatr dekoratsiyasi san‘ati	ssenografiya– tasviriy san‘atning teatr san‘ati bilan bog‘liq sohasi; dekoratsiya, liboslar yorug‘lik, sahna texnikasi vositasida spektaklning tomosha obrazi (ko‘rinishi)ni yaratish san‘ati.
Music	Teatr musiqasi	1. keng ma‘noda - barcha musiqali (opera, balet, operetta, musiqali drama, musiqali komediya, vodevil, myuzikl va b.) hamda dramatik spektakllar uchun yozilgan musiqa. 2. tor ma‘noda – dramatik teatr spektakl (drama, komediya, tragediya)lari musiqasi
Theatre Science	Teatrshunoslik	teatr tarixi va nazariyasini o‘rganuvchi fan. Mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida teatr san‘atining umumiy taraqqiyoti bilan bog‘liq holda XX asrda shakllangan. Teatrshunoslik dastlab, asosan drama teatrlari faoliyati bilan bog‘langan bo‘lsa, keyinchalik opera va balet, operetta, musiqali drama, bolalar teatri, qo‘g‘irchoq teatri, teatr ta‘limi, sahna nutqi, dekoratsiya san‘ati, teatr libosi va pardozi, sahna harakati, havaskorlik teatri sohalari va yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi.
Subject	Syujet	– (fr. va lot. so‘z bo‘lib, predmet, mazmun, mohiyat, narsa degan ma‘nolarni anglatadi). 1. Badiiy asarda, filmda voqea-hodisalar tasviri, bayonidagi izchillik va o‘zaro aloqa; badiiy asar mazmuni. 2. Tasviriy san‘atda: tasvir obykti, predmeti. Syujet – badiiy asar mazmunini tashkil etadigan, bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlikda kechadigan,

		qahramonlar o'rtasidagi aloqalardan tarkib topgan voqealar tizimi.
Acting technique	Aktyorlik san'at	san'at yaratish sasna qiyofalarni (rollarni) teatrdan tomoshalarning taqdimotchilari
Atmosphere	Atmosfera	hayajonli bo'yash har kimning harakatlari, sahnaning, epizoda, bog'liq bo'lgan tavsiya etilayotgan holatlar, voqealardagi tugun, nizoni, tempo-ritma, " donlar ", bog'liqligi harakati va faoliyat yurituvchi shaxslarda uni fe'l-atvorini, yordam beradi.
Proscenium	Avanssena— sahna	dahliz bir bo'lak sahnaning, bir qancha namoyish etilgan tomosha zali. (Rampa). sifatida o'yin uchun belgilangan maydoncha sahna oldi keng foydalanildi oper va balet spektakl dramatik teatrlarda sahna oldi xizmat qiladi. Asosan joy harakatlari uchun katta bo'lmagan sahnalar oldidagi yopiq parda.
Type, theatrical character	Amplua— o'xshash	fe'liga ko'ra rolini, tegishli ma'lum aktyora (aktrisalar) tomonidan bajariladigan rollarning tipi.
Atellana	Atellana-atellana	(qadimgi rim xalq tomoshasi;oddiy xalq hayotini tasvirlovchi qisqa sahna asari)
Annotation	Annotatsiya-annotatsiya	(qisqa qaydlar, kitobning qisqacha mazmuni)
Ballad	Ballada-	(lirik-epik poeziyaning bir turi)
Ballet	Balet-balet	(teatr san'ati turlaridan biri); raqsga asoslangan muzikali-dramatik sahna asari)
Properties	Butaforiya— sahnadagi	yasama jihozlar qalbaki fanlar (haykaltaryoshlik, mebel, idish, bezaklar va boshqalar. Asar voqealarini ochishga yordam beruvchi narsalarni.
Buffoon	Buffonada	kulgili teatr tomoshasi qabul qilish, foydalanilayotgan teatrdan; asosan tashqaridan qaraganda komik bo'rttirib yuborish, ba'zida tartibli harakatlarni, ko'rinishlari

VIII. ADABIYOTLAR RO'XATI

VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3920-son Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 dekabrda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to‘g‘risidagi PQ-4068-son Qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagi “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4584-son Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli [Farmoni](#).

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli [Farmoni](#).

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli [Farmoni](#).

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

SH. Maxsus adabiyotlar

21. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniy obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s.

<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>.

22. Avdeyva L. O‘zbek milliy raqsi tarixidan. - T.: Mukarrama Turgunboeva nomidagi “O‘zbek raqs” milliy raqs birlashmasi, 2001.- 204b.

23. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessi podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

24. Gulobod Quadratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhamedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

25. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 b.

26. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

27. Qodirov M. Tomosha san’ati o‘tmishidan lavhalar. – T: Fan, 1993. – 205-b.

28. Qodirov M. Temur va temuriylar davrida tomosha san’atlari. – T: G‘.G‘ulom nom. nashriyot, 1996. – 64-b.

29. Qodirov M. “Tomosha san’atlari o‘tmishda va bugun” - T: “Mumtoz so‘z”, 2011. - 528 b.

30. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

31. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya / N. Y. Ignatova ; M-vo obrazovaniya i nauki RF ; – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf.

32. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf.

33. Sayfullayev B. Tomosha san'ati tarixi va nazariyasi. – T: «Fan va texnologiya», 2014. - 152 b.
34. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
35. Chaplin Charlz Spenser. O sebe i svoem tvorchestve. M.: Iskustvo. T. 1 - 1990.350 s.
36. Fayziyev X. Ovozsiz kinematografdagi operatorlik san'ati tarixidan. T., 2008. – 180 b.
37. Freylix Teoriya kino: ot Eyzenshteyna do Tarkovskogo. M.: Iskustvo, TPO-1992, “Istoki”, -351 s.
38. O‘zbekiston tarixi va madaniyati. SH.Karimov va boshq. Toshkent: 1992,O‘qituvchi, - 294 b.
39. O‘ngboyeva B.O‘. O‘zbekistonda 1920-1956 yillarda kino va teatr san'ati tarixi. Diss avtoreferati. –T., 2018. –55 b.
40. Yurenev R. Kratkaya istoriya kinoiskusstva. - M.:Akademiya, 2000.- 288
41. Andrew Paquette. An Introduction to Computer Graphics for Artists.- Springer Publishing Company, Incorporated, USA 2013.
42. Agel H. L'espace cinématographique. Paris, ed. J.-P.Delarge-ed. Universitaires, 1978,219 p.
43. Basic Text of the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage, UNESCO, Paris, 2014 y.
44. Benjamin Grosbayne. “Techniques of modern Orchestral Conducting”. Harvard University Press. USA, 2011 y.
45. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
46. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
47. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
48. Mitchell. H.Q. , Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publiciations. 2015. 191.
49. Mitchell. H.Q. “Traveller” B1, B2, MM Publiciations. 2015. 183.
50. Raymond Bisdorff, LuisC. Dias, Patrick Meyer, Vincent Mousseau, Marc, Pirlot. Evaluation and Decision Models with Multiple Criteria.- Springer-Verlag Berlin Heidelberg. - Germany, 2015 y.
51. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
52. Sibsan. “The modern conductor”. Pearson Prentice Hall. Angliya, 2004.

IV. Internet saytlar

53. <http://edu.uz>
54. <http://lex.uz>
55. <http://bimm.uz>
56. <http://ziyonet.uz> –

57. <http://www.dsmi.uz>.
58. <http://www.kino-teatr.ru>
59. <http://www.artsait.ru>
60. <http://belcanto.ru/>
61. <http://music.edu.ru/catalog>
62. <http://artyx.ru/>